етказилган хабарга кўра, гўё вазир ўзининг пайғамбар авлодидан эканлигини айтиб, олижаноб ва мардлиги туфайли подшоликка ҳаққим кўпроқ деб бош кўтармоқчи бўлган. Шунда Халил Олмаликка Аъло ал-Мулк ўрнига бошқа ноиб юбориб, уни ҳузурига чақиради. Айби исбот қилинмай қатл қилинган Аъло ал-Мулк Термиз саййидлари шажарасида «Шаҳид» номини олган<sup>2</sup>. «Бу воқеа Халил салтанати ҳалокатига сабаб бўлди», деб далолат беради Ибн Баттута<sup>3</sup>. Мазкур ҳодиса 1344 йилда содир бўлган, шу даврга оид Халил номи билан Термизда зарб қилинган тангалар сақланиб қолган. XIV асрнинг биринчи ярмидан бошлаб тарихий битикларда ва Термизда зарб қилинган тангаларда шаҳар номига унинг сифат-фазилятларини тасвирлаш мақсадида «Мадинат ар-рижол» сифати кўшиб ишлатила бошланади. Луғатан бу атама араб тилидан мардлар шаҳри деб таржима қилинади. Моҳиятан илмий-оммабоп адабиётда турли талқинлар орасида унинг келиб чиқишини Термиз аҳолисининг муғулларга қарши кураши билан боғлаб тушунтириш устуворлик қилади. Термизнинг «мадинат ар-рижол» деб номланишига, бу хусусда ягона бир хулоса бўлмаса-да, шак-шубҳасиз шаҳар аҳолисининг фаолияти, меҳнати ва жасорати сабаб бўлган. XIV асрнинг ўттизинчи йилларида Термиз Ибн Баттута тасвирида, - «чиройли имонатлари ва бозорлари кўп бўлган йирик шаҳардир, уни бошдан-оёқ анҳорлар кесиб ўтади, боғлари ҳам жуда кўп» бўлса, XV аср бошларида испан элчиси Руи Гонзалес де Клавихо таърифида жуда катта, аҳолиси зич, гавжум кўча ва майдонлари кўп шаҳар бўлган<sup>4</sup>. Албатта, Термизнинг географик жойлашуви: Амударёдан асосий кечув жойи бўлганлиги, Чигатой хукмдорларининг қароргоҳларига яқинлиги шаҳарни ўша давр воқеаларининг марказида бўлишига сабаб бўлган. Лекин, шаҳарнинг ижтимоий ҳаётдаги ўрнини белгиланган омиллардан бири, Термизнинг мусулмон дунёси мафкуравий марказларидан бири эканлиги десак, муболаға бўлмайди. Ҳали Мовароуннаҳрда ислом қадриятлари тўлиқ қабул қилинмаган шароитда Термиз мачитларидаги диний мунозаралар мусулмон дунёсида овоза бўлган<sup>5</sup>. Исо ат-Термизий ҳадис илмида, Ҳаким ат-Термизий тасаввуф таълимотида етакчилардан бўлишган. «Саййиди сирдон» лақабли Саййид Бурҳониддин ҳам, машхур пирлардан шайх Хованд Тохур ҳам, асли исми Саййид Али Шоҳ ат-Термизий бўлган афғон қабилаларининг раҳнамози Пир Бобо ҳам Термиз саййидлари хонадони вакиллари дир<sup>6</sup>. Амир Темурнинг пирларидан ҳисобланмиш Шамсиддин Саййид Амир Кулол ҳам шу хонадон вакили бўлиши мумкин. Бу тахминни билдиришимизга, биринчидан, пирнинг исмлари Термиз саййидларига хослиги, иккинчидан, унинг мақбараси шу хонадон вакилларининг Шаҳрисабздаги кейинчалик – Гумбази Саййидон номини олган даҳнаси бир жойдалиги асос бўлади. Шу алфозда Амир Темур ҳаёти ва фаолиятининг саҳифалари Термиз билан чамбарчас боғланиб

кетганлигини тушунтириш мумкин. Амир Темур ҳокимият учун кураш бошланганида ҳам, унинг энг зафарли кунларида ҳам Термизийлар Соҳибқироннинг сафдошлари бўлган. Бизгача етиб келган манбаларда Термиз ва Термизийлар билан боғлиқ кўплаб воқеалар, Амир Темурнинг Термизга ташрифлари ҳақидаги маълумотлар келтирилади. 1362 йилда Амир Темур Моҳон ҳокими Алибек Жони Қурбоний кўлига асир тушганида, вазирларидан Азизуддин Термиздан юриш қилиб, ёрдамга етиб келади. «Бу иш билан менга қувват бағишлади, шижоат ва мардлигим тутиб, қўлимдаги қилич зарби билан кўп соқчилар орасидан нажот топдим», - деб ёзилган «Темур тузукларида»<sup>7</sup>. Мовароуннаҳрда ўз ҳокимиятини узил-кесил ўрнатиш учун ҳал қилувчи жанг арафасида – ҳижрий 771 йилнинг шаъбон ойида – 1370 йил март ойининг охирида Амир Темур кейинчалик Саййид Барака номи билан машҳур бўлган Саййид Муҳаммад ал-Мадиний билан учрашади. Бўлажак пиру муриднинг мулоқотида Соҳибқирон ўша замон саййидларининг энг улуғ пешвоси қўлидан ҳокимият рамзи-ноғора ва байроқни олиб, унинг дуойи хайрига мушарраф бўлади. Шундан сўнг саййид Амир Темурга буюк келажagini башорат қилади. «Муборак тили ўшал дам гўё парвардигор белгиланган қисмат ва унинг чексиз июнатининг таржимони эди: чунки башорат қилибайтган сўзларнинг на мазмунида ўзгариш ва амалга ошишида кечикиш бўлди», - деб ёзади Шарафиддин Али Яздий<sup>8</sup>. Илмий доираларда ҳам кенг жамоатчилик орасида ҳам Саййид Барака шахсига қизиқиш ортиб, унинг ўлкамизга келиши сабаблари ҳақида турли фикрлар билдирилмоқда. Улардан бирига кўра, Саййид Барака ислом дунёсининг икки муқаддас шаҳри Макка ва Мадина вақфлари – белгиланган микдордаги тўловларини ундириш учун келган. Амир Темур томонидан кўрсатилган бениҳоя катта илтифот натижасида саййид унинг давлатида қолишга қарор қилади. Фикримизча, бу талқин ҳақиқатга яқин бўлса керак. Дастлабки учрашувнинг Термизда бўлишига сабаб шундаки, Саййид Барака ўзи каби аҳл ал-байт, пайғамбар авлодлари хонадонига мансуб Термиз саййидлари олдида келиши табиий ҳолдир. Шунингдек, бу борада Термиз саййидлари хонадаони асосчиси Ҳасан ал-Амирнинг бобоси Мадина ҳокими бўлганлигини алоҳида қайд қилиш керак. Юқорида эсланган Аъло ал-мулк «Шоҳид»нинг ўғиллари Шамсиддин, Алоуддин, Абул Маали ва Али-Акбар доимо Амир Темур билан бирга бўлганлар. Амир Темур тарихидан маълумот берувчи манбаларнинг кўпчилигида Абул Маалининг Соҳибқиронга қарши фитнада иштирок этганлиги қайд этилади. Саййид авф этилади, аммо, Низомиддин Шомий ёзганидек, «бир муддат кўзга кўринмай турсун учун муборак сафарга Ҳижозга жўнатилсин, деган ҳукм бўлди»<sup>10</sup>. Бир йил ўтгач, Абул Маали, укаси билан Хоразмга қилинган юришлардан бирида иштирок

этади. Шундай тадбирларнинг бирида Соҳибқироннинг Термизга бўлган муносабатини ўзида мажассамлаштирилган бир воқеа бўлган. 1379 йили Урганч қамали шароитида Хоразм ҳокими Юсуф Сўфи Амир Темурни яккама-якка жангга чақиради. Соҳибқирон таклифни қабул қилиб, калъа хандағи олдига бир ўзи етиб келади. Ракиб чақиригидан тониб, жанг майдонига чиқмайди. Кўп ўтмасдан Амир Темур қароргоҳига Термиздан қовун келтиришади. Соҳибқирон олтин патнисда рақибига қовун юборади. У эса қовунни сувга улоқтириб, патнисни мулозимларидан бирига совға қилади. Амир Темур Юсуф Сўфига Термиздан келтирилган қовунни юбориб, унга номардлик қилиб жанг майдонига чиқмаганлиги сабабли, номақбул хатти-ҳаракатига чуқур рамзий ишора қилади. Бу имода мардлар шаҳридан келган қовунни еб, сенга ҳам озгина мардлик юқсин таъбиридаги шама ётарди. Бу воқеада Амир Темурнинг ботирлиги билан чуқур заковати ҳамда Термизга бўлган муносабати намоён бўлади. Воқеани таҳлил этиб, В.В.Бартольд Амир Темурнинг довураклигини, шахсий жасоратини таъкидлаб, уни Европа рицарлари билан қиёслайди. Гиёсиддин Алининг далолатига кўра, Амир Темурнинг Ҳиндистон юришида Лиховар шаҳрига юришидан аввал таслим бўлишни таклиф қилиб, элчи сифатида ака-ука саййидлар юборилади. Шаҳар аҳли сулҳ тузишга рози бўлади ва совға сифатида гапирувчи икки тўти юборади. Қизиғи шундаки, Амир Темур замонасида ёзилган, бизгача етиб келган манбаларнинг энг қадимгисида келтирилган бу воқеада Соҳибқирон атамаси биринчи марта ишлатилган<sup>13</sup>. Ҳижрий 801 йилнинг 21 ражабида – 1399 йил 29 мартада Ҳиндистон юришидан қайтаётган кўшин ўша давр манбаларининг тили билан айтганда, Термиз дарёси, яъни Амударё қирғоғига етиб келади. Дарёнинг нариги қирғоғида Соҳибқиронни Улуғбек, маликалар ва анъёну-ақобирлар кутиб олишади. 22 ва 23 ражиб кунлари Амир Темур Термизда бўлади. 23 ражаб куни – 31 марта зафар кучган кўшин шарафига Термиз саййидлари катта тўй беришади. Эртаси куни ғолиб кўшин сафарини давом эттиради. Охириги марта Амир Темур Термизда хижрий 807 йил мухаррам ойида – 1404 йилнинг июлида, ғарбий мамлакатларга юришидан қайтишда бўлган. Тарихимизнинг заҳматкаш тадқиқотчиси, академик Бўрибой Аҳмедов шундай ёзади: «дарёдан кемаларга тушиб ўтдилар ва Термизда, ҳар доимгидек, Худовандзода Алоулмулкнинг уйида тўхтадилар. Термизда бир кун дам олгач, хумоюн маҳкам яна йўлга чиқди»<sup>13</sup>. Ҳар келганида Амир Темур дунёни маърифати нури билан ёритган, мардлиги билдан хайратга солган шу табаррук маскан улуғларининг руhini шод қилиб, уларнинг қабрларини зиёрат қилган. Темур ва темурийлар даврида бутун минтақада бўлганидек, Термизда ҳам тараққиётнинг юксак даражаси кузатилади. Мусулмон дунёси маънавиятида Ҳаким ат-Термизий мероси чуқур из қолдирган, лекин унинг

оммавийлаштирилиши Амир Темур даври билан боғлиқлиги назардан четда қолган. Ўша давргача Термиз ҳақидаги маълумотларда, жумладан, Ибн Баттута эсдаликларларида ҳам Ҳаким ат-Термизий ҳақидаги маълумот берилмаган. Исломда анъана билан янгилик ўртасидаги кураш мутаасиблар билан тасаввуф намояндалари ўртасидаги муносабатларда акс топган. Термиз ҳақидаги барча хабарларда Исо ат-Термизий тўғрисида маълумотлар келтирилган ҳолда, Ҳаким ат-термизий шахси эсланмаслиги шаҳарда анъанавий ислом вакиллари устундигини билдиради. Амир Темур даврида бу ҳол ўзгарди. Ҳозиргача сақланиб қолган Ҳаким ат-Термизий мақбарасининг асосий қисми хижрий 792 йилнинг рамазон ойида – мелодий 1390 йилнинг август-сентябрида куриб битказилган<sup>15</sup>. Худди шунингдек, Султон Саодат мажмуаси таъмирланиши ҳам бевосита Соҳибқирон шахси билан боғлиқдир. Амир Темур севган шаҳарга унинг авлодлари ҳам алоҳида муносабатда бўлганлар. Халил Султон хижрий 810 йилда - 1407 йилда Эски Термизни таъмирлаш учун бош амири Оллоҳдод раҳбарлигида кўшинларининг бир қисмини шаҳарга жўнатди. Натижада эски Термизда ҳам шаҳар ҳаёти тикланади. Улуғбек ҳаёти ва фаолиятида Термизийларнинг фаол иштироки кузатилади. 1410 йилда Мовароуннаҳрда Улуғбек ҳокимиятига қарши исён кўтарилади. Ўзига содиқ бўлиб қолган Термиз кўшини билан Улуғбек отасинининг кўмагида ҳокимиятини тиклайди. Шаҳрисабзда 1437 йилда барпо этилган «Авлоди Муборак» мақбараси Термиз саййидларининг етакчиси «Султон Содот» Абу-л Маалига атаб қурилган. Улуғбекнинг ўғли Абдуллатиф эса имом Термизий мақбарасини қурдиради. Баъзи маълумотларга кўра, Амир Темур кизи Султон Бахтбегимни саййид Ҳасанга узатган Бу маълумотни тасдиқлашга ёки инкор қилишга ҳозирча асосимиз йук. Лекин манбаларда темурий шахзодалар, жумладан, Мовароуннаҳр ҳукмдори Султон Абу Саъид, Аҳмад ибн Саййид, Султон Маҳмуд, Бобур ва унинг авлодлари Термиз саййидлари хонадони вакилларига уйланганлиги тўлиқ тасдиқланади. Темурийлар даврида худуди тўрт баровардан кўпроқ кенгайган Термизда маҳаллий ҳокимият саййидлар томонидан бошқарилган. Темурийлар давридаги охириги Термиз ҳокими Саййид Хусайн Акбар Бобурга қушилиб Ҳиндистон кетади. Темурийлар ҳокимияти XVI асрнинг 80-йилларигача сақланиб қолган Бадахшонда Термиз саййидлари ғоявий раҳномалик қилишади. Хуллас, Амир Темур салтанатида мардлар шаҳри Термиз ҳам, Термизийлар ҳам, ўзининг муносиб ўрни ва салоҳиятига эга бўлган.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. –Т., 1993, 73-бет.
2. Семенов А.А. Происхождение термезских сейидов и их древняя усыпальница «Султан-Садат». –Т., 1914. –С.17.
3. Иброҳимов Н. Ибн Баттута... –74-бет.
4. Руи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.). –М., 1990.-С.100.
5. Ислам. Энциклопедический словарь. –М., 1991. –С.64.
6. Мирзаев Ж. Термиз саййидлари // Мулоқот, 1997. №6, 47-бет.
7. Темур тузуклари. –Т., 1993. –77-бет.
8. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. –Т., 1994. –202-бет.
9. Семенов А.А. Происхождение... –С.12.
10. Низомиддин Шомий. Зафарнома.-Т., 1996, 90-бет.



## YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

**Ramazonov Islom Abrayqul o‘g‘li**  
**Mahmudov Mirsaid Mavlon o‘g‘li**  
**Ernazarova Durдона Xolmirza qizi**  
Termiz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender tengligi tushunchasi mohiyati, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik- bu oilada erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlar, jahon va o‘zbek olimlarining gender tengligi bilan bog‘liq tadqiqotlari, O‘zbekistonda gender tengligi, gender tengligi tamoyili asosida insonning shaxs sifatida ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganishi, xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi bilan bir qatorda siyosatda o‘zlarini ko‘rsatish imkoniyatlariga ega bo‘lishi masalalari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** gender, jins, genderologiya, gender terminlar, gender neytral til, gender tenglik.

Hozirgi kunda davlatlar rivojlanishida alohida e‘tiborga olingan masalalar sirasiga jamiyat, davlat, ta‘lim, oila tuzilmalarida gender tenglik masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu tushuncha tadqiqotlar maydoniga o‘tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Bu davrda kelib gender tenglik tushunchasi bo‘yicha bir qancha qarashlar shakllana boshladi. Ba‘zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi - bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy- jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili asosida insonning shaxs sifatida ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganishi va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarda erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Turli davrlarda fan vakillari tomonidan ushbu masala bo‘yicha alohida e‘tibor bilan yondashib kelishgan. Bunday olimlar qatoriga V.Fon.Gumbold, A.A.Potebnya, D.Lakoff, L.Push, V.A.Maslova, A.Vejbitskaya, I.Zikova kabi olimlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Ular gender tushunchasini kognitiv tilshunoslik va gender tilshunosligiga doir asarlarida turlicha tadqiq qilishgan. O‘zbek olimlaridan esa SH.Raxmatullayev, A.E.Mamatov, P.U.Bakirov, B.M.Bakirov, M.K.Xoliqova, A.R.Ismailov, K.D.To‘xtayeva, K.R.Aliyeva va boshqa olimlarni misol keltirishimiz mumkin. Fanlararo bog‘liqligi jihatidan gender tushunchasi o‘zbek olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Masalan, K.R.Aliyeva “O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta‘minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari” nomli ilmiy ishida ushbu tushunchaning yurtimizdagi konstitutsiyaviy jihatdan qay tarzda shakllanganligi va

davlatimiz qonunchiligida belgilangan tartibdagi ijrosini o'rganish masalalari olib chiqilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, gender tushunchasi juda keng va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Tilimizda "Jins" va "Gender" tushunchalari o'zaro sinonim so'z hisoblanadi. Lekin ushbu tushunchalar turli olimlar tomonidan turlicha ta'rif bergan. Masalan, Macmillan Advedced lug'atida "gender" va "jins" tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan. Gender – formatlik jihatidan erkak yoki ayol bo'lish, barcha erkaklar va barcha ayollar guruhiga kiruvchilar nazarda tutiladi. Insonlarni ma'lum ayollar va erkaklar guruhlariga ajratuvchi birlik. Jins-insonlar va hayvonlarni ikki guruhga bo'luvchi xususiyatlar va jihatlar. O'zbekistonda gender tengligi. O'zbekistonda gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNEP) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ta ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yhati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham ushbu ko'rsatkichi bilan o'rtasida qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston 44, Qirg'iziston 82, Tojikiston 70- o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yhatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. Endi davlat tashkilotlarida genderni oid audit o'tkaziladi. Bunda ayollar va erkaklar soni nisbatan o'rganiladi, tenglikni ta'minlash bo'yicha holat baholanadi. Shuningdek, qonunchilikka amal qilingan holda yangi takliflar ishlab chiqilgan.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. 15-dekabr kuni prezident mazkur O'RQ-809-sonli hujjatga imzo chekdi. Qonunga genderni oid audit tushuncha kiritildi. Bunda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida, shu jumladan kadrlar siyosatini olib borishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, shuningdek genderni doir kompleks yondashuv o'rganiladi hamda baholanadi.

Genderni oid auditni asosiy vazifalari:

-davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbatini o'rganadi.

-davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyatini gernderni doir kompleks yondashuv asosida tashkil etilganligi holatini o'rganib chiqadi.

-xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taminlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Oliy Majlis Senati raisasi Tanzila Narbayeva Parij shahrida bo'lib o'tgan gender tenglik masalalariga bag'ishlangan "Tenglik avlodi" xalqaro forumida ishtirok etdi.

Forumda 2030-yilgacha O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlangani ta'kidlandi. Tadbir doirasida 100 dan ortiq virtual tadbirlar o'tkaziladi va yakunida gender tenglikni tezlashtirish dasturi qabul qilindi. Fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda Fransiya va Meksika raisligidagi "BMT-Ayollar" tuzilmasi tomonidan o'tkazilayotgan tadbirda xorijiy davlatlar rahbarlari, jahon parlamentlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari, yosh yetakchilar va xususiy sektor vakillari ishtirok etib, gender tenglik bo'yicha o'z fikr mulohazalarini berdilar. Shuningdek, "ayollarni rahbarlik lavozimiga ko'tarish, ularning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, bandligini ta'minlash hamda tazyiq va zo'rvonlikdan davlat tomonidan himoya qilish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash dasturi amalga oshirilayotgani" haqida to'xtalib o'tildi, deyiladi xabarda.

Ta'kidlanishicha, "Tenglik avlodi" forumida ko'p qirrali harakatlar koalitsiyalari yaratildi, gender zo'rvonlik, iqtisodiy adolat, reprovktiv huquqlar va salomatlik, iqlim sohasida adolatni qo'llab quvvatlash uchun xotin-qizlar yetakchiligi bo'yicha aniq va o'lchanadigan natijalarga besh yil ichida erishish uchun ular hukumatlar, fuqarolik jamiyati hamda xususiy sektorni birlashtiradi. Koalitsiyalarga 30 ga yaqin mamlakat va 70 dan ortiq turli tuzilmalar, shu jumladan BMT agentliklari, fuqarolik jamiyati muassasalari, yoshlar uyushmalari, xususiy korxonalar va davlat xayriya tashkilotlari, birlashgan koalitsiyalar qo'shilgan. To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohatlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotganligi ayni haqiqatdir. Gender-xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir hil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidir.

Darhaqiqat, Suqrot, Arustu, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlari sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: "Tabiat barchani :ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi", deb

ta'kidlangan. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asari tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan. 1791-yil Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo, gender tengligining huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil etishimiz joizdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergasheva.G " Turli tillar tizimida gender terminalogiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar" dissertatsiya DS, Toshkent 2018 y.
2. K.R. Aliyeva "O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari" ilmiy ishi, Toshkent 2019 y.
3. S.Hamdamova "Gender tushunchasi va uning asosiy mohiyati", Farg'ona 2020 y.
4. Karimov I.A " Istiqlol va ma'naviyat", Toshkent, 1994 y.

## TRANSLATION ANALYSIS ON FIGURATIVE LANGUAGE IN ENGLISH AND UZBEK (BASED ON “THE OLD MAN AND SEA” BY ERNEST HEMINGWAY)

**Sattorova Nafisa Isomidinovna**

Trainee teacher

Department of Humanities, Kattakurgan branch of Samarkand state university

Address: 27 A. Temur street, Kattakurgan city

Email: [fine-2014@mail.ru](mailto:fine-2014@mail.ru)

### ABSTRACT

This article provides some information about translation analysis on figurative language in English and Uzbek. The article also includes differences and similarities of figurative language in both languages based on “The old man and sea” by Ernest Hemingway.

**Key words:** figurative language, like, as, than, similar to, resembles, or seems, paradox, Synecdoche, Personification, Metaphor, simile.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tilidagi tasviriy vositalardagi tarjima tahlili haqida ma’lumot berilgan. Maqolada, shuningdek, Ernest Xemingueyning “Chol va Dengiz” asari asosida ikkala tildagi tasviriy vositalarning farqlari va o‘xshashliklari haqida ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy vositalar, like, as, than, similar to, resembles, or seems, paradox, senekdoxa, shaxslantirish, metafora.

### АННОТАЦИЯ

Абстрактные в данной статье приведены некоторые сведения об анализе перевода на образный язык на английском и узбекском языках. в эту статью также включены различия и сходства образного языка в обоих языках на основе «Старик и море» Эрнеста Хемингуэя.

**Ключевые слова:** образный язык, как, как, чем, подобный, напоминает, или, кажется, парадокс, синехдоха, персонификация, метафора, сравнение.

## INTRODUCTION

The Old Man and the Sea is the story of an epic struggle between an old, seasoned fisherman and the greatest catch of his life. For eighty-four days, Santiago, an aged Cuban fisherman, has set out to sea and returned empty-handed. So conspicuously unlucky is he that the parents of his young, devoted apprentice and friend, Manolin, have forced the boy to leave the old man in order to fish in a more prosperous boat. Nevertheless, the boy continues to care for the old man upon his return each night. He helps the old man tote his gear to his ramshackle hut, secures food for him, and discusses the latest developments in American baseball, especially the trials of the old man's hero, Joe DiMaggio. Santiago is confident that his unproductive streak will soon come to an end, and he resolves to sail out farther than usual the following day. In conclusion I would like to emphasize that in Hemingway's writings, his works are highly suggestive, revealing submerged levels of meaning for readers to discover by themselves and the translator tried not to change the method of the writer. . "The Old Man And The Sea" was translated by I.Gafurov. The title of the work was translated into Uzbek "Chol va dengiz".

Generally speaking both the author of "the old man and the sea" and translator of this work are considered skillful writers. As due to the fact that Ernest Hemingway tried to illustrate his period when he wrote the novel while Ibrohim Gafurov translated the work according to not only semantic features but also other factors of translation

## DISCUSSION AND RESULTS

It can be seen that the translator often uses more literal translation method to translate figurative languages in The Old Man and the Sea. Literal translation is the translation which prioritizes the equivalent word or expression in the target language which has the same meaning as the word or expression in the source language. Literal translation should preserve the structure of the source language sentence, even though the structure was not acceptable in the target language. If the structure is changed slightly in order to be accepted in the structure of the target language, it is called modified literal translation. It can be shown that the most dominant used in the novel The Old Man and the Sea is personification. Personification in the novel is illustrated by when the old man talks about jellyfish, turtles, birds, and most importantly, the marlin (sharks), as if they were people, the old man gives them thought processes, even personalities.

The figurative language which is used as a means of comparing things that is essentially unlike. In simile, the comparison is expressed by the use of some word or phrase such as like, as, than, similar to, resembles, or seems.



SL: "...except his eyes and they were the same colour as the sea and were cheerful and undefeated."

TL: "...Faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi."

SL: "But none of these scars were fresh. They were as old as erosion in a fishless desert"

TL: "ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan bepayon darzlari singari ko'hna edi."

Metaphor, like similes, the figurative language which is used as a means of comparing things that is essentially unlike. In metaphor, the comparison is implied- that is, the figurative term is substituted for or identified with the literal term.

SL: "You are my alarm clock," the boy said."

TL: "Sen men uchun naq qo'ng'iroq soatini o'zisan"

Personification consists in giving attributes of a human being to an animal, an object, or a concept. It is really a subtype of metaphor, an implied comparison in which the figurative term of the comparison is always human being.

SL: "He could ruin me by jumping or by a wild rush"

TL: "Agar u bor kuchi bilan oldinga intilsa yoki sapchiy qolsa bormi, tirik qo'ymasdi meni, axir."

SL: "Now," he said. ", You can let the cord go, hand, and I will handle him with the arm alone until you stop that nonsense."

TL: "xo'sh endi qo'l- dedi u,- sen chilvirni qo'yib yuborsang ham bo'lar, maynavozchiliging tugamaguncha o'ng qo'lim bilan evini qilib turaman.

Apostrophe is closely related personification, which consists in addressing someone who is absent or dead as if he or she were present and/or alive or addressing something that is non-human as if it were alive and could reply to what is being said.

Synecdoche (the use of the part for the whole) and metonymy (the use of something closely related for the thing actually meant) are alike in that both substitute some significant detail of aspect of an experience for the experience itself.

A symbol may be roughly defined as something that means more than what it is. Imagine, metaphor, and symbol shade into each other and are sometimes difficult to distinguish. In general, however, and image means only what it is; the figurative term in a metaphor means something other than what it is; and a symbol mean what it is and something more too.

Allegory is a narrative of description that has a second meaning beneath the surface. Although the surface story or description may have its own interest, the author's major interest is in the ulterior meaning.

A paradox is an apparent contradiction that is nevertheless somehow true. It may be either a situation or statement. As a figure of speech paradox is a statement. When we understand all the conditions and circumstances involved in a paradox, we find that what at first seemed impossible is actually entirely plausible and not strange at all. In a paradoxical statement the contradiction usually stems from one of the words being used figuratively or with more than one denotation.

Overstatement, or hyperbole, is simply an exaggeration, but exaggeration in the service of truth. Like all figures of speech, overstatement may be used with a variety of effects. It may be humorous, or grave, fanciful or restrained, convincing or unconvincing.

SL: "...and with his eyes closed there was no life in his face"

TL: "...Hozir ko'zlari yumilib uyquga ketganda, xuddi jonsizga o'xshab ko'rinardi

SL: "The old man looked at him with sunburned, confident, loving eyes."

TL: "Chol oftobda qizarib ketgan, inonuvchan mehribon ko'zlari bilan unga qaradi."

Understatement can serve conventions of politeness. It is more polite to indicate a failure than to speak its name straightforwardly. When understatement serves to camouflage an unpleasant fact, for example, we may say that its meaning is simply "more" (worse) than what is literally expressed. However, understatement often signifies an attitude rather than merely hinting at a camouflaged idea. As is the case of irony, the function of understatement often lies in the tension between the viewpoint literally expressed and what the receiver takes to be the sender's view.

SL: "The iridescent bubbles were beautiful. But they were the falsest things in the sea..."

TL: "Anovi jilolar bilan tovlanuvchi xuboblar beqiyos rangin ko'rinardi biroq ular dengiz mahluqlari orasida eng ashaddiysi hisoblanar ediki..."

Figurative languages are languages which used to enhance the effect of what it is being said, and it cannot be taken directly. The purposes of figurative languages are to express of someone thought, to emphasize personal situation, and to entertain the readers. The data which is analyzed are the word, phrase, clause, or sentence in *The Old Man and the Sea* because *The Old Man and the Sea* novel has the same figurative languages that to express the author's thought, with the old man being alone on the sea and all, a lot of characterization of the animals but not people. The author uses a lot of personification like talk about jellyfish, turtles, birds, and most importantly, the marlin, as if they were people, he gives them thought processes, event personalities, as well as emphasize the characters situation and entertain the reader.

## CONCLUSION

It can be concluded in translating those aspects, the translator has to be able to render the message from its source language. He has to be a competent person who

understand the ideas, thoughts, and can transfer the message expressed in the source language and representing to the target language. The important thing to become a good translator is, he must have a wide knowledge both languages for getting equivalents in the target language. One of the materials that a translator must have a wide knowledge to translate and render the message of the target language is literary work.

From above examples we can see that Ibrohim Gafurov tried to translate the work without breaking language norms. It is necessary to learn the investigation and observe deeply the nation's mode of life from which translation is done, not only to correct, add or improve an author successfully but also to understand original text profoundly in order to be understandable to a translator all artistic means and peculiarities of original text and to be fully translated into another language.

## REFERENCES

1. Allen W.S. Living English Structure. Longman, 1960. -270 p.
2. Alksnis I. The Hazards of Translation. Geneva: 1980. – 300 p.
3. Apollova M.A. Specific English (grammatical problems of translation) M.: 1977. – 246 p.
4. Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. - M.: Visshaya Shkola, 1983. – 383 p.
5. Close R.O. A Reference Grammar for Students of English. London: 1967. 450 p.
6. Chukovsky K. A High Art: the art of translation. USA: 1984. – 243 p.
7. Deyeva I.M. Lexico-Grammatical Difficulties of English. L.: 1976. -278 p.
8. Ganshina M.A. English Grammar. M.: Higher School Publishing House, 1964. - 548 p.
9. Gordon E.M. A Grammar of Present-day English M.: 1974. – 437 p.
10. Graham J. Difference in Translation, Ithaca: 1985. – 340 p.
11. Hill A.A. Introduction to Linguistic Structures. N.Y.: 1958. – 435 p.
12. Holman M. Translation or Transliteration? Sofia: 1985. – 235 p.
13. Ilyish B. The Structure of Modern English. L.: Prosvesheniye, 1971.-366 p

## MINIVEN TIPIDAGI AVTOMOBIL KUZOVIGA HAVONING QARSHILIK KUCHINI ANIQLASH

<sup>1</sup>Qayumov Baxrom Abdullajonovich

<sup>2</sup>Ergashev Dostonbek Pratovich

<sup>1</sup>Andijon mashinasozlik instituti, t.f.f.d., dotsent

<sup>2</sup>Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti

### ANNOTATSIYA

Avtomobillarning aerodinamik sinovlari turli metodlarda o'rganiladi. Kompyuter texnologiyalari, aerodinamik trubalar hozirgi kunda ishlab chiqarishda keng qo'llanilmoqda. Loyihalash jarayonida avtomobilning aerodinamik ko'rsatkichlari qiymatlarini aniqlashda masshtablashtirilgan modellar uchun sinov qurilmasi eng maqul yechimlardan biri sanaladi. Ushbu tadqiqot ishida masshtablashtirilgan avtomobil modeliga havoning qarshilik kuchi funksiyasini aniqlash bo'yicha ishlar hamda tajriba o'tkazish uchun qurilma loyihalash bayon etilgan. Bunday usul yordamida avtomobilni loyihalash bosqichidayoq uning aerodinamik ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** aerodinamik truba, masshtablashtirilgan modellar, havo oqimi, havoning qarshilik kuchi, havoni yengib o'tish koeffisienti.

### DETERMINATION OF AIR RESISTANCE FOR MINIVAN TYPE CAR BODY

#### ABSTRACT

Aerodynamic tests of cars are studied by different methods. Computer technologies, wind tunnels are now widely used in production. In the process of designing, a test device for scaled models is one of the best solutions for determining the values of aerodynamic indicators of a car. In this research work, the work on determining the air resistance force function for a scaled car model and the design of a device for conducting experiments are described. Using this method, it will be possible to determine the aerodynamic parameters of the car at the stage of design.

**Key words:** wind tunnel, scaled models, air flow, air resistance, drag coefficient.

## 1.KIRISH.

Avtomobillarga havoning qarshilik kuchini nazariy usullar yordamida aniqlash qiyin kechadi. Shuning uchun aerodinamik tadqiqotlar o'tkaziladi [14]. Avtomobil aerodinamikasini o'rganishda turli metodlardan foydalaniladi. Aynan yo'l sharoitida ham avtomobilga havoning qarshilik koeffisientini aniqlash mumkin [15]. Bu usulda bir qancha omillar ta'sirini aniqlash qiyin kechadi. Eng keng tarqalgan usullardan biri bu aerodinamik trubalardagi sinovlardir. Ilk bor aerodinamik trubalardagi tadqiqotlar Glauert tomonidan bajarilgan va unda uchuvchi jismlar tahlil qilingan [3]. Aerodinamik trubalar havo oqimini hosil qilib beradi va bu oqim sinalayotgan modelga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi [13]. Qurilma aviatsiya, arxitektura va avtomobilsozlik kabi bir qancha sohalarda qo'llaniladi. Hozirgi kunda avtomobil ishlab chiqaruvchilar o'zlarining yirik sinov qurilmalariga ega va bu ularga ishlab chiqarilgan avtomobilning texnik hususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Avtomobillarning aerodinamik hususiyatlari ularning yonilg'i sarfiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. [4] 70 km/soat va undan yuqori tezlikda havoning qarshiligi yoqilg'i sarfiga ta'siri sezilarli bo'lishini keltirib o'tgan. Bir hil dvigatelga ega turli tipdagi kuzovli avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlari turlicha bo'lishiga amaliyotda ko'p duch kelish mumkin. Shuning uchun Avtomobilga havoning qarshilik kuchini loyihalash bosqichidayoq bashorat qilish zarur. Bu esa kuzovdagi o'zgartirishlarni ilk bosqichda amalga oshirish imkonini beradi. Kichik aerodinamik trubalar aynan shu masalani hal etishda muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarilgan avtomobilning ham aerodinamik hususiyatlarini qo'shimcha elementlar (spoiler, diffuzor va h.k.) yordamida biroz yaxshilash mumkin. Sport avtomobillarida ham shu vositalar yordamida havo qarshiligini yengib o'tish imkoniyati yaratiladi [9-16].

## 2. PAST TEZLIKLI AERODINAMIK TRUBA LOYIHALASH.

### 2.1. Aerodinamik trubalar tahlili.

Past tezlikli aerodinamik trubalar aniq natijali eksperimentlar o'tkazish uchun bir qancha qulayliklarga ega. Ularning dizayni foydalanish maqsadiga ko'ra turli xil loyihalanadi. Shunga ko'ra ularga o'rnatiladigan elementlar turlicha bo'ladi. Past tezlikdagi aerodinamik trubalarni ko'plab me'zonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Quyida ularni turlari keltirilgan.

Sinalayotgan modellar aerodinamik trubaning ishchi qismlariga joylashtiriladi. Ishchi qismining turi bo'yicha:

a) ishchi qismi ochiq bo'lgan aerodinamik trubalar. Bunda ishchi qism devorlari mavjud bo'lmaydi. Mercker va Wiedemann ochiq ishchi qismdagi tadqiqotlar boyicha bir qancha izlanishlar olib borganlar [6]

b) ishchi qismi yopiq bo'lgan aerodinamik trubalar. Bunda ishchi qism devorlar bilan yopiladi. Cooper yopiq ishchi qisimli aerodinamik trubalar bo'yicha izlanishlar olib borgan. [2]

Havo oqimini harakatlantirish bo'yicha:

Yopiq konturli aerodinamik truba. Havo oqimi yopiq sxema bo'yicha harakatlanadi. Buning uchun chiqarish va kiritish yo'llari biriktiriladi. Aksariyat sinov stendlarida bitta qaytish kanaliga ega, lekin ikkita qaytish yo'liga ega bo'lgan sinov stendlari ham qo'llanilmoqda.

Ochiq konturli aerodinamik truba. Bunday sinov stendlarida havo tashqi muhitdan olinib, yana tashqi muhitga qaytariladi. Agar stend honaning ichiga o'rnatilsa hona o'lchamlari yetarlicha katta bo'lishligi talab etiladi, shundahona ichidagi havo tezligi truba ichidagi havoning tezligidan kichik bo'lishi ta'minlanadi. Bundan tashqari sinov stendini ochiq atmosferaga ham o'rnatish mumkin, ammo bunda holatda tashqi muhitdagi shamol mavjudligi va uning sinov jarayonlariga ta'sirini ham hisobga olish kerak bo'ladi.


Ochiq konturli aerodinamik trubalarda oqimning kinetik energiyasi chiqish joyida yo'qolishi hisobiga quvvat isrof bo'lishi kuzatiladi [11].

## 2.2. Loyihalangan aerodinamik truba qismlari.

### 2.2.1. Ishchi qism.

Havo oqimining harakati bo'yicha ochiq konturli va yopiq ishchi qisimli sinov qurilmasi loyihalandi. Ushbu qurilmada kichik modellar sinovdan o'tkaziladi va ischi qismida 18-20 m/s gacha havo oqimini harakatlantirish imkoniyati bor.

Qurilmani undagi havoni yo'naltirish kanali va ishchi qismi bir hil diametrlilik, ko'ndalang kesimi aylana shaklidagi va uzviy bog'langan (tunnel) qilib loyihalandi. Tunnelning havo tezligi barqaror bo'lgan qismi ishchi qism deb belgilandi.



1-rasm. Aerodinamik trubada havo oqimi tezligi



Sinalayotgan model ishchi qismga joylashtiriladi. Ishchi qism aerodinamik trubaning eng tor qismi bo'lib, unda oqim tezligi maksimal qiymatga erishadi. Quyida ochiq va yopiq ishchi qismlarning afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqilgan.

Ishchi qismning muhim parametri bu sinalayotgan modelning havoni to'sib qolishidir. Odatda bu parametr sinalayotgan modelning harakterli o'lchamini va ishchi qismning ko'ndalang o'lchami o'rtasidagi munosabatga bog'liq. Agar sinalayotgan model ishchi qismining ko'ndalang yuzasini ko'proq egallab olsa, ishchi qism devorlariga havo oqining urilishi eksperiment natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Ochiq ishchi qisimli stendlarda ushbu ta'sir ko'rsatkichi yopiq ishchi qismlilarga nisbatan ancha kam. Shuning uchun ochiq ishchi qisimli aerodinamik trubalarda nisbatan katta o'lchamli modellarni sinash imkoniyati mavjud.

Aerodinamik trubadan foydalanish maqsadiga qarab ishchi qism turi tanlanadi, agar turli modellarda ko'plab sinovlar o'tkazish kerak bo'lsa ishchi qismga modelni oson joylash uchun jihozlanishi kerak. Yoki ochiq ishchi qisimli qurilmadan foydalanish maqsadga muvofiq. Lekin ochiq ishchi qisimli aerodinamik quvurlarda tashqi muhit ta'siri hisobga olinishi zarur.

Ochiq ishchi qismdagi turbulentlikni ta'minlash qiyinchiliklar keltirib chiqadi. Agar oqim turbulentligini kichik qiymatlari muhim bo'lsa, yopiq ishchi qismni tanlash kerak.

Ochiq ishchi qismning uzunligi odatda ko'ndalang o'lchamidan 1,5-2 barobar katta bo'lishi mumkin. Ochiq ishchi qismi bo'lgan aerodinamik trubalarda uzun modellarda sinov o'tkazish mumkin emas. Yopiq ishchi qismlar buni amalga oshirishga imkon beradi.

Yopiq ishchi qism bo'lgan trubalarda statik bosim ishchi qismi bo'ylab o'zgarishini ta'minlash uchun maxsus choralar ko'riladi. Devorlar va sinalayotgan model yuzasidagi ishqalanishlar oqim bosimining kamayishiga olib keladi.

Statik bosim o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun ishchi qismi ko'ndalang kesimida pastki qismini uzaytirish zarur. Umuman olganda, turli modellar uchun uzaytirilishi kerak bo'lgan masofa turlicha bo'ladi. Modelsiz yoki kichik o'lchamli modeli ishchi qism uchun masofaning kengayishi chegara qatlamining siljish qalinligiga teng tanlanadi. Ushbu qiymatni hisoblash uchun to'liq turbulent chegara qatlamidagi silliq plastinkadagi logarifmik tezlik profilidan foydalaniladi.

Ishchi qism kesimining shakli tekshirilishi kerak bo'lgan modellar turiga bog'liq. Masalan, samolyot modellarini sinash uchun mo'ljallangan aerodinamik trubalar ko'pincha elliptik kesim ega. Samolyot proyeksiyasi ushbu kesimga yaxshi mos keladi. Qanotlar ellipsning katta yarim o'qi bo'ylab joylashadi.

Avtomobillarni, qurilish modellarini sinovdan o'tkazish uchun mo'ljallangan ko'plab aerodinamik truba ishchi qismi kesimi to'rtburchaklar yoki ko'pburchaklar ko'rinishida bo'ladi.

Loyihalangan aerodinamik trubaning ishchi qismi 650 mm ni tashkil qiladi, ko'ndalang kesimi esa aylana shaklida. Sinov jarayonini kuzatish uchun nazorat oynasi o'rnatilgan. Avtomobil modeli o'rnatiladigan yuza tekis materialdan tayyorlandi. Ishchi qismga havoning tezligi va modelga tushayotgan yuklanishlarni o'lchash jihozlari joylandi.

### 2.2.2. Soplo

Birinchi aerodinamik trubalarda foydalanilayotganda aniq bo'ldiki, bir xil havo oqimini olish uchun maxsus qurilmalardan foydalanish lozim. Bir xil oqimni olish uchun asosiy qurilma soplodir. Soplo ishchi qismning oldida joylashgan va havo oqimini toraytiradigan kanalni ifodalaydi.

Bir xil oqim hosil qilishdan tashqari, soplo yana bir funksiyaga ega. Soplo past tezliklarda quvurning eng keng qismidan yuqori tezlikda eng tor qismiga o'tish vazifasini bajaradi.

Ko'pincha, soplo konturining nazariy formulasiga misol sifatida, aylana shaklida ko'ndalang kesim shakliga ega bo'lgan soplo uchun ideal suyuqlik modeli yordamida olingan Vitoshinskiy formulasi [1] berilgan. Biroq, bu formula har doim ham amalda qo'llanilmasligi mumkin. Soplarning havo oqimi kiruvchi va chiquvchi qismi turlicha bo'lgan aerodinamik trubalar ham mavjud. Misol uchun, AT-12 aerodinamik trubasi soplarning kirish qismi kvadrat ega, chiqish qismini esa aylana shaklida.

Soplo shaklini loyihalashda qarama-qarshi talablar hisobga olinadi. Bir tomondan, soplo uzunligi minimal bo'lishi kerak, shunda o'rnatish kamroq joy egallaydi. Boshqa tomondan, qisqa soplo bir xil oqimni ta'minlamaydi. Chiqish qismidagi soplo konturi oqim sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi natijaga soplo konturini shakli kubik parabola shakliga yaqinlashishi orqali erishiladi.

### 2.2.3. Ventilator

Odatda ventilator yopiq koturli aerodinamik trubalarda diffuzordan keyin yoki oqimni burish kanalidan keyin, oqimni qaytarish kanalidan avval o'rnatiladi. Havo oqimini hosil qilish uchun to'g'ri oqimli ventilator yoki markazdan qochma ventilatorlardan foydalanish mumkin. Katta qurilmalarda to'g'ri oqimli ventilatorlar ishlatiladi va ularda ventilator radiusi bir necha metrga yetadi. Tovush chiqishini kamaytirish maqsadida ventilatorning aylanish chastotasiga cheklov o'rnatilishi mumkin. Maksimal aylanma tezlik 180-200 m/s dan ko'p bo'lmagan holda tanlanadi. Tezlikning oshib ketishi ventilatorning samaradorligi pasayishiga va shovqinning oshishiga olib keladi. Oqim tezligi ventilatorning aylanish chastotasini o'zgartirish orqali boshqariladi. Ikki yoki undan ortiq ventilatorlar yonmayon ko'ndalang kesimi ellips shaklida o'rnatiladi.

Loyihalangan qurilma uchun to'g'ri oqimli ventilator tanlab olindi.

#### **2.2.4. Anemometr**

Ishchi qismda harakatlanayotgan oqimning tezligini o'lchashda anemometrlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda raqamli anemometrlar keng tarqalgan. Zamonaviy anemometrlarda havo haroratini o'lchash uchun datchiklar ham qo'shilgan. Bu bir vaqtning o'zida oqim tezligi va harorati haqidagi axborotni olish imkoniyatini beradi. Qurilmada foydalanilgan raqamli anemometrning tavsifi:

Haroratni o'lchash diapozoni  $-10 \dots +50^{\circ}\text{C}$ ,

o'lchashdagi xatolik  $\pm 5^{\circ}\text{C}$ ,

o'lchash chastotasi 0,5 sek.

Tezlikni o'lchash diapozoni 0,4  $\dots$  20 m/s,

o'lchashdagi xatolik 0,2 m/s.

#### **2.2.5. Dinometr**

Sinov natijalari aniq chiqishi uchun tenzometrik turidagi dinometrlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari elektromagnitli yuklanishni o'lchash vositalari ham qo'llanilmoqda. Sinalayotgan model va dinometr orasida magnit oqimi orqali natijalar olinadi. Lekin sinov modelini magnitli materialdan va sinov maydonini nometall materiallardan tayyorlash birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Tenzometrik tipdagi dinometrlar bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan o'lchami kichik ikkinchidan esa yuqori aniqlikka ega. Ushbu dinometrlardan foydalanish qulayligi va soddaligi uchun ko'plab tadqiqotchilar tomonidan foydalanilmoqda. Aerodinamik tadqiqotlarda aynan tenzometrik turdagi dinometrlar qo'llaniladi [15]. Tenzometrik datchik o'rnatilgan tayanchga tushgan kuch natijasida deformatsiyalanadi va undagi tok qarshiligi o'zgaradi. Sezgir sxema yordamida qarshilik qiymati aniqlanadi va mos ravishda kuchlanish qiymatiga integratsiyalanadi.

### **3. TAJRIBA METODI**

Yopiq ishchi qismli va ochiq konturli aerodinamik truba tok manbasiga ulanadi. Talab etiladigan kuchlanish 200-220V. Sinov stendida oqimning qiymatini o'zgartirishga ventilatorga kelayotgan kuchlanishni o'zgartirish orqali erishiladi.

Sinalayotgan model ishchi qismga o'rntiladi. Bunda modelning bo'ylama o'q chizig'i oqim yo'nalishiga parallelligi ta'minlanishi kerak.

Dinomometr va anemometr ishchi holatga tushiriladi, so'ngra havo oqimini hosil qilinadi. Ya'ni ventilatorga kuchlanish beriladi. Dastlab past diapozonlarda, sekin asta yuqori diapozonlarga oshirib boriladi. Har bir bosqichda havoning tezligi va yuklanish qiymati qayd etib boriladi.

Sinov uchun minivan tipidagi avtomobilning masshtablashtirilgan modeli tanlab olindi. Modelning old yuzasi -  $12213\text{mm}^2$ .


#### 4.TAJRIBA NATIJALARI

Model ishchi qismga yuqorida ko'rsatilgan tartibda joylashtirildi. 3,5m/s tezlikdan boshlab sinov jarayoni boshlandi va har 0,5m/s oraliqdagi natijalar quyidagi jadvalga qayd etildi. Sinov natijalari aniqligini oshirish uchun natijalar 100 marta katta qilib olindi.

1-jadval

t/r	Havo oqimining tezligi	Sinov modeliga ta'sir qilayotgan havoning qarshilik kuchi, 10 <sup>-2</sup> N							O'rtacha qiymat
		1-sinov	2-sinov	3-sinov	4-sinov	5-sinov	6-sinov	7-sinov	
1	3,5	6,96	6,92	7,17	7,03	7,32	7,35	7,09	6,9
2	4	10,55	10,56	10,52	10,13	10,21	10,31	10,40	10,51
3	4,5	12,3	12,08	12,01	12	12,04	12,06	12,02	11,64
4	5	14,47	14,58	14,31	14,53	14,18	14,19	14,43	14,73
5	5,5	17,11	17,04	17,78	16,75	16,62	17,25	17,16	17,57
6	6	20,89	20,21	22,33	21,89	21,23	21,61	21,30	20,95
7	6,5	24,26	24,34	24,71	24,63	24,07	24,36	24,28	23,62
8	7	26,42	25,79	25,86	25,71	26,02	26,05	26,01	26,22
9	7,5	30,87	32,46	34,36	34,27	33,23	31,55	32,61	31,5

Qarshilik kuchlarining o'rtacha qiymatlarini mos tezliklarga bog'lab, quyidagi diagrammani hosil qilamiz. Natijalarga statistik ishlov berib, ma'lum qonuniyatga ega bolgan funksiya olindi (qizil nuqtali chiziq). Demak sinov modeli uchun havoning qarshilik kuchi  $y = 0,5429x^2 + 0,0377x + 0,8312$  funksiya bo'yicha ta'sir qiladi. O'zgaruvchi  $x$  - tezlikni ifodalaydi.



1-diagramma. Havo tezligi (X o'qi) va qarshilik kuchi (Y o'qi) bog'lanishi

## 5. Xulosa

Avtomobil prototiplarida havoning aerodinamik qarshiligini, suyrilik (obtekeyemost) koeffitsiyentini aniqlash imkonini beruvchi “Aerodinamik truba” sinov stendi yaratildi. Sinov o‘tkazishning birinchi bosqichida avtomobil prototiplarining old yuzasi, yelkanlik markazi aniqlandi.

O‘tkazilgan sinov natijalariga matematik statistikaning taqsimot qonuniyatlari vositasida ishlov berildi va olingan analitik natijalar eksperimental qiymatlar bilan approksimatsiyalanishi Pirson moslik kriteriyalari yordamida aniqlandi.

Havo tezligining tekis tezlanuvchan qiymatlarida avtomobil prototiplariga ta’sir qiluvchi yuklanish miqdorining o‘zgarish funksiyasi aniqlandi.

## 6. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. B. A. Kayumov, D. P. Ergashev. (2023). Design and test results of wind tunnel for car prototypes. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 81–90. Retrieved from
2. Cooper, K. Closed-Test-Section Wind Tunnel Blockage Corrections for Road Vehicles; Special Publication SAESP1176, Society of Automotive Engineers; SAE: Detroit, MI, USA, 1996.
3. Glauert, H. Wind Tunnel Interference on Wings, Bodies and Airscrews; DTIC Document, No. ARC-R/M-1566; Aeronautical Research Council: London, UK, 1933
4. Hucho W. H. (ed.). *Aerodynamics of road vehicles: from fluid mechanics to vehicle engineering*. – Elsevier, 2013.
5. M. Abid, H. A. Wajid, M. Z. Iqbal, S. Najam, A. Arshad, and A. Ahmad, “Design and analysis of an aerodynamic downforce package for a Formula Student Race Car,” *IJUM Eng. J.*, vol. 18, no. 2, pp. 212–224, 2017.
6. Mercker, E.; Wiedemann, J. On the Correction of Interference Effects in Open Jet Wind Tunnels; Technical Paper; SAE: Detroit, MI, USA, 1996.
7. P. Epple, M. Hellmuth, and S. Gast, “Ground effect on wings for formula student race cars,” in *ASME International Mechanical Engineering Congress and Exposition, Proceedings (IMECE)*, 2017, vol. 7.
8. P. Epple, T. Essler, G. Bloch, V. Below, and S. Gast, “Aerodynamic devices for Formula Student race cars,” in *ASME International Mechanical Engineering Congress and Exposition, Proceedings (IMECE)*, 2014.
9. T. Ragavan, S. Palanikumar, D. Anastraj, and R. Arulalagan, “Aerodynamic Drag Reduction on Race Cars,” *J. Basic Appl. Eng. Res.*, vol. 1, no. 4, pp. 99–103, 2014.

10. V. Muralidharan, A. Balakrishnan, V. K. Vardhan, N. Meena, and Y. S. Kumar, “Design of Mechanically Actuated Aerodynamic Braking System on a Formula Student Race Car,” J. Inst. Eng. Ser. C, vol. 99, no. 2, pp. 247–253, 2018.
11. Аэродинамическая трубы малых скоростей: Учеб. пособие / А.Н.Рябин – СПб.2017. 25 с
12. Евграфов А. Н. Аэродинамика автомобиля. – МГИУ, 2010.
13. Каюмов, Б. А., Эргашев Д. П. Анализ воздушной силы цилиндров и конусов в программе виртуальных испытаний // Автотракторостроение и автомобильный транспорт : сборник научных трудов : в 2 томах. – Минск : БНТУ, 2022. – Т. 2. – С. 337-340.
14. Королев Е. В., Жамалов Р. Р. Аэродинамическое сопротивление плохо обтекаемых тел //Вестник НГИЭИ. – 2011. – Т. 2. – №. 1 (2). – С. 61-77.
15. Нифонтова Л. С., Чавриков И. Е., Кальницкий П. В. Методы аэродинамического эксперимента //Международный научно-исследовательский журнал. – 2016. – №. 12-3 (54). – С. 153-156.
16. Рабинович Э. Х. и др. Измерение аэродинамического сопротивления движению автомобиля дорожным методом //Метрологія та вимірювальна техніка: VIII Міжнар. наук.-техн. конф.“Метрологія-2012”[Електронний ресурс]: наук. праці. Харків: ННЦ “Інститут метрології. – 2012. – С. 390-393.
17. Харитонов А. Техника и методы аэрофизического эксперимента. – Litres, 2019.



## РУССКИЕ И УЗБЕКСКИЕ АНТРОПОНИМЫ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ

М.Хамраева, М.Гулямова  
(КаршиГУ)

**Аннотация:** В статье изучена антропонимика русского и узбекского языков, рассматривается степень изучения данных единиц в русском и узбекском языкознании с различных аспектов, а также анализируются антропонимические единицы на современном этапе развития.

**Ключевые слова:** антропоним, ономастические единицы, собственные имена, онимы, номинативные лексемы, номосфера, номеносфера, зооантропонимы, фитоантропонимы.

**Abstract:** The article studies the anthroponymics of the Russian and Uzbek languages, considers the degree of study of these units in Russian and Uzbek linguistics from various aspects, and also analyzes the anthroponymic units at the present stage of development.

**Key words:** anthroponym, onomastic units, proper names, onyms, nominative lexemes, nomosphere, nomenosphere, zooanthroponyms, phytoanthroponyms.

Антропонимика как отдельная сфера лингвистической науки появилась отделилась от ономастики в 1960-1970 годах в русском языкознании. В работах А.В.Суперанской и Л.В.Щетинина встречаем оригинальные идеи о функциональной антропонимии в разное время. Типология собственных имен, предложенная А.В.Суперанской строилась на идеях Л.В.Щербы, описавшего лексику с точки зрения активного и пассивного запаса. А.В.Суперанская выделяет следующие группы имен собственных: пассивные потенциальные, активные реальные и активные потенциальные<sup>17</sup>. Ученая четко подчеркивает круг данных групп онимов и указывает субъективные и объективные факторы их принадлежности.

Ученый Л.М.Щетинин предлагает понятие номосферы или номеносферы, применительно к антропонимии, и при этом разграничивает «индивидуальную номеносферу» (виртуальный и актуальный слои) и «номеносферу языкового коллектива». Номосфера носит субъективный характер. «Виртуальным остается

<sup>17</sup> Суперанская А.В. *Общая теория имени собственного*. - М.: Наука, 1973. - С.216.

большинство имен, усвоенных человеком в период учения, а также имена и названия, характерные для страны, покинутой человеком при переезде на новое место жительства, особенно при эмиграции. То же относится к ономастической лексике, специфичной для профессии, оставленной человеком при перемене занятия и при других изменениях условий существования»<sup>18</sup>.

В работах, посвященных ономастике также можем встретить термины «актуальная» и «потенциальная антропонимия», которые требуют некоторых замечаний. Если В.И.Болотов под термином «актуальная антропонимия» понимает особое употребление имен собственных в речи, устанавливающее его конкретно-референтную или социальную отнесенность, то Л.М.Щетинин подразумевает «отсечение всех неактуальных связей имени»<sup>19</sup>. По его мнению, актуализация имен собственных достигается средствами контекста (широкий контекст, повторы, жесты, мимика, грамматические средства, порядок слов и др).

Под актуальными антропонимами понимаются конкретные социальные имена собственные, при котором антропоним, имея референцию, а именно социальный характер, выбирает тот или иной контекст употребления. У потенциальных антропонимов нет конкретно-референтной отнесенности и в отличие от актуальных антропонимов не проявлена номинативная функция, а также их семантика существенно отличаются друг от друга. Например, имя Владимир может носить любой русский человек, но по сути, не каждый русский носит имя Владимир. Актуальные и потенциальные антропонимы имеют общие семы, такие как имя, лицо, пол, национальность. Однако, их структура различна. В аппозитивном сочетании актуальные имена могут употребляться с нарицательным именем. Например, поэт Пушкин, писатель Тургенев и др. Для потенциальных имен характерна классификационная семантика, ограничивающаяся несколькими семами. Например, человек, женщина, русский.

Известно, что при теоретическом исследовании антропонимов народов бывшего союза, определенную научную ценность приобрели фундаментальные труды и ряд научных сборников, посвященные теоретическим и практическим проблемам узбекской ономастики, которые были опубликованы в 1960 и 1980 годах под названиями: «Введение в топонимику», «Имя и общество» В.А.Никонова, «Общая теория имени собственного», «Структура имени собственного» А.В.Суперанской, а также «Принцип топонимии», «Антропонимика», «Личные имена в прошлом и в будущем», «Имя нарицательное и собственное», «Развитие методов топонимических исследований», «Теория и методика ономастических исследований»,

<sup>18</sup> Щетинин Л. М. Актуальные вопросы прикладной ономастики. Ростов н/Д., 1999. - С.18.

<sup>19</sup> Щетинин Л. М. Там же.

«Этническая ономастика», «Ономастика и норма», «Система личных имен народов мира» и многие другие.

Узбекская антропонимика стала появляться на основе научных методов исследования собственных имен в 60-х годах прошлого века. До этого времени были опубликованы несколько научно-популярных статей, посвященные именованию ребенка. Подробно объяснили значение узбекских имен Я.Менаджиев и Х.Азаматов, которыми была опубликована первая брошюра под названием «Узбекские имена»<sup>20</sup>. Позднее эта брошюра была переработана и опубликована Э.Бегматовым и Д.Абдурахмановым. В новом издании была представлена информация о номинативной функции имен, понятие о значении имени, обычаи и традиции, связанные с именованим и т.д. Особенно были высказаны причины именованиа ребенка религиозными именами (Худойберди, Алланазар, Алламурад), тотемистическими и анимистическими верованиями (Итолмас, Бурибой, Парда), именами, связанными с верой в магические силы (Зиёда, Ортик, Анора, Норхол), причинами появления зоантропонимов и фитоантропонимов (Кучкор, Норкузи), для преждевременного пренебрежения и защиты от болезней (Улмас, Турсунбой, Темир) и др.

В узбекском языкознании лексический запас антропонимов разделен на две большие группы: 1) имена собственно-тюркские; 2) имена заимствованные. Семантическая структура этих имен требовала специальных научных исследований. Учитывая это положение, Г.Саттаров, провел исследование имен тюркского происхождения. И в 1990 году он защитил кандидатскую диссертацию на тему «Тюркская группа узбекских имен»<sup>21</sup>.

В исследовании основой для имен явился тюркский пласт узбекских имен, следовательно, по данным мотивам узбекские имена были классифицированы следующим образом:

- имена посвященные к кому или чему-л (ismbag‘ishlovlar);
- описательные имена (tavsifiy ismlar);
- имена-желания (ism-istaklar).

В третьей главе диссертации изучается грамматический строй имен существительных. Диссертация отличается богатством фактических материалов.

Номинативные, лингвистические и стилистические особенности антропонимов в произведениях узбекского народного творчества не были рассмотрены на должном уровне. Однако, следует упомянуть объемную статью

<sup>20</sup> Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент: Фан, 2013. – Б. 15.

<sup>21</sup> Саттаров Г.Х. Ўзбек исмлирининг туркий қатлами: Филол. фан.номз.... дис. автореф Тошкент, 1990.

Д.Абдурахмонова и Х.Бектемирова под названием «Ономастика узбекских народных дастанов»<sup>22</sup>.

В последнее время узбекские антропологи занимаются конкретными вопросами образования узбекских антропонимов. К примеру, Р.Худойбергганов изучал вариативность узбекских антропонимов, а С.Кенжаева исследовала семантические и социолингвистические вопросы данных лексических единиц.

Р.Худойбергганов дал понятие определение вариантности на примере антропонимов и попытался определить отношение этих вариантов к синонимии и ономастическим параллелям<sup>23</sup>. Он выявил краткие, уменьшительно-ласкательные формы имён, рассмотрел лексико-диалектные варианты и способы орфографических правил антропонимов. Данные вопросы тщательно изучены на основе многочисленных фактов.

В русском и узбекском языкознании по исследованию статистики имен жителей определенного того или иного места активно участвовали В.А.Никонов, А.И.Исаев и Р.Бобохуджаев.

В период независимости стало возможным свободно обсуждать проблемы узбекской ономастики. Прежде всего, в Гулистанском государственном университете, а затем в Каршинском, Навоийском и Ургенчском государственном университетах состоялись международные и республиканские конференции. Материалы этих конференций публиковались в журналах и внесли большой вклад в развитие узбекской ономастики, в том числе и антропонимики.

В заключение следует отметить, что в антропонимике на сегодняшний день очень много нераскрытых вопросов, таких как: передача толкования антропонимической лексики в толковых словарях, транслитерация собственных имен в других языках, исследование антропонимов в аспекте этимологии, изучение антропонимов в сопоставительном аспекте и другие, которые ждут своих исследователей. А также научные объяснения антропонимов требуют усовершенствования.

---

<sup>22</sup>Абдурахмонов Д., Бектемиров Х. Ўзбек халқ дostonлари ономастикаси // Ўзбек халқ ижодн. Тошкент: Фан, 1967.177-197-бетлар.

<sup>23</sup>Худойбергганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Фил.фан.ном.... дис.авторреф. Тошкент, 2008. 7-9-бетлар.

### Литература:

1. Абдурахмонов Д., Бектемиров Х. Ўзбек халқ дostonлари ономастикаси // Ўзбек халқ ижоди. Тошкент: Фан, 1967.177-197-бетлар.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
3. Сатторов Г.Х. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фан.номз.... дис. Автореф. Тошкент, 1990. – 26 б.
4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 2007. – 366 с.
5. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тиэимининг вариантдорлиги: Фил.фан.ном.... дис.автореф. Тошкент, 2008. – 25 б.
6. Щетинин Л. М. Актуальные вопросы прикладной ономастики. Ростов н/Д., 1999. – 209 с.

## ISSIQLIK ALMASHINISH QURILMALARINING ENERGETIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

**Nurmuxamedov Ahmad Anvarovich**

Guliston davlat universiteti

[axmadnurmuxamedov205@gmail.com](mailto:axmadnurmuxamedov205@gmail.com)

**G‘anijonov Doniyor Ibrohim o‘g‘li**

Guliston davlat universiteti

[doniyorofficial1996@gmail.com](mailto:doniyorofficial1996@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida issiqlik almashinish qurilmalarining samaradorligi va tejamkorligini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Issiqlik almashinish qurilmalari quvurlardagi texnologik oqimlarni gidrodinamik rejimlarini optimallashtirish orqali qurilma issiqlik samaradorligini oshirishdan iborat. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlayotgan issiqlik almashinish qurilmalarini samaradorligini oshirish orqali mahsulot sifatini saqlagan holda atrof muhitga zarar yetkazmay, energiya tejamkor texnologik jarayonlarni qo‘llagan holda sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Issiqlik almashinish, konvektiv, oqim o‘zagi (yadrosi), elektrodvigatel, issiqlik eltkich, quvurlar, optimallashtirish.

### ABSTRACT

Ensuring the efficiency and economy of heat exchange devices in food production enterprises is one of the important tasks. The purpose of heat exchange devices is to increase the thermal efficiency of the device by optimizing the hydrodynamic regimes of the technological flows in the pipes. By increasing the efficiency of heat exchange devices operating in food industry enterprises, while maintaining product quality, without harming the environment, production of quality products using energy-saving technological processes is one of the main tasks.

**Keywords:** Heat exchange, convective, flow core (core), electric motor, heat conductor, pipes, optimization.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «**2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi**» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston meva va zabzavotlar yetishtirishda yetakchi o‘rinlarda turuvchi mamalakat bo‘lib, keyingi yillarda ularni qayta ishlash orqali konserva mahsulotlarini tayyorlash keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston 2022 yilda meva-sabzavotchilik sanoatini qo‘llab-quvvatlash uchun salkam 400 million dollar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu mablag‘ning qayta ishlash sohasida ham dolzarb masalalarni hal qilishga yo‘naltirilish ko‘zda tutilgan. Oxirgi yillarda respublikamizda oziq-ovqat sanoatida texnologik jihozlarini zamonaviy yangi texnologiyalar bilan boyitish, energiya tejamkor va havfsiz texnologiyalar bilan ta‘minlash ishlari jadallik bilan amalga oshirilib kelinmoqdi.


Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlatilayotgan issiqlik almashinish qurilmalarini samaradorligini oshirish orqali mahsulot sifatini saqlagan xolda atrof muhitga zarar etkazmay, energiya tejamkor texnologik jarayonlarni qo‘llagan holda sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, hozirgi paytda oziq-ovqat sanoatida ishlatilayotgan texnologik oqimlarni quvurlardagi gidrodinamikasini chuqur o‘rganish va energetik sarflarni kamaytirish maqsadida, texnologik oqimlari gidrodinamikasining ilmiy-amaliy asoslarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-texnikaviy masala hisoblanadi. Issiqlik almashinish qurilmalari quvurlar va quvurli uskunalarda gidrodinamik rejimlarni optimallashtirish orqali xom ashyoni nasoslar yordamida uzatish uchun sarflanadigan elektrodvigatel quvvatini kamaytirish imkoniyati yuzaga chiqadi.

Ma‘lumki, issiqlik almashinish jarayonlarida kamida 2 ta turli temperaturali muhitlar ishtirok etadi. O‘z issiqlik energiyasini uzatuvchi, yuqori temperaturali muhit - issiqlik eltkich deb atalsa, issiqlik energiyasini qabul qiluvchi past temperaturali muhit esa-sovuqlik eltkich deb ataladi.

Issiqlik va sovuqlik eltkichlar kimyoviy bardoshli bo‘lishi, qurilmalarini yemirmasligi va uning devorlarida qattiq, g‘ovak, quyqa hosil qilmasligi kerak. Shuning uchun, issiqlik yoki sovuqlik eltkichlarni tanlashda jarayon temperaturasi, narxi va ularni qo‘llanish sohalari kabi ko‘rsatgichlarga katta ahamiyat berish kerak.

Suyuqlik massasi turbulentsligi qanchalik yuqori va uning zarrachalari jadal ravishda aralastirilsa, konvektsiya usulida issiqlik almashinish shunchalik intensiv



1-rasm. Konvektiv issiqlik almashinish sxemasi.

bo'ldi. Shunday qilib, konvektiv issiqlik almashinish, issiqlikning mexanik uzatilishi va suyuqlik harakati gidrodinamikasiga qattiq bog'liqdir.


Issiqlik almashinish jarayonida qatnashayotgan suyuqlik ikki qatlamdan tashkil topgan, ya'ni chegaraviy qatlam va oqim o'zagi (yadrosi) dan.

Oqim o'zagi issiqlik o'tish vaqtining o'zida ham konveksiya, ham issiqlik o'tkazuvchanlik usullarida amalga oshadi. Bunday issiqlik almashinish konvektiv issiqlik almashinish

deyiladi (1-rasm).

Issiqlikning qattiq jism yuzasidan suyuqlik (yoki gaz) ga yoki suyuqlik (yoki gaz) dan qattiq jism yuzasiga o'tishi issiqlik berish deb nomlanadi.

Devor yuzasidan chegaraviy qatlam orqali energiya issiqlik o'tkazuvchanlik usuli bilan o'tadi. Chegaraviy qatlamdan esa, suyuqlik o'zagiga energiya asosan konveksiya usulida uzatiladi. Issiqlik energiyasining devor yuzasidan suyuqlikka uzatilish jarayoniga oqimning harakat rejimi katta ta'sir qiladi. Suyuqlikning turbulent harakat rejimida laminar rejimdagiga qaraganda issiqlik almashinish ancha intensiv bo'ldi. Qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmalari xalq xo'jaligining turli sohalarida eng



2-rasm. Vertikal, bir yo'lli qobiq - trubali issiqlik almashinish qurilmasi. 1 - qobiq; 2 - teshikli panjara; 3 - isituvchi trubalar; 4 - patrubok; 5 - qopqoq; 6 - tayanch; 7 - bolt; 8 - qistirma; 9 - obechavka.

keng tarqalgan va ko'p ishlatiladigan turidir (2-rasm). Ushbu qurilma silindr qobiq 1 va uning ikki chekkasiga isituvchi trubalar 3 mahkamlangan teshikli panjara 2 lardan tarkib topgan. Trubalar o'rami issiqlik almashinish qurilmasining butun hajmini ikkiga bo'ladi: 1) truba bo'shlig'i; 2) trubalararo bo'shliq. Teshikli panjara 2 lar silindrik qobiq 1 ga payvandlash usulida mahkamlanadi. Qurilma qobig'iga boltli birikma yordamida 2 ta qopqoq mahkamlanadi. Issiqlik eltkichlar kirishi va chiqishi uchun silindrik qobiq 1 va qopqoq 5 larda patrubkalar o'rnatilgan. Issiqlik eltkichlardan biri, masalan suyuqlik, trubalar bo'shlig'iga yo'naltirilsa, u trubalar orqali o'tib qopqoqning patrubkasidan chiqib ketadi. Boshqa issiqlik eltkich oqimi esa, masalan bug', trubalararo bo'shliqqa yo'naltiriladi, isituvchi trubalar tashqi yuzasiga o'z issiqligini beradi va suyuq agregat holati (kondensat) ga aylanib qobiqning pastki patrubkasidan chiqazib yuboriladi. Muhitlar orasidagi issiqlik almashinish jarayoni trubalar devori orqali amalga oshiriladi.

## XULOSA

Ishning asosiy maqsadi berilgan suyuqlikni nasos yordamida quvur orqali uzatish jarayonidagi bosimlar farqini aniqlash yoki bosimlar farqi ma'lum bo'lgan sharoitda suyuqlikning sarfi va tezligini hisoblab topishdan iborat. Suyuqlikning harakati turli profildagi kanallar, quvurlar va texnologik uskunalarda orqali yuz beradi. Haqiqiy suyuqliklarning gorizontaldagi harakati turli o'zgaruvchan kattaliklar bilan ifoda qilinadi. Bu jarayonni optimallashtirish esa katta iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.R. Yusufbekov. H.S. Nurmuxammedov. S.G. Zokirov. Kimyoviy texnologiya asosiy texnologik jarayonlari. –T. “SHarq” 2015. 838 b.
2. Anshteyn V.G. Protsessi i apparati ximicheskoy texnologii uchebnik v 2-xkn Spb: EBS Lan 2019, -916s
3. Yusufbekov N.R, Nurmuhammedov X.S, Ismatullayev P.R., Zokirov S.G., Mannonov U.V, Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarining asosiy jaryon va qurilmalarini hisoblash va loyihalash. – Uslubiy qo‘llanma. T. Jaxon, 2000.-231 b.
4. Sattarov Karim Karshievich, Khazratulov Javsurbek Zokirzhon o‘g‘li Dependence of the Content of Trans-Isomerized Fatty Acids on Hydrogenate Indicators. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES Volume: 02 Issue: 10 | Oct 2021 ISSN: 2660-5317
5. Sattarov K.K., Nurmuhammedov A.A., Jankorazov.A. M., Choriev K.R. Features of Triglycerides Isomerization in the Process of Hydrogenization of Cottonseed Oils International Journal of Disaster Recovery and Business Continuity Vol. 12, No. 1, (2021), pp. 990-997
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategyasi**”. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.”O‘zbekiston”, 2017.-488 b.

## METROLOGIYANING AKSIOMALARI VA BOTDA ISHLATILADIGAN TUSHUNCHALAR

**Solijonov G‘anisher Komiljonovich**

O‘zbekiston milliy metrologiya institut Sirdaryo filiali boshlig‘i  
[solizanovganiser@gmail.com](mailto:solizanovganiser@gmail.com)

**Uzaydullayev Akmaljon Olimovich**

Guliston davlat universiteti, katta o‘qituvchisi (PhD)  
[akmal\\_470@mail.ru](mailto:akmal_470@mail.ru)

**Kuzibekov Sardor Komilovich**

Guliston davlat universiteti, katta o‘qituvchisi (PhD)  
[skuzibekov@mail.ru](mailto:skuzibekov@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda aniq o‘lchash natijalarini olish, o‘lchash vositalarini keng qo‘llanishini talab qiladi. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida bir qancha aksiomalar haqida va har bir narsaning sifati bo‘lgani kabi o‘lchashlarning ham sifati, uning mezonlari hamda botda ishlatiladigan bir qancha tushunchalarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** aksiomalar, aprior, o‘lchash, mezonlar, vositalar, birliklar, kattalik, parametr, vosita, etalon, xizmat, nazorat, aniqlash.

### ABSTRACT

Currently, obtaining accurate measurement results requires extensive use of measurement tools. Information is given on several axioms in the field of metrology, standardization and certification, and on the quality of measurements, its criteria, and several concepts used in bot, as in the quality of everything.

**Keywords:** axioms, a priori, measurement, criteria, tools, units, quantity, parameter, instrument, standard, service, control, determination.

Har bir fanda bo‘lgani kabi metrologiyada ham talaygina aksiomalarni ko‘rishimiz mumkin. Lekin hozir biz shulardan uchta, eng asosiy va umumiyalarini ko‘rib chiqmoqchimiz. Ushbu aksiomalar har qanday o‘lchashlar uchun xos bo‘lib, bu o‘lchashlar hoh oddiy, hoh murakkab bo‘lsin, hoh yuzaki, hoh aniq bo‘lsin, hoh

tezlashtirilgan, hoh mukammal bo'lsin, ularning barchasida shu aksiomalarning uyg'unlashganini ko'rishimiz mumkin:

*1-Aksioma.* Aprior ma'lumotsiz o'lchashni bajarib bo'lmaydi. 1-aksiomani izohlashdan boshlaymiz. Eng avvalo "aprior ma'lumot" nima o'zi degan savol tug'ilishi tabiiy. Aprior so'zi arriori - oldin keluvchi, dastlabki (lotincha) ma'nosini bildirib, boshlang'ich, muayyan voqea, voqelik yoki tajribagacha bo'lgan ma'lumotlar, bilimlar majmuini anglatadi. Bu so'z bilan ketma-ket keluvchi yana bir tushuncha bor - aposteriori, (arosteriri) ya'ni keyingi, orqadagi, tugallanuvchi degan ma'nolarni bildiradi. Bu so'zlarni ilk bora qadimgi grek faylasuflari kiritganlar. Ularning talqinicha, har bir inson anglaydigan ilm, ma'lumot yoki axborot muayyan bir tajribadan, voqelikdan yoki amal (saboq olish, yodlash, o'qish va shu kabilar) dan so'ng mujassamlashadi. Hosil qilingan axborot keyingi amallar mobaynida ortib boradi va ma'lum bir davrdagi aposterior ma'lumot aprior ma'lumotga aylanadi.

Shunday qilib, o'lchashlar nazariyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, muayyan o'lchashni amalga oshirishdan oldin shu o'lchashga tegishli bo'lgan ma'lum doiradagi ma'lumotlar aynan aprior ma'lumotni bildiradi. Agar bizda mana shu ma'lumotlar bo'lmasa, u holda umuman o'lchash to'g'risidagi tushunchaning o'zi shakllana olmaydi ham. Tajriba orqali, yuqorida aytilganlarga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Tili chiqqan, bemalol so'zlasha oladigan 4-5 yoshlar atrofida bo'lgan bog'cha bolasiga elektr tarmog'idagi kuchlanish qanday qiymatga ega ekanligini aniqlab berishni so'rab murojaat qilib ko'ring-a... Natijasi oldindan ma'lum. Darhaqiqat bu bolada elektr kuchlanishi degan kattalikning mohiyati, uni qanday birliklarda va qanday o'lchash asbobida, qanday qilib o'lchash mumkinligi borasida deyarli hech qanday ma'lumotlar yo'q. Shuning uchun ham bolakay ko'zini piri-piratganicha sizga qarab turaveradi. Chunki bu bolada hali, hech kanday aprior ma'lumot yo'q. Albatta, bu aytilgan gaplar shartlidir, ya'ni hozircha, vaqti kelib 4 yashar bola elektr kuchlanishi u yoqda tursin, hatto EHM qanday tarkibiy birikmalardan tashkil topganligini, ham aytib berib, ko'z oldingizda shaxsiy kompyuterni yig'ib berishi ham mumkin.

Shunday qilib, tajriba o'tkazishdan (o'lchashdan) oldin bizda aynan shu o'lchashga tegishli bo'lgan muayyan ma'lumotlar va ko'nikmalar bo'lishi lozim bo'ladi.

*2-Aksioma.* Har qanday o'lchash - taqqoslash (solishtirish) demakdir. Endi ikkinchi aksiomaning izohiga o'tamiz. O'lchash degani, sodda qilib aytganda olingan ob'ektda tekshirilayotgan kattalik qanchalik ko'p yoki kam tadbiiq etganligini aniqlash hisoblanadi. Masalan, ko'z oldimizda turgan ixtiyoriy bir narsani, aytaylik stolni olaylik. Uning tomonlarining uzunligini aniqlash kerak bo'lsa, bizning ko'z oldimizga bir metrga teng bo'lgan uzunlik keladi va unga nisbatan qiyos qilib taxminiy tarzda eni va bo'yi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Lekin bu shunday tez va g'ayri



oddiy bir tarzda yuz beradiki, biz bu haqda o'ylashga ulgurmaymiz ham, ko'z oldimizga keltira olmaymiz ham. Boshqa bir kattalik, masalan, tanavvul qilayotgan ovqatning mazasini ko'raylik. Bu kattalik hozircha o'lchab bo'lmaydigan kattaliklardan. Uni odatda faqat baholanadi. Baholash esa, individual tarzda bo'lib muayyan mezon asosida amalga oshiriladi. Bunda mezonlarning soni birdan tortib, bir nechtagacha bo'lishi mumkin. Masalan, "yaxshi" va "yomon" (2 mezon); "yaxshi", "yomon" va "o'rtacha" (3 mezon); "yaxshi", "yomon", "o'rtacha", "juda yaxshi" va "juda yomon" (5 ta mezon) va hokazolar. Agar ovqatning faqat mazasi yoki soddaroq bo'lishi uchun tuzning yaxshi-yomonligini ko'rib chiqaylik. Bunda biz xuddi shu kattalikiing (ya'ni tuz miqdorining) yaxshi bo'lgan qiymatini olamiz va shu qiymatga nisbatan yuqorida yoki pastda bo'lgan holatga shahodat keltiramiz.

*3-Aksioma.* O'lchash amalidan olingan natija tasodifiydir. Endi uchinchi aksioma xususida. Bir uchi ochilmagan qalam olamiz va shu qalamning 10 marta chizg'ich yordamida uzunligini aniqlaymiz. Natijalarni yozib boramiz. Shunda eng kami bilan ikki yoki uch marta olgan qiymatlarimiz boshqacharoq bo'ladi. Xo'sh, nima uchun bunday bo'lyapti? Axir ob'ekt va sub'ekt o'zgargani yo'q-ku! Bu narsa tasodifiylik degan tushuncha bilan bog'liq. Bu tushuncha xususida bir oz keyin izoh beriladi. Biz yuqorida qayd etilgan aksiomalarni faqat oddiygina o'lchashlar vositasida tushuntirishga harakat qildik. Agar nisbatan murakkabroq o'lchashlarga o'tadigan bo'lsak bu aksiomalarning kuchini yaqqolroq sezishimiz, ko'rishimiz va anglashimiz mumkin bo'ladi.

**O'lchashlarning sifat mezonlari:** Har bir narsaning sifati bo'lgani kabi o'lchashlarning ham sifati va uning mezonlari mavjud. Bu mezonlar o'lchashlardagi asosiy tavsiflarni ifodalaydi. Bu mezonlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:

*Aniqlik* - bu mezon o'lchash natijalarini kattalikning chinakam qiymatiga yaqinligini ifodalaydi. Miqdor jihatdan aniqlik nisbiy xatolik moduliga teskari tarzda baholanadi. Masalan, agar o'lchash xatoligi  $10^{-3}$  bo'lsa, uning aniqligi  $10^3$  bo'ladi yoki boshqacha aytganda, qanchalik aniqlik yuqori darajada bo'lsa, shunchalik, o'lchash natijasidagi muntazam va tasodifiy xatoliklar ulushi kam bo'ladi.

*Ishonchlilik* - o'lchash natijalariga ishonch darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. O'lchash natijalariga nisbatan ishonchlilikni ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qonunlari asosida aniqlanadi. Bu esa konkret holat uchun xatoligi berilgan chegaralarda talab etilgan ishonchlilikdagi natijalarni olishni ta'minlovchi o'lchash usuli va vositalarini tanlash imkonini beradi.

*To'g'rilik* - o'lchash natijalaridagi muntazam xatoliklarning nolga yaqinligini bildiruvchi sifat mezoni. Mos keluvchanlik - bir xil sharoitlardagi o'lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiruvchi sifat mezoni. Odatda, o'lchashlarning mos keluvchanligi tasodifiy xatoliklarning ta'sirini ifodalaydi.

*Qaytaruvchanlik* - ushbu mezon har xil sharoitlarda (turli vaqtda, har xil joylarda, turli usullarda va vositalarda) bajarilgan o'lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiradi.

*O'lchash xatoligi* - o'lchash natijasini chinakam (haqiqiy) qiymatdan chetlashuvini (og'ishuvini) ifodalovchi o'lchashning sifat mezoni.

**Metrologiyada bot-bot ishlatiladigan ayrim tushunchalar quyidagilardan iborat:**

*Metrologiya* - o'lchashlar, ularning birliligini ta'minlash usullari va vositalari hamda kerakli aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan.

*Nazariy metrologiya* - metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo'lgan sohasidagi metrologiya bo'limi.

*Qonunlashtiruvchi metrologiya* - metrologiya bo'yicha milliy idora faoliyatiga qarashli va birliklar, o'lchash usullari, o'lchash vositalari va o'lchash laboratoriyalariga davlat talablarini o'z ichiga olgan metrologiya qismi.

*Amaliy metrologiya* - nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo'llanish masalalari bilan shug'ullanuvchi metrologiya bo'limi.

*Kattalik* - sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin bo'lgan hodisalar, moddiy tizim, moddaning xossasidir.

*O'lchanadigan kattalik* - o'lchash vazifasining asosiy maqsadiga muvofiq o'lchanishi lozim bo'lgan, o'lchanadigan yoki o'lchangan kattalik.

*Kattalik o'lchami* - muayyan miqdoriy ob'ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'lgan kattalikning miqdoriy aniqlanganligi.

*Kattalikning qiymati* - kattalik uchun qabul qilingan birliklarning ma'lum bir soni bilan kattalikning o'lchamini ifodalash.

*Kattalikning sonli qiymati* - kattalikning qiymatiga kiruvchi nomsiz son.

*Parametr* - berilgan kattalikni o'lchashda yordamchi sifatida qaraladigan kattalik.

*O'lchash vositasi* - metrologik tavsiflari me'yorlangan (MTM), o'lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma'lum vaqt oralig'ida o'zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o'lchov birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o'lchashlar uchun mo'ljallangan texnik vosita.

*Kattalik o'lchovi* - o'lchov qiymatlari belgilangan birliklarda ifodalangan va zarur aniqlikda ma'lum bo'lgan bir yoki bir nechta berilgan o'lchamlarning kattaligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi.

*Etalon (o'lchashlar shkalasi yoki birligi etaloni)* - kattalikning o'lchamini qiyoslash sxemasi bo'yicha quyi vositalarga uzatish maqsadida shkalani yoki kattalik

birligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo'ljallangan va belgilangan tartibda etalon sifatida tasdiqlangan o'lchashlar vositasi yoki o'lchash vositalarining majmui.

*Birlamchi etalon* - birlikni mamlakatda (shu birlikni boshqa etalonlariga nisbatan) eng yuqori aniqlik bilan qayta tiklanishini ta'minlaydigan etalon.

*Maxsus etalon* - birlikning alohida sharoitlarda qayta tiklanishini ta'minlaydigan va bu sharoitlar uchun birlamchi etalon bo'lib xizmat qiladigan etalon.

*Davlat etaloni* - davlat hududida ushbu kattalikning boshqa barcha etalonlari bilan qayta tiklanadigan, birliklarning o'lchamlarini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qilishi vakolatli davlat idorasining qarori bilan tan olingan etalon.

*Ikkilamchi etalon* - birlikning o'lchamini mazkur birlikning birlamchi etalonidan oladigan etalon.

*Nusha-etalon* - birlikning o'lchamini ishchi etalonlarga uzatish uchun mo'ljallangan ikkilamchi etalon.

*Ishchi etalon* - birlikning o'lchamini ishchi o'lchash vositalariga uzatish uchun mo'ljallangan etalon.

*Xalqaro etalon* - milliy etalonlar bilan qayta tiklanadigan va saqlanadigan birliklar o'lchamlarini muvofiqlashtirish uchun xalqaro kelishuv bo'yicha xalqaro asos sifatida qabul qilingan etalon.

*Milliy etalon* - mamlakat uchun boshlang'ich etalon sifatida xizmat qilishi rasmiy qaror bilan tan olingan etalon.

*O'lchashlar birliligi* - o'lchash natijalari rasmiylashtirilgan kattaliklar birliklarida ifodalangan va o'lchashlar xatoligi berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan o'lchashlar holati.

*O'lchashlar birliligini ta'minlash* - O'BT Qonunlar, shuningdek o'lchashlarning birliligini ta'minlashga qaratilgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'lchashlar birliligiga erishish va saqlashga qaratilgan metrologik xizmatlar faoliyati.

*Metrologik xizmat* - MX o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajarish va metrologik tekshiruv va nazoratni amalga oshirish uchun qonunga muvofiq tashkil etiladigan xizmat.

*Davlat metrologik xizmati* - Mamlakatda o'lchashlar birliligini ta'minlash bo'yicha ishlarni mintaqalararo va sohalararo darajada bajaruvchi va davlat metrologik tekshiruvi va nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

*Davlat boshqaruv idorasining metrologik xizmati* - mazkur vazirlik (mahkama) doirasida o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik nazorat hamda tekshiruvini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

*Yuridik shaxs metrologik xizmati* - mazkur muassasa (tashkilot) da o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik tekshiruv hamda nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmat.

*Metrologiya bo'yicha milliy idora* - davlatda o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlariga rahbarlikni bajarishga vakolatli davlat boshqaruv idorasi.

*Metrologik tekshiruv* - o'lchash jarayoni elementlarini me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlashni o'z ichiga olgan vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

*Metrologik nazorat* - o'lchash jarayoni elementlarining holati, ishlatilishi va o'rnatilgan tartibda metrologik qoidalar amalga oshirilganligini baholash uchun vakolatli idoralar va shaxslar faoliyati.

*O'lchash vositalarini tekshiruvdan o'tkazish* - o'lchash vositalarining belgilab qo'yilgan texnikaviy talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari (vakolat berilgan boshqa idoralar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan amallar majmui.

*O'lchash vositalarini kalibrlash* - metrologik jihatlarining haqiqiy qiymatlarini va o'lchash birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmui.

*O'lchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish (ta'mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun litsenziya* - davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish xuquqini guvohlantiruvchi hujjat.

Shuni aytib o'tish kerakki, respublikamizga kirib kelayotgan uskuna va jihozlarni sifat darajasini belgilash yoki talablarini bajarish uchun yurtimiz uchun salmoqli ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun metrologiyaning hozirgi holatida yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasida ishlatiladigan bir qancha tushuncha va atamalarni nafaqat soha vakillari balki har bir inson bilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismatullayev P.R., Qodirova SH.A., A'zamov A.A., "Metrologiya asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent 2007 y.
2. Solijonov Ganisher Komiljonovich, Uzaydullayev Akmaljon Olimovich, Kuzibekov Sardor Komilovich, "O'lchovlarning tushunchasi va o'rni hamda metrologiyaning ro'li" Research and education, ISSN:2181-3191, Volume.1, ISSUE:3, 2022, Tom-1, №3, 108-114 b.
3. N.R.Barakaev, J.M.Kurbanov, A.O.Uzaydullaev, A.X.Gafforov, "[Qualitative purification of pomegranate juice using electro flotation](#)" IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Tom-848 №1, 012024 p.
4. O'lchashlar birligini ta'minlash davlar tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta'riflar. O'ZRST 8. 010-93.
5. Sattarov Karim Karshievich, Khazratulov Javsurbek Zokirzhon o'g'li "Dependence of the Content of Trans-Isomerized Fatty Acids on Hydrogenate Indicators". Central asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 02 Issue: 10/Oct 2021 ISSN: 2660-5317
6. Sattarov K.K., Nurmammedov A.A., Jankorazov.A. M., Choriev K.R. "Features of Triglycerides Isomerization in the Process of Hydrogenization of Cottonseed Oils" International Journal of Disaster Recovery and Business Continuity Vol. 12, No. 1, (2021), pp. 990-997

## XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

**G‘aniyev Zafar Usanovich**

TMI, “Buxgalteriya hisobi” kafedarasida dotsenti., PhD.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda boshqaruv hisobini tashkil etish, buxgalteriya hisobida qo‘llash va hamda uning ahamiyati ochib berilgan. SHuningdek, muallif tomonidan boshqaruv hisobini yuritishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрена организация управленческого учета в хозяйствующих субъектах, его применение в бухгалтерском учете и его значение. Также автором разработаны рекомендации по совершенствованию управленческого учета.

**Abstract:** This article discusses the organization of management accounting in business entities, its application in accounting and significance. The author also developed recommendations for improving management accounting.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv hisobi, byudjetlashtirish, rejalashtirish daromad, xarajat, operatsion byudjet, xarajatlarda va daromadlarda byudjeti, sof foyda, tahlil, moliyaviy hisobot.

### KIRISH

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va jahonning yetakchi davlatlari safiga qo‘shilishi borasida izchil iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Bank-moliya tizimi barqarorligini ta‘minlash va byudjet-soliq siyosatini izchil amalga oshirish, korxonalar faoliyatida qat‘iy tejamkorlikka amal qilish kabi tadbirlar barqaror iqtisodiy rivojlanishning garovidir. Darhaqiqat, moliyaviy va iqtisodiy organlarning samarali faoliyati orqali sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va boshqa tarmoqlarni barqaror rivojlantirish mumkin. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni qat‘iy tejamkorlikka rioya qilish, mahsulot sifatini oshirib borishda faoliyatni puxta ishlab chiqilgan rejalar asosida to‘g‘ri tashkil qilish muhim o‘rin tutadi. Bu esa hozirgi kunda har bir korxonalarda boshqaruv hisobini to‘g‘ri tashkil etish va uni yuritishni taqozo etmoqda. Korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarishga bo‘lgan yondashuvdan kelib chiqqan holda boshqaruv hisobi ma‘lumotlari ishonchli va haqqoniy axborotlar asosida keyingi faoliyatni rejalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ko‘pchilik iqtisodiy adabiyotlarda boshqaruv hisobi atamalariga turlicha fikr bildiriladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlar tahlil qilinganida boshqaruv hisobiga doir umumiy metodologik usullar yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Boshqaruv hisobi tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan har xil talqin qilinadi. Ta'riflardagi asosiy qarama-qarshilik unga qanday tarkib kiritilganligidadir.

### Strategik boshqaruv hisobi bo'yicha qarashlar<sup>24</sup>

V.F. Paliy	"Boshqaruv buxgalteriyasining mohiyati biznesni boshqarish jarayonida menejerlar uchun zarur yoki foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat ...". Muallif boshqaruv hisobini rejalashtirish, tashkil etish, hisobga olish va nazorat qilish, kompensatsiya va rag'batlantirish, menejerlar va xodimlarning o'zini o'zi baholash va baholash, muvofiqlashtirish va ma'lumot almashish funktsiyalarini bajaradigan tizim sifatida ko'rib chiqadi
T.P. Karpova	"Boshqaruv hisobining mohiyati xarajatlar va daromadlarni hisobga olish, me'yorlash, rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishning birlashtirilgan tizimidir, tezkor boshqaruv qarorlari uchun ma'lumotni tizimlashtirish va korxonaning kelajakdagi rivojlanish muammolarini muvofiqlashtirish". Ushbu ta'rif bir tomondan, buxgalteriya hisobini faqat xarajatlar va daromadlarni hisobga olish tizimi sifatida, ikkinchidan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotlar yaratilgan me'yorlash, rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish tizimi sifatida tushunishga imkon beradi.
M.Z. Pizengolts	"... keng ma'noda boshqaruv hisobi nafaqat ma'lumot to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va sarhisob qilish tizimi, balki bir maqsadga - ishlab chiqarishni takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan turli xil quyi tizimlar va boshqaruv usullarini birlashtirgan korxonalar boshqaruv tizimi, deb hisoblaydi. daromadni oshirish».
Ch.T.Xorngren va J.Foster	"Boshqaruv hisobi - bu har qanday ob'ektlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, yig'ish, tizimlashtirish, tahlil qilish, dekompozitsiya qilish, talqin qilish va uzatish".
M.A.Baxrushina	"Boshqaruv hisobi – bir vaqtda tadqiqotlar tizimi va soxasida o'zini namoyon etadigan, korxonani boshqarish tizimining muxim elementi, xisob jarayoni va boshqaruvi o'rtasida bog'lovchi zanjirdir"
Pardaev A.X.	boshqaruv hisobining maqsadi - korxonalar rahbari va menejerlarini har tomonlama ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat"

Ushbu ta'riflardan kelib chiqqan bir so'z bilan boshqaruv hisobini biznes strategiyasini ishlab chiqish va monitoring qilishda foydalaniladigan korxonalar va uning raqobatchilari to'g'risidagi boshqaruv hisobi ma'lumotlarini taqdim etish va tahlil qilish deya'ishimiz mumkin.

<sup>24</sup> Muallif tomonidan ishlangan

Boshqaruv hisobining vujudga kelishi xarajatlar hisobini tashkil qilish va yuritish bazasida yuzaga kelgan, shuning uchun uning asosiy tarkibiy qismini turli yo'nalishlardagi kelgusi va o'tgan davrlar uchun ishlab chiqarish xarajatlari tashkil etadi. Boshqaruv hisobi tarkibida ma'lumotlar yig'iladi, guruhlanadi, identifikatsiya qilinadi, tarkibiy bo'linmalar faoliyati natijalarini to'liq aks ettirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektning foyda olishda qatnashish darajasini aniqlash maqsadlarida o'rganiladi.

### **Tahlil va natijalar**

Boshqaruv hisobi – bu tashkilotning maqsadlariga erishish uchun menejerlarga moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, tahlil qilish, talqin qilish va etkazish amaliyotidir. U buxgalteriya hisobidan farq qiladi, chunki boshqaruv hisobining maqsadi kompaniya ichidagi foydalanuvchilarni xabardor qilingan biznes qarorlarini qabul qilishda yordam berishdir.

Boshqaruv funktsiyasi uch asosiy savolga javob topishda yordam beradi:

1. Birinchisi: "Hozirgi paytda korxonada qayerda, ya'ni, qaysi joyni egallaydi?" Va bu yo'nalishni tanlash uchun muhim bo'lgan joriy pozitsiyani tasvirlaydi.


2. Ikkinchisi: "Bir necha yil ichida qanday bosqichda bo'ladi?" Va bu kelajakka yo'nalish topish imkonini beradi.

Uchinchisi: "Reja amalga oshirish uchun nima qilish kerak?" Bu korxonada siyosatini to'g'ri amalga oshirish bilan bog'liq. Boshqarishda strategik rejalashtirish kelajakka qaratilgan va operatsion masalalarni hal qilish uchun zamin yaratishga yordam beradi. Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining ko'p qirralarini qamrab oladi, ular biznes boshqaruvi o'lchovlari to'g'risida rahbariyatga yetkaziladigan ma'lumotlarning sifatini oshirishga qaratilgan. Boshqaruv buxgalterlari xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning tannarxi va sotishdan tushgan tushumga tegishli ma'lumotlardan foydalanadilar. Xarajatlarni buxgalteriya hisobi – bu ishlab chiqarishning har bir bosqichidagi o'zgaruvchan xarajatlarni, shuningdek belgilangan xarajatlarni baholash orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarini aniqlashga qaratilgan alohida boshqaruv hisobi. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarga ortiqcha xarajatlarni aniqlash va kamaytirish va daromadlarni ko'paytirishga imkon beradi.

Boshqaruv hisobi ichki foydalanuvchilar uchun mo'ljallanmaganligi sababli, uni mo'ljallangan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgartirish mumkin. Bu xo'jalik yurituvchi subyekt yoki hatto xo'jalik yurituvchi subyektniyaning bo'limiga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish bo'limidagi menejerlar o'zlarining moliyaviy ma'lumotlarini davrda ishlab chiqarilgan

birliklar ulushi sifatida ko'rishni xohlashlari mumkin. Kadrlar bo'limi menejeri ma'lum vaqt davomida xodimning ish haqi jadvalini ko'rishga qiziqishi mumkin. Boshqaruv buxgalteriyasi har ikkala bo'limning ehtiyojlarini qondirishga qodir, bu aniq ehtiyoj uchun eng foydali bo'lgan har qanday formatdagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Boshqaruv hisobi moliyaviy hisob bilan o'zaro bog'liq holda yuritiladi, chunki hisobot davri ma'lumotlari asosida keyingi hisobot davridagi ishlab chiqarish prognozlanadi va normativ belgilab olinadi. Bu hisob maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar bilan ishlaydigan javobgar shaxslar katta mas'uliyat bilan ishlaydi. Qisqacha qilib aytganda boshqaruv hisobi ma'muriyatni axborot bilan taminlash tizimidir.



**1-rasm. Boshqaruv hisobining sxemasi.**<sup>25</sup>

<sup>25</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv hisobi tizimi xo‘jalik yurituvchi subyekt menejerlariga taqdim etiladigan barcha hisob ma‘lumotlari va bosqichlarni o‘ziga qamrab oladi. Boshqaruv hisobi samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xarajatlarni rejalashtirish, shakllantirish va nazorat qilish jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Xalqaro ekspertlarning ta‘kidlashicha, xo‘jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlarning ichki boshqaruv tizimida menejerlarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini aynan boshqaruv hisobi tizimi ta‘minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqti va resurslarining 90 foizini boshqaruv hisobini yo‘lga qo‘yish va yuritishga, qolgan 10 foizini esa moliyaviy hisobga sarflashadi<sup>26</sup>. Kuchli raqobat muhitida xo‘jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlar faoliyat yuritayotgan tarmoqning o‘ziga xos xususiyati yoki faoliyat turidan qat‘iy nazar, boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish orqali ko‘zlangan natijaga erishishi va samarali faoliyat yuritishi mumkin.

Boshqaruv hisobi xo‘jalik yurituvchi subyekt axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning samaradorligi ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi subyektning tarkibiy tuzilmalari, bo‘limlari va faoliyatlari to‘g‘risida olinadigan operativ (tezkor) ma‘lumotlarga bog‘liq. Boshqaruv hisobi ana shunday ma‘lumotlarni boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri qabul qilish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyekt ichidagi turli darajadagi boshqaruv rahbarlari uchun shakllantiradi.

Boshqaruv hisobi nazariyasidagi muammolar ko‘plab ilmiy salaflar tomonidan o‘rganilgan. Boshqaruv hisobini o‘rganish tarixiy yondoshish nuqtai nazaridan uning paydo bo‘lishi, taqsimlanish shartlari, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, texnologik va boshqa shartli shart-sharoitlarni yaratishi, rivojlanish va takomillashtirish bosqichlarini aniqlab olishi kerak. Mahalliy va xorijiy ixtisoslashtirilgan adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, menejment hisobining tarixiy jihatlari eng zamonaviy - sanoat (XIX asrning ikkinchi yarmi) va zamonaviy (XXI asr boshlari) rivojlanish davrlari nuqtai nazaridan yetarlicha o‘rganilgan.<sup>27</sup>

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, uning umumiy nazariy kontsepsiyasining asosi neoklassik iqtisodiy nazariya bo‘lib, asosan pozitivizm falsafasi bilan bir qatorda ilmiy boshqaruvning klassik va neoklassik maktablari bo‘lib, ular albatta ijtimoiy iqtisodiy ongda ustun mavqeni egallashi kerak. Shuning uchun bu shartlar boshqaruv hisobining paydo bo‘lishi uchun majburiydir.

Boshqaruv hisobini ichki iqtisodiyot uchun yangi narsa sifatida qabul qilish xato bo‘ladi. Mamlakatimizdagi boshqaruv hisobi tarixiga bir nazar tashlasak, 1920-1930

<sup>26</sup> Экономический анализ. «Теория и практика». № 22, ноябрь 2006 г. ДА.Волошин, кафедра «Учет, анализ и аудит», МГУ им. М.В.Ломоносова

<sup>27</sup> В.А.Хасанов, А.А.Хашимов “Boshqaruv hisobi” Darslik. -Т. 2013.

yillar boshlarida buxgalteriya xizmatlarining vazifalari Sovet hokimiyatining keyingi yillariga qaraganda ancha keng edi. O'sha davrning buxgalteri buxgalteriya, rejalashtirish va tahliliy ishlar bilan shug'ullangan. Mamlakatda sotsialistik iqtisodiy tizimning rivojlanishi va markazlashtirilgan rejalashtirishning kuchayishi bilan, rejalashtirish va moliya bo'limlarining buxgalteriya xizmatidan bosqichma-bosqich ajralib chiqish, buxgalteriya vakolatlarining bir qismini ularga o'tkazish. Natijada, buxgalterning faoliyati aslida korxonaning iqtisodiy hayoti faktlarini qayd etish uchun qisqartirildi.

Eng muhimi, boshqaruv hisobining asosi - bu tashkil etish va hisoblash xarajatlari to'g'risida ma'lumot to'plash. Mahalliy amaliyot hisoblash bilan bog'liq masalalarni chuqur ishlab chiqdi. Xarajatlarni hisobga olish va hisoblashning me'yoriy usuli sohasida boshqarish buxgalteriya hisobida "standart xarajatlar" tizimiga o'xshash ko'plab nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Vaqt o'tishi bilan boshqaruv hisobi vazifalari doirasi sezilarli darajada kengaydi va hozirgi boshqaruv hisobi ko'rinishiga keldi.

Korxonalarda boshqaruv hisobini samarali yuritish dastlabki va yig'ma hujjatlarning aylanish tezkorligi, qabul qilingan ichki hisobot shakllari, ularning tuzish davriyligi hamda taqdim qilish muddatlari, axborot tizimini takomillashtirishga mosligi ta'sir qiladi. Boshqaruv hisobida hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulatsiya, schotlar va ikkiyoqlama yozuv, balansda umumlashtirish va hisobot kabi moliyaviy hisob usullarining barcha elementlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, unda iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik va statistik usullar ham keng qo'llaniladi.

Boshqaruv hisobi an'anaviy buxgalteriya hisobi, operativ-texnik va statistika hisobi hamda iqtisodiy tahlilning ko'pgina unsurlaridan foydalanadi. Boshqaruv hisobini tashkil etilishi va o'z vaqtida yuritilishi oqilona boshqaruv qarorlarining o'z vaqtida qabul qilinishi, korxonada faoliyatini rejalashtirish, tahlil va nazorat qilish imkonini berib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Odatda, korxonalarda boshqaruv hisobi quyidagi faoliyat turlari bo'yicha yuritiladi:

- ta'minot-tayyorlov faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- moliya-tijorat faoliyati;
- tashkiliy faoliyat.

Korxonalarda ta'minot-tayyorlov faoliyati takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur sohada dastlabki boshqaruv axborotlari yig'iladi va qayta ishlanadi. Boshqaruv hisobi axborotlarini shakllantirishda ishlab chiqarish faoliyati muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, o'zgarishlarni javobgarlik markazlari bo'yicha

hisobini tashkil qilish, shuningdek, xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini yuritish, sarflangan xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni hisobga olish amalga oshiriladi.

Moliya-tijorat faoliyatida esa korxonalar iqtisodiy bo'linmalari (segmentlari) bo'yicha sotish, ma'muriy xarajatlar budjeti tuziladi va ularning bajarilishi nazorat qilinadi.

Tashkiliy faoliyat bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish alohida bo'linmalar menejerlari zimmasiga xarajatlar hajmi, ularning samaradorligi to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish vazifasini yuklaydi. Bunda ishlab chiqarish zararsizligi nuqtasining dastlabki hisob-kitoblari amalga oshiriladi, o'zgaruvchan, doimiy xarajatlar va foyda o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi. Boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bilan shug'ullanibgina qolmasdan, balki korxonalar rahbariga joriy va istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilishda ko'maklashishi zarur. Hozirgi paytda respublikamiz iqtisodiyotida boshqaruv hisobining nazariy-uslubiy asoslarini ishlash zarurati quyidagi omillar mavjudligi bilan izohlanadi:

- rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, buxgalteriya hisobining moliyaviy va boshqaruv hisobga bo'linishi;
- buxgalteriya hisobida mahsulotlar tannarxini hisoblash, haqiqiy xarajatlardan chetlanishlarni boshqarishda «Standart -kost» hisob tizimining paydo bo'lishi;
- xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratilishi, natijada korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish, xarajatlarni samarali taqsimlash maqsadida tannarxni kalkulyatsiya qilishning «Direkt-kosting» kabi zamonaviy tizimlarini rivojlantirish zaruratining yuzaga kelishi;
- korxonalar amaliyotiga «zararsizlik nuqtasi», «marjinal daromad», «ishlab chiqarish dastagi» va boshqa yangi iqtisodiy atamalarning kirib kelishi hamda ularni xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlashga yo'naltirish zarurati;
- korxonalar hisob tizimi oldiga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni rejalashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini strategik boshqarish, ularga mos transfert baholarni shakllantirish, xarajatlar va daromadlar hisobining samarali modelini yaratish kabi vazifalarning qo'yilishi;
- buxgalteriya hisobida yangi kompyuter texnologiyalari, axborot dasturlarining keng joriy etilishi, shuningdek, boshqaruv hisobini avtomatlashtirish asoslarini ishlab chiqarish muammosining mavjudligi va h.k.

Boshqaruv hisobi korxonalarining ichki vazifalarini hal qilishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning «nou-xau»sidir. <sup>28</sup>

<sup>28</sup> Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. - T: "Iqtisod-Moliya", 2019. -156 b.



Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobining muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish borasida istiqbolli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur axborotlar manbasini shakllantirish va rahbarlarni ular bilan ta'minlash;
- korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarishda menejerlarga ishonchli, yuqori samarador axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish;
- mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini to'g'ri aniqlash, belgilangan me'yorlardan chetlanishlar va uning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatib berish va h.k. Boshqaruv hisobi axborotlari korxonaning tezkor va strategik vazifalarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Tezkor vazifalarga quyidagilar kiradi:

- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini aniqlash;
- ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasini topish;
- mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar turlari, ularni sotishning muvofiq hajmini rejalashtirish;
- qo'shimcha buyurtmalarni qabul qilish yoki rad etish;
- baholarni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Strategik vazifalar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

- uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni jalb qilish;
- biznes tarkibini o'zgartirish;
- mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish.

Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv hisobi o'z vazifalari orqali korxonada ichki faoliyati, uning strategiyasi va taktikasi bilan boshqaruvning asosiy axborot poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv hisobining strategiyasi istiqbolda korxonada taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, istiqbolni belgilash, budjetlashtirish, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish, oqilona transfert baholarini o'rnatish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini ifodalaydi. Boshqaruv hisobi taktikasi esa joriy davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi bo'yicha hisob yuritish, dalillash, qabul qilingan qarorlarni tahlil va nazorat qilish. shuningdek, ularning ijrosi uchun javobgarlik kabilardan iborat.

Boshqaruv sohasida strategiyaning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz:

1. Kuchli. Kompaniyaning faoliyati to'liq amalga oshirilmagan bo'lsa, bunday reja boshqalarga qaraganda yaxshiroqdir. Bozorga jiddiy kirib borish, o'z imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirish va mahsulotni takomillashtirish kabi uchta kichik tip mavjud.

2. Integratsiya. Kompaniya tanlangan sektorda mustahkam o‘rnatilganida ishlatiladi va u turli yo‘nalishlarda harakatlanishi mumkin.

3. Diversifikatsiya. Ushbu parametr tanlangan sektorda kengaytirish imkoniyati mavjud bo‘lmasa yoki boshqa sanoatga kirish katta istiqbol va foyda uchun oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, javob beradi. Bu yerda uchta kichik tip mavjud: bir xil tovarlarni qo‘shish, yangi turdagi mahsulot turlarini kiritish va asosiy faoliyatga kiritilmagan ishlarni bajarish.

Boshqaruv jarayonini biz quyidagi 2-rasmda ko‘rib o‘tamiz.



**2-rasm. Boshqaruv hisobi jarayoni<sup>29</sup>**

Shuningdek, strategik boshqaruv hisobi uzoq muddatda tashkilot qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi va tashkilot faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan ma‘lumotlarni taqdim etishni anglatadi, chunki u ichki va tashqi ma‘lumotlarni taqdim etadi. Bu tashqi, shuningdek, moliyaviy bo‘lmagan va ichki ishlab chiqarilgan ma‘lumotlarni ta‘kidlaydigan texnikadir. Firmalar undan o‘zgaruvchan raqobat va texnologik muhitdan kelib chiqadigan muammolarga umumiy nuqtai nazar sifatida foydalanishdi.

Korxonalar va tashkilotlarda boshqaruv hisobining yuritishda korxonaning hisob siyosati juda ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Hisob siyosati – bu moliyaviy hisobni tayyorlash va taqdim etish uchun korxonalar tomonidan qabul qilingan aniq tamoyillar, asoslar, sharoitlar, qoidalar va amaliyotdir.<sup>30</sup>

### **Xulosa va takliflar**

Boshqaruv hisobi ko‘p xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda olib borilmaydi yoki yaxshi rivojlanmagan. Uning ko‘p elementlari umumlashgan buxgalteriya hisobiga (ishlab chiqarish xarajatlar hisobi va mahsulotning tannarxini hisoblash), operativ hisob (operativ hisobot), iqtisodiy tahlil (mahsulot tannarxining tahlili, rejali vazifalarni bajarilishini baholash va b.)larga kiradi.

Boshqaruv hisobining mohiyatini nafaqat amaliyotda balkim nazariyotchi olimlar ham turlicha talqin qilishadi. Ba‘zida uning mohiyati juda noto‘g‘ri va qisqartirilib talqin qilinadi, ba‘zida esa ishlab chiqarish xarajatlari hisobining bir bo‘lai sifatida qarashadi. Ana

<sup>29</sup> Muallif tomonidan ishlangan

<sup>30</sup> № 1 – «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi [milliy standarti](#)

shunday holatlarni bartaraf etish, hamda mohiyatini aniq belgilash uchun ishda olimlar va maktablar qarashlari tahlil qilindi, guruhlashtirildi, fikr mulohazalari umumlashtirildi.

1. Boshqaruv hisobining mohiyatini aniqroq yoritish uchun uning moliyaviy hisob bilan o'xshash va farqli taraflari ko'rsatib berildi. Boshqaruv hisobi to'g'risidagi mavjud qarashlar tanqidiy o'rganilib, xulosalar asosida uning yangi ta'rifi taklif qilindi: "xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqaruv hisobi tizimi – integratsiyalangan hisob tizimida ho'jalik ishlarining xarajat va natijalari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, o'lchash, to'plash, tahlil qilish, tayyorlash, interpretasiya qilish, yetkazish va qabul qilishni ichki foydalanuvchilarning xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning tizimli bo'limlarini muammoli vaziyatlarda operativ va strategik boshqaruvda yetarli ma'lumot bazasini shakllantirish uchun tashkillashtirish, me'yorlash, rejalashtirish, nazorat va tahlil qilish".

2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda boshqaruv hisobini tashkil etish va olib borishda butun faoliyat va texnologiyalar boshqaruv hisobining tashkil qilinish va yuritilish tamoyili asosida klassifikasiya qilib chiqildi va shu borada boshqaruv hisobining mohiyati va o'rni 1-rasmda keltirildi.

Boshqaruv hisobi xar hil darajadagi: strategiyadan boshlab to operativ byudjetgacha bo'lgan boshqaruv, rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlarini tizimli ma'lumot ta'minotini tashkil etganligi bois ishimizda uni tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi va bir tizimga solindi.

Boshqaruv hisobining ikkita, ya'ni ma'lumot foydalanuvchisiga yondashish va operativ ravishda ma'lumotlarni taqdim etish kabi asosiy jihatlari belgilanishi maqsadga muvofiq deb topildi va boshqaruv hisobi tizimi xar hil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda bu xususiyatlarni hisobga oluvchi turlicha usullarda tashkil etilishi aniqlandi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarining boshqa iqtisodiy ma'lumotlardan farqini ta'minlaydigan mezonlari ishlab chiqildi.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilish borasida ijobiy tajribalar, turli maktablar qarashlari umumlashtirilib, ilk bor samarali boshqaruv hisobi tizimini tashkil qilish bosqichlari taklif qilindi, har bir bosqichda amalga oshirilishi kerak bo'ladigan vazifalar aniqlanib, ushbu vazifalarning bajarilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektga qanday samara berishi ko'rsatilib berildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Волошин Д.А. Экономический анализ. «Теория и практика». № 22, ноябрь 2006 г., кафедра «Учет, анализ и аудит», МГУ им. М.В.Ломоносова.
2. Xasanov B.A., Xashimov A.A. "Boshqaruv hisobi" Darslik. -T. 2013.
3. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. - T: "Iqtisod-Moliya", 2019. -156 b.
4. № 1 – «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti

## HTTP PROTOKOLI SARLAVHASIDA AXBOROT BERKITISH ALGORITMI

**Mavlonov Obid Nizomovich**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada HTTP (HTTPS) protokolining yashirin kanallari va ularda axborot berkitish masalalari ko'rib chiqilgan. Axborotlarni yashirish maqsadida taklif etilgan algoritmda maxfiy ma'lumotlar HTTP so'rov-paketining sarlavha maydonlariga joylashtiriladi hamda asimmetrik shifrlash algoritmlaridan foydalangan holda shifrlanadi. Shuningdek, uning xavfsizligi ushbu shifrlash algoritmlarining xavfsizligiga bog'liqligi keltirilgan.

**Tayanch iboralar.** HTTP, HTTPS, qatlam, yashirin soha, shifrlash, axborotni berkitish.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены скрытые каналы протокола HTTP (HTTPS) и вопросы сокрытия информации в них. В предлагаемом алгоритме сокрытия информации конфиденциальные данные помещаются в поля заголовка пакета HTTP-запроса и шифруются с использованием алгоритмов асимметричного шифрования. Также указано, что его безопасность зависит от безопасности этих алгоритмов шифрования.

**Ключевые слова.** HTTP, HTTPS, слой, скрытая область, шифрование, сокрытие данных.

**Abstract.** In this article are discussed the hidden channels of the HTTP (HTTPS) protocol and the issues of hiding information in them. In the proposed algorithm to hide information, confidential data is placed in the header fields of the HTTP request packet and encrypted using asymmetric encryption algorithms. Also it is given that its security depends on the security of these encryption algorithms. In the proposed algorithm, the data is sent to the hidden fields and is done using asymmetric encryption algorithms (certificates). In this case, the receiver generates the keys and stores the private key. The sender encrypts the traffic with a public key.

**Keywords.** HTTP, HTTPS, layer, hidden area, encryption, data hiding.

## KIRISH

HTTP gipermatnli internet protokoli mijoz va server o'rtasidagi aloqani standartlashtirishga qaratilgan bo'lib, TCP/IP protokol stekiga asoslangan OSI modeli amaliy sathidagi tarmoq protokoli sanaladi. U kontent tuzilishi, so'rovi va internet orqali uzatilishini belgilaydi. Odatda TCP/IP protokollari 80-port va boshqa shu kabi portlardan ham foydalanish mumkin. Ammo, HTTPS va xavfsiz HTTPS protokollari 443-portdan foydalanadi.

HTTP ning birinchi hujjatlashtirilgan versiyasi 1991-yilda ishlab chiqilgan va uni HTTP/0.9 kabi belgilash kiritilgan. Bu protokol GET deb nomlangan yagona so'rov usuli asosida ishlagan. Ya'ni, server so'rovni oladi va HTML so'rovlari asosida javob beradi va kontent uzatilishi bilanoq ulanish yopiladi [1].

1996-yilda HTTP ning navbatdagi versiyasi, ya'ni HTTP/1.0 paydo bo'ldi, u oldingi versiyaga nisbatan ancha yaxshilangan. HTTP/0.9 versiyasidan farqli ravishda boshqa javob formatlarini, tasvirlar, video fayllar, oddiy matn yoki boshqa kontent turi bilan amalga oshirgan.

## ASOSIY QISM

HTTP ulanishi mustaqil ikki tomonlama oqimlarni o'tkazishi mumkin, bu yerda ko'plab oqimlar parallel ravishda xabar almashishi mumkin. Har bir xabar oxirgi nuqtaga yuboriladigan kichikroq freymlarga bo'linadi. HTTP orqali uzatiladigan har bir kadr oqim bilan bog'lanadi hamda barcha oqimlar yagona va boshqa oqimlar tomonidan foydalana olmaydigan oqim identifikatorlariga birlashtiriladi. Ruxsat etilgan 9-baytli sarlavha va freym turiga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan uzunlikdagi foydali yukdan iborat 10 xil turdagi freymlar mavjud. Har bir freym sarlavha va foydali axborotdan iborat. Har bir freym sarlavhasi qo'shimcha ravishda quyidagi maydonlarni o'z ichiga oladi [2]:

24-bit freymning foydali qismi;


8-bit freym turi;

8-bitli bayroqlar;

1-bitli zaxira maydon (R);

31-bit oqim identifikatori.

Quyidagi rasmda sarlavha va uning tarkibiy qismlari keltirilgan.



**10-rasm. HTTP protokolining sarlavhasi va uning tarkibiy qismlari.**

Uning boshqa protokollardan farqli jihatlaridan biri sifatida, URL satri va HTTP sarlavhasi yoki HTTP xabar tanasining o'lchamlari bo'yicha cheklovlar yo'qligini keltirish mumkin.

Odatda turli xil ilovalarda turli cheklovlar kiritiladi. Masalan, Apache serverlari versiyaga qarab hajmi HTTP sarlavhalarini 8 KB yoki 16 KB gacha qabul qiladi.

HTTP protokolini axborotlarni berkitish nuqtai-nazaridan qaraladigan bo'lsa, unda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Quyida undagi mavjud yashirin kanallar hosil qilish yo'llari va imkoniyatlari keltirilgan [3].

*Padding yordamida yashirin kanal hosil qilish.* DATA, HEADERS va PUSH PROMISE freymilarida xabarlar hajmini yashirish maqsadida foydalaniladi.

*Oqim identifikatorlaridan foydalangan holda yashirin kanal hosil qilish.* Oqim identifikatori belgisiz 31 bitli butun son bilan taqdim etiladi.  $0 \times 0$  qiymati ulanishni boshqarish xabarlar uchun,  $0 \times 1$  qiymati esa HTTP so'rovi uchun ajratilgan.

*PING freymidan foydalangan holda yashirin kanal hosil qilish.* PING freymilari xar ikki tomon, mijoz va serverdan yuborilishi mumkin hamda ular faqat oqim identifikatori  $0 \times 0$  bilan bog'lanadi. Ular bo'sh ulanish ishlayotganligi va aylanishni o'lchash uchun ishlatiladi.



*Oqimning ustuvorligi va bog'liqliklaridan foydalanadigan yashirin kanallar hosil qilish.* HTTP boshqa oqimlardan ustuvorlikka ega va uni foydalanuvchining o'zi tanlashi mumkin. Yuborish imkoniyati cheklangan bo'lsa, jo'natuvchi ustuvorliklar asosida kadrni uzatish uchun oqimni tanlaydi.

*Turli sonli o'ziga xos turdagi freymlardan foydalanadigan yashirin kanallar hosil qilish.* Bitta sarlavha freym, undan keyin nol yoki keyingi freymlar blokini o'z ichiga oladi. Agar, freym yagona bo'lsa, keyingisi sifatida axborot yashiringan freymni jo'natish yoki ko'p freymli qatorlarda ularning ichiga kiritish orqali erishish mumkin.


*Cookie sarlavhasi maydonidan foydalangan holda yashirin kanal hosil qilish.* HTTP cookie juftlarni bir cookie sarlavhasi maydonidan har birida bir yoki bir nechta cookie-juftlarga ega bo'lgan bir nechta cookie sarlavhalari maydoniga ajratishga ruxsat beradi. Ajratilgan cookie'larni siqish orqali, bo'sh qolgan joyda bir yo'nalishli yashirin kanal yaratish erishiladi.

*SETTINGS freymlaridan foydalangan holda yashirin kanal hosil qilish.* SETTINGS freymlari ulanishning so'zboshi bosqichida har ikki tomondan turli ulanishning o'ziga xos parametrlarini sozlash uchun ishlatiladi, ammo ular HTTP ulanishi paytida istalgan vaqtda yuborilishi mumkin.

*Oqim nazorati yordamida yashirin kanal hosil qilish.* HTTP da oqimni boshqarish har bir alohida oqimda yoki butun ulanishda amalga oshiriladi. Ushbu holatda oqimning o'rtasida qo'shimcha sifatida kiritishga erishiladi.

*HPACK (HTTP sarlavhasini kichiklashtiradi) yordamida yashirin kanallar hosil qilish [4].* Sarlavhani kichiklashtirish *String literal* () orqali amalga oshirilib, bir bit bayroqda Haffman kodlash usuli qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligini hamda kodlash uchun ishlatiladigan baytlar soni va qator ma'lumotlar maydonining kodlangan ma'lumotlarini ko'rsatadi.

Keltirilgan yashirin kanal hosil qilish usullari va uning algoritmlarini o'rganish natijasida, mijoz-server ilovalarida qo'llaniladigan ma'lumotlar tashuvchisi sifatida qo'llaniladigan HTTP protokoli sarlavhalarida ma'lumot berkitish algoritmi tanlandi. Unda aloqa o'rnatish uchun ilova ikkita qismiga ega bo'lishi kerak: ma'lumotlar yuboradigan server va xabarlar qabul qiladigan mijozning qismi [5].




*2-rasm. Ilovada qo'llaniladigan ikki tomonlama aloqa*

Protokolda muloqot qilish bir yo'l bilan amalga oshiriladi: bitta jo'natuvchi va qabul qiluvchi yoki har bir foydalanuvchiga qaratilgan dasturning ikki qismi. Ikkinchi holda, ma'lumotlarni yuboradigan ikkita turli xil server mavjud bo'ladi, shuning uchun ikkita turli xil aloqa kanallaridan foydalaniladi. Bunday yechim ilova xavfsizligini yetarlicha oshiradi.

Ikki kanalli aloqa 2-rasmida ko'rsatilgan. Unga ko'ra ikkita foydalanuvchi mavjud: qabul qiluvchi va jo'natuvchi, umuman olganda, ma'lumotni kutayotgan bir nechta qabul qiluvchi bo'lishi mumkin. Qabul qiluvchi aloqani boshlaydi, agar qabul qiluvchi ishga tushirilmagan bo'lsa, jo'natuvchiga qabul qiluvchi aloqada emasligini bildiradi va muloqot boshlanmaydi. Bu HTTP so'rovi va javob g'oyasiga asoslangan. Server HTTP so'rovini yuboradi va qabul qiluvchi tomondan HTTP javobi qaytganida aloqaga kirishadi. Xabarlarini yuborish HTTP sarlavhalarini tahrirlashda boshlanadi. Xabarlarini yaratish va jo'natish qurilishi HTTP sarlavhalari, xususan, yangi maydonni shakllantirish va uning ma'lumotlarini tahrirlashni o'z ichiga oladi.


Qabul qiluvchi huddi shu dastur yordamida serverning ikkinchi nusxasi orqali javob beradi va parallel ravishda ochiladi [6]. 3-rasmida aloqa paytidagi ketma-ketliklar tartibi ko'rsatilgan. Dastlab server ishlay boshlaydi va shu yerda jo'natuvchi qabul qiluvchiga uzatiladigan xabarlar sonini belgilaydi.



**3-rasm. Ilovadan foydalanish diagrammasi**

Keyin server tinglashni boshlaydi va u ma'lumotlarni yuborish imkonini beradi. Oxirgi xabarda qabul qiluvchining ilovasini yopadigan maxsus bayroq mavjud. Vaholanki qabul qiluvchi o'z ilovasini qayta ishga tushirishi mumkin va keyin xabarlarning qolgan qismi yetkaziladi, lekin oldingi ma'lumotlar yo'qoladi. Muloqot boshlanishidan oldin mijoz va server jo'natuvchining IP manzili va aloqa o'tkaziladigan port raqami haqida ma'lumot almashishi kerak[9]. Bunda maxfiy ma'lumotlar va Staganografik kalit ham boshqa himoyalangan kanal orqali yuborilishi lozim.

Mijoz va server tomonidagi dasturda bunday xususiyat o'rnatilgan, shuning uchun aloqa qilishdan oldin bunday ma'lumotlarni almashishning hojati yo'q. Yana bir imkoniyat - qabul qilishda protokol snifieridan foydalanish mumkin. Ushbu dastur tahlili tarmoq trafigidagi Sniferlar har bir paketni ushlaydi va uni o'qish imkoniyatini beradi. Biror kishi barcha paketlarni qo'lga kiritishi va HTTP javoblarini qidirishi hamda ular orqali maxfiy xabarni topishi mumkin [7].




**4-rasm. Ilovaning bajarilish ketma-ketlik diagrammasi**

HTTP protokoli tuzilishiga asoslanib, TCP/IP paketiga ma'lumotlar massasini joylashtirish muammosini hal qilish uchun real vaqt rejimida ma'lumotlarni yashirish taklif qilinadi. Maxfiy ma'lumotlar HTTP protokoli sarlavhalari maydonlariga kiritiladi. Algoritmning sig'imi tajribalar orqali isbotlangan va 1000 baytdan ortiq ma'lumotlarni HTTP so'rov paketiga (Get-packet) joylashtirish mumkin [10], shaffofligi esa juda yaxshi. Shu bilan birga, yashirin ma'lumotlar paketlarni uzatishga ta'sir qilmaydi.

HTTP protokoli strukturasi yashirin ma'lumotlarning tashuvchisi sifatida qabul qilgan holda, xabar sarlavhalari sifatida yashirilgan ma'lumotlar HTTP so'rov paketi sarlavhalari maydonlariga joylashtiriladi. Algoritmning ko'rinmasligi va yashirish qobiliyati juda yaxshi.

Quyidagi 5-rasmdan ko'rinib turibdiki, HTTP so'rov-paket strukturasi to'rt qismga bo'lingan [8]: Birinchi qism - so'rovlar qatori, bu so'rovlar-paketining birinchi qatori. Ikkinchi qism sarlavha maydonlari va sarlavha maydonlari orqasidagi bo'sh qator.



5-rasm. So'rov xabarining tuzilishi

1. *So'rov satri*: So'rov qatori so'rov usuli bilan boshlanadi, so'ngra so'rov-URL va protokol versiyasi bilan davom etadi. Bunda *HTTP/1.1* protokol versiyasidagi *GET / HTTP/1.1/r/n* orqali amalga oshiriladi.

2. *So'rov sarlavhasi maydonlari*: So'rov sarlavhasi maydonlari mijozga so'rov va mijozning o'zi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni serverga uzatish imkonini beradi. Har bir sarlavha maydoni nomidan keyin ikki nuqta ":" qo'yilib, maydon qiymati kiritiladi. Maydon nomlari katta-kichik harflarni farqlamaydi.

3. *Bo'sh satr*: Sarlavha maydonlarini xabarning asosiy qismidan ajratib turganda amaliy ahamiyatga ega emas[11].

4) *Xabar tanasi*: GET-paketning xabar tanasi (agar mavjud bo'lsa) so'rov yoki javob bilan bog'liq bo'lgan obyekt tanasini tashish uchun qo'llaniladi.

```

Hypertext Transfer Protocol
+ GET /index.html HTTP/1.1\r\n
Accept: image/gif, image/x-bitmap, image/jpeg
Accept-Language: zh-cn\r\n
Accept-Encoding: gzip, deflate\r\n
User-Agent: Mozilla/4.0 (compatible; MSIE 6.0;
Host: 59.64.156.233\r\n
Connection: Keep-Alive\r\n
\r\n

```


6-rasm. GET-so'rovi xabari

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, mijoz serverga ulanganida olingan HTTP so'rov paketi. HTTP so'rov paketi sakkizta xabar sarlavhasini o'z ichiga oladi, ammo xabarning asosiy qismi ko'rinmaydi[12].

Algoritmda maxfiy ma'lumotlarni yashirish uchun HTTP so'rov paketining tuzilishidan foydalanadi. HTTP/1.1 gipermatnni uzatish protokoliga muvofiq ba'zi xabar sarlavhalarini mustaqil belgilash mumkin. Shuning uchun maxfiy ma'lumotlar

HTTP so'rov-paketining sarlavha maydonlariga joylashtiriladi va HTTP so'rov-paketi qabul qiluvchi tomonga yuboradi.

Agar mijoz veb-serverning resursiga kirishni istasa, mijoz va veb-server birinchi navbatda uch marta qo'l siqish paketlarini uzatadilar, keyin mijoz HTTP so'rov paketini veb-serverga yuboradi. HTTP protokoli asosida ma'lumotlarni yashirishni amalga oshirish uchun o'rta server mijoz va veb server o'rtasida joylashtiriladi. Mijoz va veb-server o'rtasidagi barcha ma'lumotlar paketlari o'rta server tomonidan uzatiladi. O'rta server mijozdan so'rov paketini qabul qilgandan so'ng, so'rov paketining bosh maydonlariga yashirin ma'lumotlarni joylashtiradi va so'rov paketini taklif qilingan ma'lumotlarni yashirish algoritmini amalga oshiradigan veb-serverga uzatadi. Quyidagi 7-rasmda maxfiy ma'lumotlarni uzatish jarayoni tasvirlangan.




**7-rasm. Axborotni yashirish jarayoni**


O'rtadagi server HTTP so'rov paketiga yashirin ma'lumotni kiritganligi sababli, HTTP so'rov xabari va unga rioya qilish uchun paket uzunligi o'sishiga olib keladi. IP nazorat summasini qayta hisoblash va TCP tasdiqlash raqami va TCP tartib raqami o'rtadagi server tomonidan o'zgartirilishi kerak[13].

Algoritm jo'natuvchidan keladigan va qabul qiluvchiga yashirin kanal sifatida o'tadigan paketlar oqimidan foydalanish uchun mo'ljallangan. Agar paket oqimi mavjud bo'lmasa, algoritm yashirin kanal sifatida ishlaydiganlaridan birini yaratadi. Oqimdagi har bir paket, uning xeshining maqsadli joylaridan ma'lum miqdordagi bitlar bir xil miqdordagi maxfiy ma'lumotlar bitlariga mos kelishini tekshirish uchun baholanadi. Agar ular mos keladigan bo'lsa, paket belgilanadi va yuboriladi. Qabul qiluvchi jo'natuvchining mashinasidan kelayotgan trafikni ushlaydi va belgilangan paketlarni qidiradi. Belgilangan paketni ko'rgandan so'ng, qabul qiluvchi belgilangan paketning bir xil xeshini yaratadi va ushbu paketdan maxfiy ma'lumotlar bitlarini chiqaradi hamda yashirin ma'lumotlarni qayta to'playdi. Har bir belgilangan paket o'zgarishi uchun solishtiriladigan paket xesh bitlarida baholanadigan bitlarning joylashuvi[14]. Baholangan bitlarning joylashishini ko'chirish orqali tajovuzkor to'g'ri joylashuvni taxmin qila olmaydi natijda, yashirin ma'lumotlarni chiqara olmaydi. Ular paket xeshidan baholanishi kerak bo'lgan bitlarning tartibini va qo'pol kuch hujumini foydasiz qiladigan o'ziga xos joylashuvini bilishlari kerak. Bundan tashqari, paket yaxlit obyekt sifatida tahlil qilinganligi sababli, statistik tahlil hech qanday natija bermaydi, chunki paket foydasiz va qabul qiluvchidan tashqari hech qanday maxsus ma'noni bildirmaydi.





8 -rasm. Ma'lumot jo'natuvchi tomoni algoritmi



**9-rasm. Ma'lumotni qabul qiluvchi tomoni algoritmi**

8-rasmda jo'natuvchining ma'lumotlarni yashirish va umumiy algoritm yordamida qabul qiluvchiga jo'natish qadamlari ko'rsatilgan.

9-rasmda qabul qiluvchi tomonning umumiy algoritmdagi qadamlar ko'rsatilgan. Dastlab, jo'natuvchi tomonidan qo'llaniladigan bir xil almashtirish massivini yaratishdan boshlanib, keyingi bosqichlarda yashirin ma'lumotlarni qidirish bilan davom etadi. Yuboruvchi ham, qabul qiluvchi ham sxemani bilishi va bir xil maxfiy kalitga ega bo'lganligi sababli, qabul qiluvchi tasodifiy almashtirish generatorini yaratish uchun undan foydalanadi va baholash hajmi bo'lgan almashtirish massivini yaratadi[15].

Ushbu algoritm HTTP uchun mo'ljallangan bo'lib, uni HTTPS orqali amalga oshirilsa, MITM (o'rtadagi odam) hujumidan himoyalash mumkin bo'ladi. Ushbu hujum muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun esa, SSL sertifikatlari kaliti hujumchida bo'lishi talab etiladi. Axborot xavfsizligi nuqtai-nazaridan yopiq kalit faqat foydalanuvchining o'zida saqlanadi.

## XULOSA

HTTPS so'rovlarining mazmunini ko'rish uchun hujumchi mijoz yoki serverning nomidan ish bajarishi kerak. Agar, mijoz tomonidan qalbaki sertifikat orqali so'rovlarni tinglashga urinish aniqlansa, aloqa tezda to'xtatiladi.

Dastlabki ulanishda server tomonidan HTTP protokolidan foydalanilsa, MITMni amalga oshiruvchi shaxs SSLSTRIP hujumi orqali oson trafikni tinglay oladi. Chunki, HTTP so'rovlari shifrlanmagan ochiq matn ko'rinishida amalga oshiriladi.

Algoritmda ma'lumot yashirin sohalarga biriktirilgan holda jo'natiladi va asimmetrik shifrlash algoritmlaridan (sertifikat) foydalangan holda amalga oshiriladi. Ushbu holatda qabul qiluvchi kalitlarni hosil qiladi va yopiq kalitni o'zida saqlaydi. Jo'natuvchi trafikni ochiq kalit bilan shifrlab jo'natadi. Uning xavfsizligi shifrlashda qo'llaniladigan algoritmning xavfsizligiga bog'liq sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tran C. M. et al. Cross-protocol unfairness between adaptive streaming clients over http/3 and http/2: A root-cause analysis //Electronics. – 2021. – T. 10. – №. 15. – C. 1755.
2. Brylinski A. S., Bhattacharjya A. Overview of HTTP/2 //Proceedings of the Second International Conference on Internet of things, Data and Cloud Computing. – 2017. – C. 1-6.
3. Ganivev, Abduhalil, Obid Mavlonov, and Baxtiyor Turdibekov. "Improving Data Hiding Methods in Network Steganography Based on Packet Header

Manipulation." 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). IEEE, 2021.

4. Ghaznavi M. et al. Content Delivery Network Security: A Survey //IEEE Communications Surveys & Tutorials. – 2021. – T. 23. – №. 4. – C. 2166-2190.

5. Aliwarga H. K., Satriatama A. H., Pratama B. F. A. Performance comparison of fleet management system using IoT node device based on MQTT and HTTP protocol //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – T. 2217. – №. 1. – C. 020009.

6. Wolsing K. et al. A performance perspective on web optimized protocol stacks: TCP+ TLS+ HTTP/2 vs. QUIC //Proceedings of the Applied Networking Research Workshop. – 2019. – C. 1-7.

7. Akasiadis C., Pitsilis V., Spyropoulos C. D. A multi-protocol IoT platform based on open-source frameworks //Sensors. – 2019. – T. 19. – №. 19. – C. 4217.

8. Anderson B. et al. Limitless HTTP in an HTTPS World: Inferring the Semantics of the HTTPS Protocol without Decryption //Proceedings of the Ninth ACM Conference on Data and Application Security and Privacy. – 2019. – C. 267-278.

9. Dong, P., Qian, H., Lu, Z., Lan, S., A Network Covert Channel Based on Packet Classification, International Journal of Network Security, 2012, 14(2), 109–116

10. Gianvecchio, S., Wang, H., Wijesekera, D., Jajodia, S., Model-based covert timing channels: Automated modeling and evasion, in: Lippmann, R., Kirda, E., Trachtenberg, A. (eds.) RAID 2008, LNCS, vol. 5230, Springer, 2008, 211–230

11. Gianvecchio, S., Wang, H., An Entropy-Based Approach to Detecting Covert Timing Channels, IEEE Transactions on Dependable and Secure Computing, vol.8, issue 6, 2011, 785–797

12. Jankowski, B., Mazurczyk, W., Szczypiorski, K., PadSteg: Introducing Inter-Protocol Steganography, Telecommunication Systems, 2013, 52(2), 1101–1111

13. Luo, X., Chan, E., Chang, R., TCP Covert Timing Channels: Design and Detection, In proceedings of:

14. IEEE International Conference on Dependable Systems and Networks With FTCS and DCC, Anchorage, Alaska, June 24-27, 2008, 420 – 429

15. Mazurczyk, W., Smolarczyk, M., Szczypiorski, K., On Information Hiding in Retransmissions, Telecommunication Systems: Modelling, Analysis, Design and Management, vol. 52, issue 2, 1113-1121, 2013

## KOLOSNIK MATRITSA MODELINI RAQAMLI USKUNA YORDAMIDA TAYYORLASH KETMA KETLIGINI LOYIHALASH.

**Azizov Shuhrat Mamatovich, Uzoqov Farhod G'afforovich**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston

E-mail: [azizovshuhrat@gmail.com](mailto:azizovshuhrat@gmail.com)

E-mail: [farxodjonuzoqov@gmail.ru](mailto:farxodjonuzoqov@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Biz kolosnik matritsa modelini raqamli uskuna yordamida tayyorlash ketma ketligini loyihalash. Maqsadimiz toladan ajratilgan chigitlarni arrali tola ajratgich ishchi kameradan o'z vaqtida chikib ketish imkoniyatini yaratib beradigan kolosniklarni ishlab chiqarish. So'ng ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

**Kalit so'zlar.** Kolosnik, 3d modeli, NX1.2 dasturi, Operation Navigator-Geometry Gut Area, Rest Milling, 50dR5, 16DR0 va 5D25R frezerlar, "Feeds and Speeds".

## РАЗРАБОТКА ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ МАТРИЧНОЙ МОДЕЛИ КОЛОСНИКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВОЙ АППАРАТУРЫ.

**Азизов Шухрат Маматович, Узоков Фарход Гафорович**

*Наманганский инженерно-технологический институт, Узбекистан*

**Аннотация.** Разрабатываем последовательность изготовления колоссальной матричной модели с использованием цифрового оборудования. Нашей целью является производство колонников, позволяющих семенам, отделенным от волокна, своевременно покинуть рабочую камеру сепаратора пиловочника. Затем он состоит во внедрении его в производство.

**Ключевые слова.** Колосник, 3d модель, программа NX1.2, Навигатор операций-Геометрия области кишки, Остаточное фрезерование, Фрезерные станки 50dR5, 16DR0 и 5D25R, "Подачи и скорости".

## DESIGNING THE SEQUENCE OF PREPARATION OF THE KOLOSNIK MATRIX MODEL USING DIGITAL EQUIPMENT

**Azizov Shuxrat Mamatovich, Uzokov Farhod Gaforovich**

*Namangan Institute of Engineering and Technology, Uzbekistan*


**Annotation.** We design the sequence of preparation of colossal matrix model using digital equipment. Our goal is to produce colosniks that make it possible for the seeds separated from the fiber to leave the working chamber of the saw fiber separator in time. Then it consists of introducing it into production.

**Keywords.** Kolosnik, 3d model, NX1.2 software, Operation Navigator-Geometry Gut Area, Rest Milling, 50dR5, 16DR0 and 5D25R milling machines, "Feeds and Speeds".

**Kirish.** Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining sifati bevosita texnologik jarayonda ishlayotgan mashinalarning samarali ishlashiga bog'liq[1]. Xar bir texnologik jarayon sifatli tola ishlab chikarish uchun u yoki bu darajada muxim ahamiyat kasb etadi. Korxonada tola ishlab chiqarishga asosiy bog'liq jarayon - bu jinlash (toladan chigitni ajratish) jarayonidir. Tozalash tsexlarida mayda va yirik iflosliklardan tozalangan paxtani jinlash tsexining asosiy mashinasi bo'lgan arrali jinga uzatiladi[2]. Jinning ishchi kamerasiga kelib tushgan chigitli paxtaning chigit tarog'i yonida aylanayotgan arra tishlari bilan ilib olib, kolosnikli panjaraga olib keladi. Ishchi kamerada arra tishlariga ilashgan paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ularni xam tortadi va xomashyo valigini xosil qiladi. Bu xomashyo valigi arrali tsilindrni aylanishiga qarshi tomonga aylanadi va u arra tishlarini paxta tolasini bilan uzluksiz ta'minlab turadi[3-4].

Maqola mualliflari tomonidan jin mashinasi ishchi elementlarini takomillashtirgan xolda bir qancha tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlardan maqsad, Kolosnik matritsa modelini raqamli uskuna yordamida tayyorlash ketma ketligini loyihalash. Kolosnikni samarali ishlaydigan texnologik o'lchamlarini aniqlash xamda ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat[5].

Optimallashtirishda asosiy masala jin mashinasi ish unumdorligiga ta'sir etuvchi ahamiyatli omillarni aniqlab olishdir, bunda jin mashinasining asosiy ishchi qismlaridan biri bo'lgan "kolosnik"ni raqamli uskuna yordamida turli xil turini tayyorlab eng yahshi parametrlar tanlab olinadi[6-7]. 3D holatdagi puansonni biz qanday qilib raqamli uskuna tayyorlaymiz(rasm-1)? Bu murakkab juda qiziqarli jarayondir. Birinchi navbatda kerakli materiallarni tayyorlaymiz[8-9].



Rasm-1: Kolosnik matritsa modeli.


“Ctrl+Alt+M” tugmalarini bosib biz “modeling” dan “Manufacturing”ga o'tamiz. Matritsa modelini raqamli uskunada tayyorlash uchun uni turli frezerlar yordamida tayyorlash va ketma-ketligini loyihalash[10-11].

Matritsa modelini raqamli uskunada tayyorlash uchun avval matiriallar tanlanadi.




Minimal qo'yim	Maksimal qo'yim
$2Z_{imin} = (Rz-h)_{i-1} + \Delta E_{i-1} + E_{yi}$ $(Rz-h)_{i-1} = 500 \text{mk}$ (CTMI -182-6) $\Delta k = 1 \frac{\text{MKM}}{\text{MM}}$ (CTMI -183-8) $\Delta E_{i-1} = \Delta k \cdot 1 = 1 \cdot 240 = 240 \text{ MKM}$	$2Z_{imax} = Z_{imin} + T_{Di-1} - T_{Di}$ $T_{Di-1} = 1500 \text{ MKM}$ (CTMI -120-3) $T_{Di} = 100 \text{ MKM}$ (CTMI -7-2) $2Z_{imax} = 840 + 1500 - 100 = 2240 \text{ MKM} = 2.2 \text{ mm}$
$E_{yi} = \sqrt{E_{\sigma}^2 + E_m^2} = \sqrt{0^2 + 100^2} = 100 \text{MKM}$ $E_{\sigma} = 0 ; E_m = 100$ $2Z_{imin} = 2[500 + 240 + 100] = 840 \text{ MKM}$ (CTMI -43-14)	

Operation Navigator “Blank Geometry” orqali abrasotka qilish jarayonini loyihalaymiz(rasm-2). Kolosnikni qolibini yuzasi tanlanadi(rasm-3).




Rasm-2: “Blank Geometry”




Rasm-3: Kolosnik qolibi.

Opereshin oraqali biz frezlar orqali abrasotka qilish jarayonini loyihalaymiz (rasm-4). Operation Navigator-Geometry “Gut Area” orqali abrasotka qilish jarayoni(rasm-5).




rasm-4: frezlar orqali abrasotka qilish jarayoni.



Rasm-5: “Gut Area”

Operation Navigator-Geometry “Rest Milling” orqali abrabotka qilish jarayoni(rasm-6).



rasm-6: Rest Milling.

Biz 3 xil frezer yordamida puanson modelini tayyor holaga olib kela olar ekanmi. Bula 50dR5 pobeditli frez, 16DR0,8 li pobeditli frez va 5D2,5R li radiusli frezlardir[12].



50D5R li pobeditli freezer



16D0.8Rli pobeditli freezer



5D2.5R li radiusli frezer

Birinchi programmamiz 50D5R orqali amalga oshiriladi, unga moslab programma yaratamiz[13].

**Frezalash . 6H11 vertikal frezalash uchun kesish rejimi.**

1. Kesish chuqurligi  $t = Z_{max} = 2.2 \text{ mm}$

2. Surish  $S_z = 0.1 \text{ mm (CTMII – 283 -33)}$

3. Kesish tezligi  $V = \frac{C_v D_a}{T^m \cdot t^x \cdot S_y \cdot B^u \cdot Z^p} K_v \frac{\text{m}}{\text{min}}$

$C_v = 332$ ;  $x = 0.1$  ;  $y = 0.4$ ;  $u = 0.2$  ;  $a = 0.2$  ;  $P = 0$  ;  $m = 0.2$  (CTMII – 286 – 39)

$T = 240$  minut (CTMII -290 – 40 )

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv} = 1 * 1 * 1 = 0.5$$

$$K_{mv} = 1 \text{ (CTMII – 261 – 1)}$$

$$K_{nv} = 1 \text{ (CTMII – 263 – 5)}$$

$$K_{uv} = 1 \text{ (CTMII – 263 – 6)}$$

$$V = \frac{332 * 250^{0.2}}{240^{0.2} * 2.2^{0.1} * 0.1^{0.4} * 240^{0.2} * 14^0} * 1 = \frac{332 * 3.02}{2.99 * 1.08 * 0.4 * 2.99 * 1} = \frac{1002.64}{3.86} * 1 = 259.8 \frac{\text{m}}{\text{min}}$$

4- Shpindelning Aylanishlar soni

$$N = \frac{1000 * V}{\pi * D} = \frac{1000 * 259.8}{3.14 * 240} = \frac{259800}{753.6} = 344.74 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}$$

Dastgohning imkoniyatidan kelib chiqib

$n_x = 315$ ayl/min deb qabul qilamiz.

5. xaqiqiy kesish tezligi

$$V_x \frac{\pi D n_x}{1000} = \frac{3.14 * 250 * 315}{1000} = 237.38 \frac{\text{m}}{\text{min}}$$

6- Kesish kuchuni xisoblaymiz.

$$P_z = \frac{10 C_p * t^x * S_z^y * B^u * Z}{D^a * n_x^w} K_{mp} \text{ H}$$

$C_p = 825$ ;  $x = 1$  ;  $y = 0.75$  ;  $u = 1.1$  ;  $a = 1.3$ ;  $w = 1.2$ ; (CTMII – 291 – 41)

$K_{mp} = 1$  (CTMII – 264 – 9)

$$\begin{aligned} P_z &= \frac{10 * 825 * 2.2^1 * 0.1^{0.75} * 240^{1.1} * 14}{240^{1.3} * 315^{0.2}} * 1 = \\ &= \frac{8250 * 2.2 * 0.178 * 415.18 * 14}{1242.4 * 3.16} * 1 = \frac{18778508.36}{39259.84} = \\ &= 4783.14 \text{ H} \end{aligned}$$

7- Burovchi moment

$$M_{bp} = \frac{P_z * D}{2 * 100} = \frac{4783.14 * 250}{200} = 5978.9 \text{ HM}$$

8- Kesish quvvatini xisoblash

$$N = \frac{P_z * V_x}{1020 * 60} = \frac{4783.14 * 277.38}{61200} = 18.55 \text{ kvT}$$

9- Asosiy kesish vaqti

$$T_a = \frac{l}{S * n} = \frac{260}{0.1 * 315} = 8.25 \text{ min}$$

2 – o‘tish . 25.3 mm qattqlikni saqlab A sirtini frezalash . 1- va 2- o‘tishlar bir xil bo‘lgani uchun qiymatlarni yozamiz.

1. Kesish chuqurligi  $t = Z_{\text{imax}} = 2.2 \text{ mm}$

2. Surish  $S_z = 0.1 \text{ mm (CTMII – 283 -33)}$

3. Kesish tezligi  $V = \frac{C_v D a}{T^m \cdot t^x \cdot S_z^y \cdot B^u \cdot Z^p} K_v \frac{\text{m}}{\text{min}}$

$C_v = 332; x = 0.1; y = 0.4; u = 0.2; a = 0.2; P = 0; m = 0.2$  (CTMII – 286 – 39)

$T = 240$  minut (CTMII -290 – 40)

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv} = 1 * 1 * 1 = 0.5$$

$$K_{mv} = 1 \text{ (CTMII – 261 – 1)}$$

$$K_{nv} = 1 \text{ (CTMII – 263 – 5)}$$

$$K_{uv} = 1 \text{ (CTMII – 263 – 6)}$$

$$V = \frac{332 * 250^{0.2}}{240^{0.2} * 2.2^{0.1} * 0.1^{0.4} * 240^{0.2} * 14^0} 1 = \frac{332 * 3.02}{2.99 * 1.08 * 0.4 * 2.99 * 1} = \frac{1002.64}{3.86} 1 = 259.8 \frac{\text{m}}{\text{min}}$$

4- Shpindelning Aylanishlar soni

$$N = \frac{1000 * V}{\pi * D} = \frac{1000 * 259.8}{3.14 * 240} = \frac{259800}{753.6} = 344.74 \frac{\text{ayl}}{\text{min}}$$

Dastgohning imkoniyatidan kelib chiqib

$n_x = 315$  ayl/min deb qabul qilamiz.

5. xaqiqiy kesish tezligi

$$V_x \frac{\pi D n_x}{1000} = \frac{3.14 * 250 * 315}{1000} = 237.38 \frac{\text{m}}{\text{min}}$$

6- Kesish kuchuni xisoblaymiz.

$$P_z = \frac{10 C_p \cdot t^x \cdot S_z^y \cdot B^u \cdot Z}{D^a \cdot n_x^w} K_{mp} \text{ H}$$

$C_p = 825; x = 1; y = 0.75; u = 1.1; a = 1.3; w = 1.2;$  (CTMII – 291 – 41)

$K_{mp} = 1$  (CTMII – 264 – 9)

$$\begin{aligned} P_z &= \frac{10 * 825 * 2.2^1 * 0.1^{0.75} * 240^{1.1} * 14}{240^{1.3} * 315^{0.2}} * 1 = \\ &= \frac{8250 * 2.2 * 0.178 * 415.18 * 14}{1242.4 * 3.16} * 1 = \frac{18778508.36}{39259.84} = \\ &= 4783.14 \text{ H} \end{aligned}$$

7- Burovchi moment

$$M_{bp} = \frac{P_z * D}{2 * 100} = \frac{4783.14 * 250}{200} = 5978.9 \text{ Hm}$$

8- Kesish quvvatini xisoblash


$$N = \frac{P_z * V_x}{1020 * 60} = \frac{4783.14 * 277.38}{61200} = 18.55 \text{ kvT}$$

9- Asosiy kesish vaqti


$$T_a = \frac{l}{S * n} = \frac{260}{0.1 * 315} = 8.25 \text{ min}$$



Operation Navigator-Geometry “Milling Tol-5 Parameters” orqali abrabotka qilish jarayoni(rasm-7). 01D50RS li frezimiz ishi. “Feeds and Speeds” buyrigi orqali tezlik beramiz frezir aylanishi 5000 ayl/min, harakatlanish tezligi 3000mm/min ga teng(rasm-8).




Rasm-7: “Milling Tol-5 Parameters”




Rasm-8: “Feeds and Speeds”

50D5R li frezerimiz ishni yakunlagach to‘plangan matiriallarimiz quyudagi holatda bo‘ladi(rasm-8, rasm-9):




Rasm-8: 50D5R li frezer ishni




Rasm-9: 50D5R li frezer ishni

Biz bu ishni ya’ni programmani 1D50R5 nomi bilan saqlab qo‘yamiz[14]. Dasturning ish vaqti 4 soat 11 min ni tashkil etadi.

Endi 16D0,8R li frezerda amalga oshiriladi(rasm-10). 16D0,8R li ferer ishini yakunlagandan keyin zagatovkamiz quyidagi holatga keladi(rasm-11):




Rasm-10: 16D0,8R li frezer




Rasm-11:16D0,8R li frezer ishini yakuni

Bunga ham tezlik beramiz biz DSP xom ashyosidan zagotovka olganimiz uchun bizga katta tezlik bilan ishlash imkoni balandroq. Ya'ni biz frezer tezligini qanchalik baland bersak ham dastgohimizga va frezerimizga unchalik ziyon yetmaydi va bizning puanson tayyorlash jarayonimiz shunchalik tez amalga oshiriladi[15]. Biz frezer aylanish tezligini 5000 ayl/in va harakat tezligini 2000mm/min deb beramiz. Dastur nomini 2D16R08 deb saqlaymiz. Dastur vaqti 14 soat 28 minut ni tashkil etmoqada. Keyingi ishimiz 5D2,5R li frezer(rasm-12)da amalga oshiriladi va bunda zagatovkamiz deyarli tayyor matritsa modeli holatiga keladi(rasm-13).



Rasm-12: 5D2,5R li frezer.




Rasm-13: Matritsa modeli holati.


Frezerni aylanish tezligi 8000aylana/min va harakat tezligi 3000 mm/min deb belgilaymiz. Bu programmani 3D5R2,5 deb saqlaymiz.

Oxirgi yakuniy dasturimiz mayda frezerda amalga oshiriladi ya'ni 2D1R li frezerda(rasm-14). Freezer aylanish tezligi 8000ayl/min, harakat tezligi 5000 mm/min deb belgilaymiz(rasm-15).





Rasm-14: 2D1R li frezer.



Rasm-15: Freezer aylanish tezligi.

Dasturimiz ish soati 3 min 3 soniyani tashkil etadi.

## Xulosa:

Maqsad, Kolosnik matritsa modelini raqamli uskuna yordamida tayyorlash ketma ketligini loyihalash yo‘li bilan toladan ajratilgan chigitlarni arrali tola ajratgich ishchi kamerasidan o‘z vaqtida chikib ketish imkoniyatini yaratib berish. Samarali ishlaydigan kolosniklarni ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

## References

1. Muradov R. va boshqalar. Jin mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish yo‘llari Monografiya. “Namangan” nashriyoti. -2016, 124 bet .
2. Omonov F.B. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik (ma’lumotnoma) nashriyot. Toshkent 2008.
3. Wang, G.H. and Li, Y.X. (2022) Development of New Ductile Iron with Super-High Thermal Conductivity and Elongation. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 462-473. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00581-7>
4. Hassan, M. (2017) Characterization of Face Sheet/Core Debonding Strength in Sandwiched Medium Density Fiberboard. *Materials Sciences and Applications*, **8**, 673-684. <https://doi.org/10.4236/msa.2017.89048>
5. Ning, B., Wu, H.B., Niu, G., et al. (2022) Cold Compression Deformation Method for reducing Residual Stress and Uniformizing Micro-Property in Ferrite Steel. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 503-511. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00563-9>
6. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, X.T. (2016) The Optimal Modeling of an Angular Position of Saw Cylinders in Single-Chamber Two Cylinders Gin.

- American Journal of Mechanical and Industrial Engineering, 1, 103-106. <https://doi:10.11648/j.ajmie.20160103.2>
7. Wang, Y.D., Zhang, L.F., Yang, W., *et al.* (2022) Effect of Nozzle Type on Fluid Flow, Solidification, and Solute Transport in Mold with Mold Electromagnetic Stirring. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 237-246. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00577-3>
  8. Azizov, S.M. and Axmedhodjaev, H. (2015) Theoretical Analysis of Gin Cylinder for Simulating Dual Saw Cylinder Chamber Gin for Increasing Wear Proof, Energy Efficient, Saving Resources. *World Journal of Engineering and Technology*, **3**, 91-99.
  9. Azizov, S., Ibrohimov, M., Uzoqov, F. and Mirzakarimov, M. (2021) The Modelling and Introductions of New Type Ribs of Lattice of the Two Cylinder of Gin. *E3S Web of Conferences*, **273**, Article ID: 07020. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202127307020>
  10. Jiang, D.B., Zhang, L.F. and Wang, Y.D. (2022) Effect of Mold Electromagnetic Stirring on Solidification Structure and Solute Segregation in Continuous Casting Bloom. *Journal of Iron and Steel Research International*, **29**, 124-131. <https://doi.org/10.1007/s42243-021-00702-2>
  11. Briseno, J. and Casanova-del-Angel, F. (2021) Fracture Mechanics on Aluminum Specimens. *World Journal of Mechanics*, **11**, 237-257. <https://doi.org/10.4236/wjm.2021.1112016>
  12. Mamatovich, A.S. and Abdusamat, K. (2011) Definition of Increasing the Fibre Capturing Surface of Saw Teeth of Cotton Ginning Machine through Mathematic Modelling. *World Journal of Mechanics*, **1**, 122-126. <https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017>
  13. Azizov, S., Uzoqov, F., Mirzakarimov, M. and Usmanov, O. (2021) Analysis of Namangan 77 Cotton in Production Line with Different Saw Gins for Short Fiber Yield. *E3S Web of Conferences*, **273**, Article ID: 07021. <https://doi.org/10.4236/wjm.2011.13017>
  14. Azizov, S.M. (2022) Calculation Energy of Efficiency New Ginning Machine. *Journal: Engineering*, **14**, 163-172. <https://doi.org/10.4236/eng.2022.144016>
  15. Mamatovich, A.S., Abdusamat, K. and Arras, P. (2013) The Mathematical Simulation of Brush Drums in a Dual Saw Cylinder Chamber Gin for the Purpose of Increasing the Quantity of Captured Cotton Fiber from Saw. *World Journal of Mechanics*, **3**, 58-61. <https://doi.org/10.4236/wjm.2013.31004>

## XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY TERMINLAR XUSUSIDA

**Mo‘minova Oydin Qurbonovna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n.

[aydinmuminova@mail.ru](mailto:aydinmuminova@mail.ru)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazmshohlar davlati, xususan, Jaloliddin Manguberdi davlatida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar, aynan, mansab va unvonlar tizimi to‘g‘risida manbalarga suyanilgan holda mulohaza yuritiladi. O‘sha davrda turkiy so‘zlar vazifa doirasining kengayishi, ma‘muriy-boshqaruv tizimida arab va fors leksikasining keng ishlatilganligi va ularga affikslar qo‘shilishi natijasida yangi terminlar va leksemalar yasalishi yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** mansab, unvon, nom, sulton, ustozdor, otabek, xonadon a‘zolari, hojib, tashtdor.*

XI asrning oxiri va XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar davlati gullab-yashnadi. Mamlakat ravnaqi va farovonligi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lsa, uning madaniy-ma‘naviy saviyasi jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi. Sharq renessansi markazlaridan biri bo‘lgan Ko‘hna Xorazm ham jahon tarixiga buyuk siymolarni, davlat arboblarni va jasur sarkardalarni yetkazib bergan yuksak madaniyatli davlat bo‘lib tanilgan. Xorazmshohlar davlati, xususan sulton Jaloliddin Manguberdi haqidagi ma‘lumotlar oz bo‘lsa-da, bizgacha yetib kelgan. Jaloliddin Manguberdi davlatining ma‘muriy tuzilishi, boshqarilish tartibi hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlari masalasi tarixini o‘rganish, tahlil etish mansab va unvon nomlarini o‘rganish bo‘yicha ham muhim ilmiy izlanishlar sohasi hisoblanadi. Mansab va unvon nomlarini ifodalovchi terminlar bevosita davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy tabaqa, qatlamlar jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida davlat boshqaruvidan tortib ishlab chiqarish, savdo-sotiq singari munosabatlarda muhim rol o‘ynagan. O‘zbek xonliklari orasida o‘ziga xos mavqeyega ega bo‘lgan Xorazm xonligi misolida bu masalani tadqiq qilish o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi davlatida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar, aynan, mansab va unvonlar tizimi xususida manbalarga suyanilgan holda mulohaza yuritmoqchimiz.(1)

Manbalarda e‘tirof qilinishicha, Sulton Jaloliddinga Eronning Ozarbayjon, Arron, Iroqi Ajam, Xuroson, Mozandaron, Nasa, Nishopur, Kirmon, Fors viloyatlari

Болалар фольклор қўшиқлари ривожда лапар жанри ҳам ўзига хос аҳамият касб этади. Лапарлар шунчалик оммалашган жанрки, у турли даврларда кекса ва ёшлар томонидан бирдек ижро этилган. Бу жараёнда завққа тўлган тингловчилар чапак чалиб унга жўр бўлишган. Лапарларнинг шўҳ ва рақс жўрлигида ижро этилши, завқбахш, ҳазиломуз куй усулида яратилганлиги, одатда бир, икки ва баъзан кўпчилик томонидан айтишув тарзида ижро этиб келинган ҳолатларини болалар ижросидаги кўринишларига ҳам дуч келишимиз мумкин. Лапар қўшиқлари севимли жанр сифати халқ орасидаги иқтидорли кишилар томонидан яратилиб келинган. Бугунги кунда жуда кўплаб халқ лапар қўшиқлари нотага олинган, таниқли фольклор дасталари репертуаридан кенг жой олган ва хор ижросига мослаштирилган. Шунинг учун ҳам оммавий ижро этилган халқ лапарларининг аксарияти “терма” характерига эга. Масалан, “Оқ олма, қизил олма” тўпламига кирган кўпчилик лапарлар бунинг ёрқин мисоли бўла олади.

Халқ лапарларида ҳажвий лапарлар ҳам кенг ўрин тутди. Кишиларнинг табиий нуқсонларидан тортиб, ишёқмаслик, дангасалик, андишасизлик, юлғичлик каби иллатлар устидан кулинади. Бундай лапарлар асарнинг

ижтимоий-ғоявий вазифасини ошириб, катта тарбиявий аҳамият касб этади. Муסיқа дарсларида халқ лапарларидан фойдаланишда уларга фақат бир томонлама, яъни ўқувчиларга ўргатиш ва куйлаттириш нуқтаи-назаридан ёндошиш эмас, балки улардан дарсинг муסיқа тинглаш фаолиятида фойдаланиш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек муסיқашунослигида лапар жанри анча кенг ўрганилган. Яна шундай намуналар борки, ижроси профессионал маҳоратни талаб қилади”. Шу хусусиятига кўра халқ орасида кўшиқ ижрочилари кўшиқчи, халфа, сатанг, гўянда (нахвагар), ашулакаш (ашулачи), лапарчи, ўланчи тарзида фарқланади. Кўшиқчи кўпинча тўртликларни ижро этса-да, аслида нисбатан кенгрок маънода, умуман, кўшиқ ижрочиси ва ижодкори бўлса, гўянда (нахвагар), асосан, йиғи-йўқловларни куйлашга ихтисослашган кўшиқчидир. Ашулакаш ёки ашулачи кўпинча мақом таркибидаги кўшиқларни ёки катта ашула дейилгувчи жўрсиз ижро этиладиган кўшиқни куйлай оладиганлардир. Лапарчи рақсга тушган ҳолда кўшиқ айтувчи бўлса, ўланчи тўй маросими кўшиқларини ижро этувчидир.

Маълумки, кўшиқ жанри халқимиз муסיқа ижрочилиги ва ижрочилик амалиётида кенг тарқалган ва энг оммавий жанр бўлиб ҳисобланади. Кўшиқ асосан бармоқ вазнидаги халқ оғзаки ижодиётига тегишли шеърлар билан, диапозони (паст ва юқори товушлар ораси) унча кенг бўлмаган куйлар билан айтилади. Кўшиқ жанрининг бошқа жанрлардан ажратиб турувчи энг муҳим фарқли хусусияти уни бармоқ вазнидаги тўртликлар билан **банд** ва **нақоратнинг** мавжудлигидадир. Кўшиқлар ўз мазмуни ва табиатида кўра барча мавзуларда бўлади ва исталган вақтда ижро этилиши билан ҳам характерлидир. Фольклор кўшиқчилиги санъатида болаларга аталган ва болалар ижросига мўлжалланган кўшиқлар ҳам жуда кўп бўлиб, уларнинг кўпчилиги ҳозирги кунда ҳам болалар ашула ва рақс дасталари репертуаридан тушмай келади, кўпчилиги турли байрам тадбирлари ва концертларда болалар томонидан севиб ижро қилиб келинади. Болалар фольклор кўшиқлари замонавий композиторлар учун ҳам илҳом манбаи бўлиб, композиторлар бундай кўшиқлар таъсирида янги асарлар яратишмоқда ёки уларнинг янгича вариантларини яратиш борасида ҳам самарали ижод қилиб келишмоқда. Кейинги пайтларда болалар фольклор кўшиқларини нотага олиш, алоҳида тўпламлар ҳолида нашр қилиш борасида ҳам анчагина ижобий ишлар қилинганлиги диққатга моликдир.

Болалар фольклор кўшиқлари ҳозирги кунда профессионал ва ҳатто муסיқа санъатининг энг мураккаб жанри бўлган оперларга ҳам ўз ўрнида киритилаётганлиги, уларнинг кўпчилигини хор ижросига мослаштирилган ва қайта ишланган вариантларини яратилаётганлиги уларнинг умрбоқийлиги ва чинакам халқ ижоди махсули эканлигидан далолат беради. Ўзбек халқ муסיқа

санъатидаги кўшиқчилик жанрлари таснифида булардан ташқари “Терма”, “Катта ашула”, “Ашула”, “Достончилик кўшиқлари” ҳам мавжуд бўлиб, ўтмишда бу жанрларда яратилган асарлар асосан ката кишилар ижросига мўлжаллаб ижод этилган ва ижро қилиб келинган. Лекин, шуни ҳам алоҳида таъкидлашни ўринли деб биламизки кейинги мусиқа санъати ривожидида бу жанрларда ҳам болалар ижросига мос тарзда яратилаётган ва мавжуд намуналарни асл халқона ижро услубини сақлаган ҳолда болаларбоп янгича вариантлар яратиш, мослаштириш каби ишлар муваффақиятли тарзда амалга оширилаётганлиги, болалар томонидан ашула ва “катта ашула”ларни турли байрам концертлари, танловларда муваффақиятли тарзда ижро қилинаётганлиги қувонарлидир. Республикамизда ўтказилётган “Юлдузча” кўрик танловида ёш болаларнинг анъанавий ижро жанрлари бўйича куйлаган кўшиқларини айтиш мумкин. Бу эса мусиқа дарсларида бундай ижод намуналаридан ҳам ниҳоятда усталик, эҳтиёткорлик билан фойдаланиш мумкин эканлигини кўрсатади.

Эстетик фазилатларни тарбиялаш жараёнида ўқувчиларнинг янгидан-янги маънавий эҳтиёжлари пайдо бўлади. Шу эҳтиёжларни қондиришга ҳаракат қилиш эса ўқувчида ўз олдига қўйган мақсад ва вазифаларни амалга оширишга интилиш, изланишни қарор топтиради. Бу ҳаракат боланинг ўқувчилик даврида яққол кўзга ташланади. Ўқувчилар ҳаётида мусиқа таълими алоҳида ўрин эгаллайди, уларда мусиқага бўлган қизиқиш шу даврда ниҳоят даражада жадаллашади. Бу эса ўқувчиларнинг интеллектуал, эстетик ва маънавий оламини бойитиш, ривожлантиришга хизмат қилади. Ўқувчиларнинг мусиқани ёқтириши, фольклор кўшиқлари воситасида уларни гўзаллик оламига олиб кириш, ижрочилик маҳоратларидан баҳраманд бўлиш ва уларни ўз халқининг мусиқа асарларини кадрлашга ўргатиш муҳим аҳамият касб этади. Акс ҳолда уларда енгил–елпи мусиқага қизиқиш ортиб, мумтоз мусиқий оҳанглардан узоқлашиш ҳисси пайдо бўлади.

Мусиқа таълими ва тарбияси йўлга қўйилган таълим муассасаларидаги ўқув-тарбия жараёнларини кузатиш ва тадқиқот юзасидан олиб борган изланишларимизда шу нарса аён бўлдики, мусиқа таълими ва тарбиясида, ўқувчи-ёшларни мусиқий маданиятини, эстетик фазилатларининг қай даражада шакллانганлигини белгилашда уларни мусиқани идрок этиш малакалари асосий омил бўлиб ҳисобланади. Чунки, мусиқий қобилиятлар, керакли даражадаги билим, кўникма ва малакалар мусиқани қандай, қанақа, қай тарзда идрок этилиши орқали намаён бўлади, яъни биз ўқувчининг мусиқий билим, кўникма ва малакаларини қай даражада ривожланганлигини ўқувчининг мусиқа мазмуни, моҳиятини, характери, кайфиятини, мусиқий образни, воқеяликни, муаллиф ғоясини, кечинмаларини ҳис этиши, савияси паст ва юксак ижод намунаси



бўлган асарларни фарқлаши, баҳо бериши, муносабат билдира олиши, асарларни тинглаб таҳлил қила олиш, каби кўплаб фазилатларни амалда намаён қилишларига қараб билишимиз мумкин. Бу фазилатлар эса умумий тарзда ўқувчининг мусиқий идрокини муайян даражасини белгиловчи сифатларини ташкил этади. Мусиқа дарсларида ўқувчиларни кўшиқ куйлашга ўргатиш, турли жанр, характер, мавзулардаги замонавий, фольклор кўшиқлари, композиторлик ижоди намуналари, қардош ва чет эл мусиқалари билан таништириб бориш асосан мусиқий асарни тинглаш орқали амалга оширилади. Бу жараёнда ўқувчи мусиқа саводи ёки кўшиқ куйлаш, болалар чолғуларида ижро этиш, мусиқага мос ритмик ва рақс ҳаракатларни бажариш бўлмасин аввало, мусиқа тинглайди ва сўнгра амалий фаолиятга киришади, назарий, амалий билим кўникма, малакалари ва энг муҳими мусиқани идрок этиши яъни, мусиқий идроки ривожланиб боради.

Хулоса қилиб айтганда, ёш авлодни фольклор кўшиқлари воситасида эстетик тарбиялашда мусиқани ҳиссий идрок қилишга йўналтириш энг асосий омил ҳисобланади. Мусиқа таълимида ўқувчини қизиқтириш алоҳида аҳамиятга эга. Қизиқиш ўқувчиларнинг эҳтиёжига айланса, уларнинг диққати ва фикри, ҳаёлини жамлашга катта имкон беради. Фольклор кўшиқларидан оладиган маълумотларнинг кенг қамровли бўлишини таъминлаш, ҳиссий таъсирчанликни ўстириш учун ўқувчиларнинг мусиқий маданиятини ривожлантириш зарур. Ўқувчиларга ўргатиладиган фольклор кўшиқларининг мусиқий беагаи, ундаги нола ва қочиримлардан унумли фойдаланган ҳолда халқ анъаналари, удумлари ҳамда турли маросимлар билан узвий боғлаб, ўқувчиларга сингдириш лозим.

Бухоро мусиқа фольклори намуналари таъсирчанлигини таъминловчи асосий омиллардан бири–унинг ўқувчилар ҳиссиётига тез таъсир қила олишидир. Мусиқий оҳангнинг юксак даражада эмоционаллиги, унинг инсон ҳиссиёт ҳамда кечинмаларига самарали, кучли ва чуқур таъсир эта олишида намоён бўлади. Бухоро фольклор кўшиқларини ижро этиш жараёнида сўзнинг эмоционаллиги билан биргаликда ундаги ўйноқилик, ҳаракатчанлик, эпчилликка ундаш, имо–ишоралар, товушларнинг оҳангдорлиги, чолғу созларнинг мусиқий жозибаторлиги ўқувчиларда гўзалликка бўлган интилишни шакллантиради ҳамда, эстетик тарбия воситаси бўлиб хизмат қилади. Эстетик тарбиялаш орқали ўқувчиларда маънавий–ахлоқий фазилатлар ҳам шакллантирилади[80]. Марказий Осиё халқлари орасида мавжуд бўлган ва улар томонидан яратилган афсона, ривоят ва кўшиқларда ҳам эстетик тарбия бош мезон сифатида намоён бўлган. Кўшиқнинг сеҳри, жозибаторлиги ҳатто жаҳлдор, зулмкор ҳукмдорларни ҳам шахдидан қайтарган, адолатли бўлишга ундаган.



Демак, фольклор намуналарида халқнинг эзгу ниятлари, орзу–умидлари, ахлоқий фазилатлари, анъаналари ўз аксини топган. Маънавий–ахлоқий фазилат каби унинг негизини ташкил қиладиган моддий–маънавий кадриятлар ҳам тарихий ҳодисалар сифатида халқ учун хос бўлган хусусият бўлиб, авлоддан–авлодга ўтиб, изчил давом этиб келмоқда. Фольклор намуналарида, шу жумладан, Бухоро фольклор-намуналарида ифодаланган ўғитлар, намуна кўрсатиш, ўрнак бўлиш, мурожаат қилиш, киноя, пичинг, кесатиқ каби поэтик воситалар бўлса; мусиқий оҳанг, махсус кўринишлар эстетик тарбия манбаси сифатида хизмат қилади. Фольклор кўшиқлари муҳим ижтимоий педагогик аҳамиятга эга. Жумладан, улар ўқувчиларни ёшлигиданок фойдали ишларга ўргатиш, жамият учун манфаат келтирадиган, баркамол шахс бўлиб етишишида муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Бундан ташқари, фольклор кўшиқлари ўқувчиларда юксак инсоний фазилатлар ватанпарварлик, меҳнатга муҳаббат, дўстга садоқат, одамларга ишонч туйғуларини шакллантиради. Мусиқа фольклорини ўрганиш орқали ўқувчилар маънавий кадриятларнинг таъсир кучи, халқимизнинг миллий характери, ғоявий–сиёсий, ахлоқий, эстетик, иқтисодий, ақлий, жисмоний маданият каби тушунчаларга эга бўладилар. Шунинг учун, мусиқа фольклори ўқувчиларда ахлоқий фазилатларнинг шаклланишида муҳим ўрин тутади.

### Фойдаланилган адабиёт:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора –тадбирлар тўғрисида 2017 йил 31 майдаги қарори.-Т.:Маърифат газ.2017.5-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг VMQ №222-сон “2010-2020 йилларда Номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида”Халқ сўзи газ.2010. йил 8 октябр.
3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси//-Т.; “Ўзбекистон”,-2014.-396.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” тўғрисида. «Маърифат» газетаси,2020.23-сентябр.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармони//-Т.; Маънавият газ. 2017.-56.

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИ ҲАЁТИДА МАЪНАВИЙ МАРИФИЙ ИШЛАР ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Пардаев Собит Абдивали ўғли**

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти

“Муסיқа таълими” кафедраси ўқитувчиси.

**Ахатова Меҳрангиз Шамсиддиновна**

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти

“Муסיқа таълими” йўналиши 1-босқич талабаси.

**Аннотация:** Мақолада бугунги кун глобаллашувининг ёшлар ҳаётида маънавий маърифий ишлар жараёнининг ижтимоий педагогик хусусиятлари ҳақида ва бугун кун ривожланиб бораётган жамиятимиз ёшлар онгига салбий ва ижобий таъсирлари ҳақида ёритиб берилган. Бугун кун ёшлари оммавий маданият таъсирига тушиб қолишлари қай тарзда амалга оширилаётганлиги ва ижобий ва салбий томонлари ҳам ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Маънавият, маърифат, ёшлар ҳаёти, ижтимоий ҳаёт, педагогик хусусиятлар, жамият, фуқоро-ҳаҳалла, жамоат.

## СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОЦЕССА ДУХОВНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В статье описаны социально-педагогические особенности процесса духовно-воспитательной работы в жизни молодежи, а также негативные и позитивные последствия сегодняшней глобализации для сознания молодежи в современном развивающемся обществе. Сегодня подчеркиваются плюсы и минусы того, как молодые люди знакомятся с популярной культурой.

**Ключевые слова:** духовность, просвещение, молодежная жизнь, общественная жизнь, педагогические особенности, общество, гражданин, сообщество.

## SOCIAL PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PROCESS OF SPIRITUAL EDUCATION WORKS IN THE LIFE OF NEW UZBEKISTAN YOUTHS

**Annotation:** The article deals with the social and pedagogical features of the process of spiritual enlightenment in the lives of young people and the negative and positive effects of today's globalization on the minds of young people in our developing society. The pros and cons of how today's youth are exposed to popular culture are also covered.

**Keywords:** Spirituality, enlightenment, youth life, social life, pedagogical features, society, citizen, community.

Президент Шавкат Мирзиёев томонидан “Маънавий йўналишларимиз иқтисодий йўналишлардан ўн қадам олдинда юриши керак. Ана шунда биз ҳозирда қилаётган катта-катта режаларимиз, дастурларимиз амалга ошади”, тарзида ифодаланган методологик принцип маънавий-маърифий фаолият функцияларини, ролини, ўрнини, аҳамиятини асослаб берди.

«2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси»нинг бешинчи йўналиши “Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш”, деб белгиланган. Ушбу йўналишда соҳани “янги”, сифат босқичга олиб чиқиш вазифаси масаланинг модернизацион моҳиятини белгилаб беради. Мамлакатимизда маънавий-маърифий фаолият биргина ташкилотнинг вазифаси эмас, балки барча давлат ва жамоат ташкилотларининг ижтимоий-сиёсий вазифаси штиб белгиланган. Маънавият, маданият ва санъат муассасалари маънавий-маърифий ишларнинг ижтимоий субъектлари сифатида турли йўналишларда бевосита иштирок этади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Бугунги кунда ижтимоий-маънавий муҳитни ва аҳоли турмуш шароитини яхшилаш, ёшларни турли диний экстремистик оқимлар таъсиридан асраш масаласи барчамиз учун энг асосий масала бўлиб турибди” [1] – деб айтган сўзлари ёшларни диний экстремизм ва терроризм балосидан огоҳлантиришимизда бир қатор аниқ вазифаларни белгилаб бердилар. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 январдаги 3 сонли “2016 йилда ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш, конфессиялар ва миллатлараро тотувликни мустаҳкамлашга қаратилган чора-тадбирлар Дастури” ва ва 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги ПҚ-3160 сонли қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меърий-ҳуқуқий ҳужжатларда

Белгиланган вазифаларни самарали амалга ошириш талабларини қўйди. Мамлакатимизда маънавиятни инсоннинг ўзлигини англашидаги ўрни; маънавиятнинг, инсоннинг жамият, давлат куч-қудратидаги тутган ўрни, маънавиятсиз ҳеч қачон бахт-саодат бўлмаслиги, бахт-саодатга эришиш учун умумий, миллий ғоя асосида бизнинг кўпмиллатли мамлакатимизда мустаҳкам маънавий маконни яратиш зарурлиги тўғрисидаги дастурий фикрлар изчил, босқичма-босқич рўёбга чиқмоқда. Бунда маҳалла, мактабгача таълим, умумий ўрта, олий таълим, маданият ва санъат муассасаларининг ғоявий тарбиявий ҳамкорлигига эришишлари – ижтимоий фаол инсонларни тарбиялашнинг муҳим шартидир. Бу ҳамкорлик субъектлари фаолиятининг мақсад уйғунлиги, тарбиявий таъсир объектнинг битта, (умумий)лиги, уларнинг вазифалари орасидаги умумийлик ва хусусийликнинг мавжудлигидадир. Албатта, ҳар бир ҳудуд ўзига хосликларга эга. Шу сабабли ҳар бир ҳудудда олиб бориладиган маънавий-маърифий ишларда умумийлик билан биргаликда фақат ўша ҳудудга хос бўлган хусусийлик ҳам мавжуд бўлади. Бу ҳар бир ҳудуднинг вилоят, туман, шаҳар Маънавият ва маърифат кенгашларининг иш режалари мазмуни, мақсади, шакллари, воситалари, йўналишларида акс этади. Масалан, маҳалла фуқаролар йиғинларида “маҳалла-фуқаро”, “фуқаро-фуқаро”, “фуқаро-маҳалла” шаклидаги горизонтал ва вертикал ижтимоий муносабатлар тизими амалда мавжуд. Бироқ, масаланинг ушбу ижтимоий-педагогик жиҳатини таъминлашга қаратилган методик база ҳали тўлиқ шаклланган эмас. Бунинг учун ҳар бир маҳаллада аҳолининг оилавий муҳити, ўқиши, хулқи, муносабатлари, таълим муассасаларида аҳолининг етакчи кадриятлари тизимини ўрганиш, ижтимоий фаол, нотиклик қобилятига эга фуқаро, ёшларни саралаб олиб, мақсадга йўналтириб, уларни маънавий-маърифий ишларнинг фаол субъектларига айлантириш зарур. Бунда маҳалла маънавий муҳитини, жамоатчилик фикрини шакллантириш муҳим ўрин эгаллайди. Чунки бу муҳит ўзаро горизонтал “фуқаро-фуқаро” ва вертикал “маҳалла-фуқаро” ижтимоий муносабатларида намоён бўлади ва мунтазам, объектив таъсир кўрсатади. Масалан, маҳаллаларда тегишли комиссиялар кўмагида ҳаётнинг долзарб масалаларига бағишланган давра суҳбатларининг мундарижасига маънавий эҳтиёжлар, ахлоқий меъёрларнинг шаклланиши, кийиниш маданияти, вақтдан фойдаланиш маданияти, тўймамосимларни тежамкор ўтказиш, маънавий бегоналашувнинг олдини олиш каби масалалар бўлиши мумкин. Бундай турдаги масалаларни муҳокама қилиш одатда аҳоли, ёшларни ҳаётга жараёнларни жамоавий таҳлил қилиш ва баҳолаш жараёнига қизиқтиради [2;117]. Республика Маънавият ва маърифат маркази томонидан амалга оширилган “Ҳудудларнинг маънавий-маърифий харитаси” доирасидаги

ижтимоий-педагогик тадқиқотлар давомида маҳаллаларда аҳоли, ёшларнинг актуал маънавий эҳтиёжлар иерархияси ўрганилди. Олинган натижалар мавжуд маънавий маърифий ишлар тизимини такомиллаштиришга оид қатор ижтимоий-педагогик чора-тадбирларни амалга оширишни тақозо қилиши аниқланди. Зеро, биринчидан, олиб борилаётган турли тарбиявий ишлар ўзининг қатъий, илмий асосланган ижтимоий педагогик технологик тизимига эга эмас. Иккинчидан, ёшлар билан маърифий ишларни олиб боришда оила, маҳалла, таълим муассасаларида олиб бориладиган тарбиявий ишлар амалиёти ўртасида методик номутаносибликлар бор. Бу эса маънавий тарбия учун зарур бўлган изчиллик, системалиликни ҳамда тарғибот таъсирчанлигини сусайтиради. Ёшлар хулқ-атворида “оммавий маданият”нинг таъсири сезилмоқда. Бунга уларнинг машаққатли, қаттиқ ирода, тиришқоқлик талаб қилинадиган ишларга қўл уришдан чўчишларида, ўз билими ва меҳнати билан эмас, балки ота-оналари сотиб олиб берган қимматбаҳо буюмлар билан ўзларини кўрсатишни исташларида намоён бўлмоқда. Бунинг оқибатлари ўлароқ, Ўзбекистон ижтимоий тармоқларида 2017 йил охирида трендга айланган “куёвчак”, ёки Халқаро пресс-клубнинг 2018 йил 19 март куни тилга олинган “альфонс-куёв” синдромларини келтириш мумкин. Учинчидан, туман-шаҳарларда маънавий-маърифий ишлар таъсирчан ижтимоий педагогик тизим билан таъминланган ҳолда олиб борилиши керак. Аҳоли, ёшлар ҳаёти, диди, туйғуларига самарали таъсир кўрсатиш учун уларнинг кундалик ҳаётини, уларнинг маънавий эҳтиёжларини ўрганиб, ўз кучига ишонч уйғотиш жуда муҳимдир. Бундан ташқари аҳоли, ёшлар уйда ҳам, маҳаллада ҳам, ўқув юртларида ҳам, ётоқхонада ҳам, ҳамма жойда бир хил, соғлом маънавий муҳит таъсири остида бўлиши керак. Бу эса маънавий-маърифий фаолият субъектлари фаолиятини ижтимоий-педагогик асосда технологик мувофиқлаштиришни тақозо қилади. Маънавий-маърифий ишларни ташкил қилишда ҳар бир корхона, ташкилот ва муассасанинг маънавий-маърифий ишлар бўйича раҳбар ўринбосари, масъулларининг фаолияти ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Мазкур лавозим ўзининг қатор шахсий ва касбий талабларига эга. У ўзида ташкилотчилик, юксак миллий мафкуравий онглилик, тарбия назарияси, услубияти, психологияси билимдони ва амалиётчи, миллий ва маҳаллий маданият, тарихни яхши билувчи, ижтимоий фаол устоз ва нотик бўлиши лозим. Шунингдек, у бадий тадбирлар, концертларни ўтказиш, газета, журнал, ТВ материалларидан тезкор фойдаланиш, маърузалар, суҳбатлар, конференциялар, учрашувлар, семинарлар, дискуссия, диспут, матбуот конференциялар, давра суҳбатларини ташкил қилиш, маърифий чиқишларни жамоада таҳлил қилиш, режалаштириш ва амалга оширишни назорат қилиш малакаларига ҳам эга бўлмоғи лозим. Айниқса ёшлар билан суҳбат,



учрашувларни ўтказиш, назария билан амалиётни уйғунлаштириш, кўргазмали куруллардан, айниқса, ахборот технологиялари, планшетдан фойдаланишни билиши лозим. Маънавий-маърифий ишлар муайян тамойилларга таянгандагина ўз самарасини беради. Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини белгиловчи асосий тамойиллар сирасига миллий мафкуравий йуналтирилганлик, таълим ва тарбия бирлиги, ҳаётийлик, яхлитлик, онг ва хулқ-атвор бирлиги; амалийлик, оммавийлик, талабалар ташаббусини рағбатлантириш, ижодий ҳамкорлик, ўзаро ҳурмат, бир-бирини рағбатлантириш, “оммавий маданият” таъсирига қарши маърифий кураш, узвийлик, ғоявий ва бадий тарбия омиллари таъсирининг мувофиқлашганлиги киради. Айни вақтда айрим зиёлиларимиз, ҳатто олимлар томонидан “оммавий маданият” ҳодисасига ё бефарқ, ё либерал муносабатга чорлаш ҳолатлари ҳам пайдо бўлмоқда. Фалсафа фанлари доктори В.Алимасовнинг бир чиқиши бунга мисол бўла олади. Муаллиф мақолада “Ғарбда қўлланиладиган “оммавий маданият” (mass culture) бизда ишлатиладиган “халқ маданияти”га тўғри келади”, дейди [3]. Лекин “оммавий маданият”ни бундан 50 йиллар олдин тадқиқ қилган атоқли болгар олими Богомил Райнов ўзининг “Оммавий маданият”, деган фундаментал асарида бу фикрни рад этади. “Оммавий маданият”, дейди олим, “энг аввало ва бутун моҳияти билан маданиятнинг халқчиллигини тўла инкор қилади” [4;9] Маънавий-маърифий ишлар давомида кечувчи ижтимоий педагогик жараён фуқаролар ижтимоий ҳаётини тўғри таш кил қилишни, шах сини жамоада, жамоа орали, жамоа фикри воситасида тарбиялашни тақозо этади. Бунинг учун маънавий-маърифий ишларнинг шундай шакллари топиш керакки, уларнинг ёрдамида жамият ва алоҳида олинган ҳар бир инсонга бир вақтнинг ўзида ва бир хил кучда тарбиявий таъсир кўрсатиш мумкин бўлсин. Бу эса бизни маънавий-маърифий ишларнинг миллий ва хорижий тажрибаларини муттасил ўрганиш ва самарали фойдаланишга ундайди. Дарҳақиқат, бугунги таҳликали давр миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини тинимсиз ошириб боришни талаб қилмоқда. Зеро биз ўзимизнинг пировард мақсадимизга эришиш учун замон қандай тез ва шиддат билан ўзгараётганини ҳисобга олган ҳолда, ҳар қандай ноҳуш ҳаракат ва муаммоларнинг олдини олишимиз зарурдир. Тарғибот (араб. қизиқтириш, тарқатиш) - кенг маънода, ижтимоий фаолиятнинг алоҳида тури бўлиб, аҳолининг ижтимоийсиёсий фаоллигини ошириш мақсадида илмий, бадий, ижтимоийсиёсий, миллий ғоя ва қадриятларни тарғиб этишдир. Тарғибот жараёнида фан, санъат, сиёсат ва мафкўра ютуқлари кенг оммалаштирилади, бойитилади ва янада ривожлантирилади. 2) тор маънода, мафкура ва сиёсатни тарғиб этишга қаратилган фаолият. Тарғибот илмийлик, конкретлик, объективлик, ижтимоий ҳаёт билан чамбарчас боғлиқлик

тамоийилларига асосланиш, ташкилий жиҳатдан уюшган бўлиши лозим. Тарғибот (лот. propaganda - тарқатилиши керак бўлган маълумот) - оғзаки ёки оммавий ахборот воситалари орқали муайян ғояларнинг жамоатчилик онгида оммалаштиришга йўналтирилган фаолиятдир. Ташвиқот – (араб. шавқ-завқлантириш), (лот. agitation ҳаракатга келтирмоқ)- маълум бир ижтимоий гуруҳ ёки оммани кўзланган мақсад сари фаолликка ундайдиган тарғибот фаолиятидир. Ташвиқотнинг оғзаки, нашрий ва аудио, видео турлари мавжуд бўлиб, у ғоят таъсирчан ижтимоий-сиёсий кураш воситаси ҳисобланади. Барча замон на маконларда ҳам, ўз халқи келажагини ўйлаган ҳар қандай мамлакатда аҳоли давлат томонидан олиб борилаётган сиёсат, ислоҳатлар, ўзгаришлардан хабардор қилиб борилган. Бу эса жамиятни бирлаштириш, умуммиллий мақсадлар йўлида сафарбарликни таъминлаб, давлат ва жамият бирлигига эришиш мақсадларга хизмат қилади. Ташвиқот шунингдек, одамларга таъсир ўтказиш мақсадида ёзма ва оғзаки шакллардаги ундаш, даъват қилиш, шу асосда уларнинг қалбида завқ-шавқ, муҳаббат ёки нафрат уйғотишни ўз ичига олади. Ҳозир ҳам диний экстремизм, халқаро терроризм, эгоцентризм, ватансизлик, ахлоқсизлик ғояларини янги\_ XXI аср технологиялари билан қуролланган ҳолда тарғиб этиляпти. Восита, шакл ва мақсадлар ўзгариб бораётган, турли номларда аталаётган бўлса-да, улар замирида муайян ғоялар тарғиботи ётибди. Шунинг учун бошқаларнинг тинчлигини бузиш, барқарор тараққиётга халал беришга йўналтирилган ҳамда миллий манфаатларга қарши қаратилган бундай тарғиботни вайронкор тарғибот деймиз. Замонавий тарғибот технологияларини танлашда, энг самарали йўللardan бири — бу мультимедиага ёндашувдир. Бунда маънавий-маърифий фаолият жараёнида янги ва анъанавий технологиялардан фойдаланиб мақсадга эришишни таъминлаш мумкин. Технологияларни танлашда аудиториянинг интеллектуал даражасига, тарбиявий фаолият соҳасининг ўзига хос томонларига эътибор қаратиш лозимлигини алоҳида таъкидлаш зарур. Методик жиҳатдан тарғиботчи ва тингловчиларнинг ўзаро мулоқоти икки турдаги таъсирдан иборат бўлади. Биринчи тур таъсир — тадбирнинг маълум босқичида тингловчига шу босқичдаги масалани тушунишга ёрдам берувчи йўналтирувчи саволлар берилади. Иккинчиси - масалани аниқлаштирувчи фикрлар ва ҳаракатлар усули кўрсатилади. Саволлар ва кўрсатмалар сони тақдимот материалларининг иштирокчилар томонидан ўзлаштирилишига боғлиқ равишда белгиланади. Контент-хронология методи. Психологларнинг маълумотига таянсақ, қатнашчиларнинг диққатини дастлабки дақиқа давомидагина жамлаб тура олиш мумкин. Бу вақтдан кейин уларда дастлабки пайтдаги диққат тарқала бошлайди. Шунинг учун олти дақиқа мобайнида қатнашчилар билан фаол мулоқот ўрнатиб олишга эришиш керак.

Уларнинг диққатини жамлаб тура олиш учун маърузачи риториканинг қонуниятларидан, нотиклик маҳорати сирларидан, хронологик назорат методидан хабардор бўлиши мақсадга мувофиқдир. Кейс методи. Мисоллар келтириш учун аудиторияга мурожаат қилиниши ҳам қатнашчиларнинг диққатини жамлашга ҳисса қўшади. Бунда мисол келтиришни савол тариқасида сўраш, илтимос қилиш мумкин. Демак, бундай савол-жавоб бир неча марта такрорланиши керак. Аудитория келтирган мисоллар билан маърузачи келтирган мисол нотик томонидан ўзаро таққосланиши яхши натижа беради. Бу билан воиз ва аудиториянинг фикрлашлари ўзаро бир хил эканлиги текширилади ҳамда тадбирнинг шундай зайлда бориши икки томонни ҳам руҳлантиради. Бугунги кунда тадбирларни ўтказишда дебат усулидан ҳам кенг фойдаланилмоқда. Бунда маърузачи тингловчиларни икки гуруҳга ажратиб, ўртага муаммони ташлайди ва томонлардан кўтарилган муаммонинг ечимини аниқлашни сўрайди. Воиз ҳар икки томоннинг фикрларини эшитади ва якуний хулоса чиқариб, уни баён этади. Бундай усулнинг афзаллиги шундаки, тадбирда ҳар бир қатнашчига жараённинг фаол иштирокчисига айланиш имкони берилади. Ўз фикрини ифода эта олиш ҳар бир иштирокчида катта таассурот қолдиради ва мавзунинг чуқур ўзлаштирилишига замин яратади. Рағбатлантириш. Фаол иштирокчиларни рағбатлантириш учун мукофот ташкил этиш яхши самара беради. Бунда қатнашчиларда ижобий маънодаги бахслашиш, мусобақаланиш руҳи пайдо бўлади ва бу тадбир самарадорлигини ортиради, тингловчиларда кейинги тадбирларда иштирок этиш иштиёқини уйғотади. Адекват тақдимот методи. Тадбир номи қизиқарли, содда, аниқ, ўзига жалб қилувчи бўлиши, қатнашчиларнинг ёши, касби, манфаатларига мос, маънавий-мафкуравий, тарбиявий ишлардан бирининг вазифасига кирувчи долзарб масалага бағишланиши керак. Тадбирни номлашда ўта расмийликдан, илмийлаштиришдан, узундан узок; жумлалардан қочиш керак. Чунки, расмиятчилик кишиларни тадбирдан бездиради. Мавзуни номлашда кўпроқ кундалик ҳаётимизда ишлатиладиган сўзлардан фойдаланилса, яхши самара беради. Тадбир номи кишиларни қизиқтирадиган, руҳлантирадиган бўлиши керак. Мавзуни эшитган, ўқиган киши тадбирда нималар тўғрисида мулоҳазалар юритиш кераклигини англаши ва унда муаммога дахлдорлик хисси уйғониши керак. Шунинг учун тадбир ҳақидаги эълонда энг муҳим фикрлардан иштирокчиларни хабардор қилиш зарур. Аудиторияга мослашиш методи. Қатнашчиларнинг ёши, касби тадбир давомида мисоллар келтиришда инобатга олиниши керак. Агар қатнашчиларнинг кўпчилиги ёшларни ташкил қилса, тадбир давомида яқин ўтмишдан, ёшлар бефарқ бўлмаган ва тадбирга қатнашаётган авлод бевосита гувоҳ бўлган воқеа ва ҳолатлардан мисоллар

келтирилади. Қатнашчилар ўрта ёшларда бўлса, келтириладиган мисоллар ўрта авлод вакиллари гувоҳ, бўлган воқеликлар, атрофимизда юз бераётган янгиликлардан олинади. Бунда қатнашчиларнинг касбидан келиб чиқиб мисоллар танлаш имконияти ҳам сақланади. Тадбир қатнашчилари ҳар куни кўрадиган мисоллар танланганда мулоқот самарадорлиги ортади.

Айни вақтда мамлакатимизда уюшмаган ёшларни ёт ғоялардан ҳимоя қилишга қаратилган превентив профилактика йўналишида тадқиқотлар олиб борилмоқда (А.Исманова ва бошқалар). Шу жиҳатдан бу борадаги тажриба катта қизиқиш уйғотади. Маълумки, превентив-профилактика дастурлари ижтимоий зиддиятни ҳис қилишнинг олдини олишга хизмат қилади. Чунки уларнинг ривожланиши уюшмаган ёшлар субмаданиятига салбий таъсир қилади. Ушбу дастурлар таълим муассасаларида, ёшлар клубларида, ташкилотларида, ўқув йили довомида ёки таътилда амалга оширилади. Ишнинг асосий шакли гуруҳ ишидир. Иш усуллари сифатида маслаҳат бериш, муаммоли вазиятларни қайта тиклаб, таҳлил қилиш, ахборот алмашув учрашувлари, муаммоларни муҳокама қилиш, тренинглardan фойдаланилади.

Ушбу хориж тажрибасидан фойдаланган ҳолда ёшларнинг ижтимоий-маърифий дастурларга мослашиши, ёшлар субкультурасига нисбатан ота-оналарни пелагогик маданиятини ошириш, уларга уюшмаган ёшлар маънавиятининг салбий тарафларини тушунтириш зарур бўлади.

Уюшмаган ёшлар маънавияти хусусиятларини ўрганишда асосий назарий ёндашувлар миллий ва хорижий тажрибаларда мавжуд.

Уюшмаган ёшлар субмаданияти соҳасида миллий ижтимоий ва педагогик муаммо сифатида ўрганилади. Ушбу мавзуда изланишлар олиб борган олимлар (К.Кларк, Л.Грининг, А.Хэйнс, Х.Хэйнс, Ж.Леонард, М.МакДермот) тадқиқотлари натижалари шуни кўрсатадики, Европа ва АҚШда уюшмаган ёшлар субмаданияти асосан педагогик муаммо сифатида қаралади. Бунда тарбиячиларнинг субмаданият йўналишларини яхши билишлари ва уларни ёшларга нисбатан таъсирини чуқур англаб етишлари талаб қилинади. Бундан ташқари уюшмаган ёшларнинг фикрларини ҳурмат қилиш ҳамда педагоглар ва ота-оналар ҳамкорлигини йўлга қўйиш ва субмаданиятнинг салбий жиҳатларини зарарсизлантириш вазифалари қўйилади.

Буюк Британия, Германия, АҚШ ва Канадада салбий субмаданиятлар қаторига скинхедлар, панклар, эмо ва готлар киритилган. Улар билан уч йўналишда: муқобил маърифий дастурларни ишлаб чиқиш, уюшмаган ёшлар билан мобил алоқа қилиш, ёшларнинг жамиятда ўз урнини топиши учун оила, таълим муассасаси, давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида профилактик ва превентив дастурларни қабул қилиш бўйича маърифий ишлар олиб борилади.

Уюшмаган ёшлар учун альтернатив таълим-дисциплинар дастурлар кенг тарзда АҚШ ва Канадада қўлланилади. Яъни дастурлар нафақат уюшмаган ёшларга академик билим бериш, балки уларнинг жамиятга таҳдид соладиган харакаатлар - агрессия, шафқатсизлик, вандализм таъсирини зарарсизлантиришга йўналтирилади. Асосий иш методлари: маслаҳат бериш, педагог, ижтимоий педагог, психолог ва дастур қатнашчилари билан самимий, дилдан алоқа ўрнатишга ёрдам беради ҳамда индивидуал суҳбатлар (муаммони аниқлаш ва чуқурроқ ўрганишга ёрдам беради. Дастурларнинг ўзига хосликлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин: қатнашчиларнинг кам сонлиги (10-12 киши) ўқув материалларини ўзлаштиришни енгиллаштиради, ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида дўстона муносабатлар ўрнатилишига шароит яратади; машғулотлар жадвалининг ўзгарувчанлиги (кечки машғулотлар ўтказиш йўлга қўйилганлиги қамровнинг тўлиқ бўлишига хизмат қилади; уюшмаган ёшларнинг дастурда қатнашиш давомида қўлга киритадиган касбий кўникмалари келажакда ишга жойлашиш ва жамоада ишлашда уларга ёрдам беради.

Ривожланган мамлакатларда ижтимоий педагогик фаолиятнинг самарали методларидан бири – бу ёшларни уларга қизиқ бўлган, долзарб мавзулардаги мунозараларга жалб қилиш ҳисобланади. Бундай мунозараларда иштирок этиш ёшларда позитив фикрлаш кўникмаларини ривожлантиради, ҳамда ижтимоий, маънавий, мафкуравий муаммоларни ҳал қилишда уларга турли хил манбалардан олинган маълумотларни “фильтрлаб”, ҳар тарафлама ўлчаб, қарор қабул қилишни ўргатади. Шу билан бирга ўзаро ишонч муҳити, эътиборлилик, уларнинг субмаданиятга мансублигини танқид қилмасдан қабул қилиш муҳим аҳамият касб қилади.

Альтернатив ижтимоий-педагогик дастурларга жалб этилган педагоглар маслаҳатчи, мураббий ва устоз вазифаларини бажаришади. Улар ота-оналар билан ҳамкорликда иш олиб боришади ва дастур иштирокчилари билан ҳар ҳафта машғулотлар олиб боришади. Ижтимоий педагогларнинг касбий маҳоратини ошириш мақсадида уларга ёшларнинг субмаданиятини ўрганиш бўйича ўқув курслар ташкил этилади. Бундан ташқари тажриба алмашиш мақсадида альтернатив дастур доирасида ёшлар субмаданияти аъзолари билан ишлайдиган ижтимоий ходимларнинг ўзаро ҳамкорлиги йўлга қўйилади.

Уюшмаган ёшлар билан ишлаш ижтимоий-педагогик дастурнинг бир қисми ҳисобланади. Улар томонидан ёшларнинг маданиятини ҳурмат қилиш ва қабул қилиш, уларнинг қизиқишларига эътибор қилиш, дўстона муносабат, ёшлар учун одатий бўлган муҳитда уларга ёрдам кўрсатиш, педагогик таъсирнинг мунтазам ва давомийлиги каби тамойиллар асосида фаолият олиб борилади.



Штутгартда бўлиб ўтган The 9th ISMO Symposium «Reaching the Unreachable» in Stuttgart, 2008 халқаро симпозиуми материаллари ва уюшмаган ёшлар билан ишлаш бўйича хорижий тадқиқотларнинг (A. Dixon, K. Schiffer, N. Svensson) таҳлили бу йўналишда индивидуал ва жамоавий консультация методлари қўлланилиши, ахборот-маърифий суҳбатлар олиб борилиши ва ижобий намуна методлари (ишга салбий субмаданиятларнинг собиқ аъзолари жалб этилади) қўлланилиши аниқланди. Тураржойларда соғломлаштириш ва турли хил акциялар шаклида бўлиб ўтади. Тураржойларда мутахассислар ҳамкорлиги учун ташкилий база (офис ва уюшмаган ёшлар клублари) ташкил қилинади.

Уюшмаган ёшлар гуруҳлари билан ишлашда хорижий давлатларда катта эътибор профилактик-превентив методга қаратилади. У ижтимоий-педагогик дастурлар орқали амалга оширилиб, ижтимоий бегоналашув, ёлғизлик (оила, таълим муассасаларидан ажраб қолиш) даражасини қисқартиришга қаратилган. Профилактик дастурларнинг аксар қисми («Aggression Replacement Training»; «School-based mentoring programs»; «Olweus Bullying Prevention Program», «Anti-Bullying-Programmes», «Skillstreaming», «Programmes of Peer Mediation») таълим муассасалари биноларида амалга оширилади. Бунда педагог, ижтимоий ходим ва психологлар (психологик-педагогик хизмат) бир бирига мослашиб ҳаракат қилади. Улар уюшмаган ёшлар ўқув жараёни давомида тўқнаш келадиган муаммоларни олдини олиш ва қисқартириш мақсадида профилактик ва зарур бўлганда коррекциялаш ишларини олиб боришади. Бунда асосан паст давомат, тенгдошлар ёки ўқитувчи ва ота-оналар билан мулоқотдаги конфликтлар, қийин вазиятларда муаммо ечимини топиш бўйича ижтимоий кўникмаларнинг ривожланмаганлиги, жангарилик ва вандализмда иштирок этиш, тенгдошларини кўрқитишлар каби муаммоларга алоҳида эътибор қаратилади.

Ёшлар орасида маънавий-маърифий ишларнинг хорижий тажрибасини ўрганиш ва тажрибанинг ижобий натижаларидан миллий амалиётда фойдаланиш мумкин ва зарурдир. Бу йўналишда хорижий тажрибанинг қуйидаги технологик хусусиятлари аниқланди: субмаданиятда қатнашишга олиб келиши мумкин бўлган ижтимоий бегоналашув ҳиссининг олдини олишга қаратилган профилактик-превентив дастурлар мавжуд; уюшмаган ёшлар субмаданияти аъзоларига уларнинг доимий вақт ўтказиш жойларида (оила, таълим муассасалари, ёшлар клублари ва ташкилотлари) дўстона муносабатлар ўрнатиш мақсадида психологик-педагогик ёрдам кўрсатиш амалиёти; уюшмаган ёшлар ва уларнинг ота-оналари билан индивидуал ва жамоавий консультациялар ташкил қилиш; муаммовий ҳолатларни ролларга бўлиб кўриб чиқиш; дискуссиялар ва инфорацион-маърифий суҳбатларни ташкил қилиш шулар жумласидандир.



Уюшмаган ёшларга оид муаммоларни ижтимоий педагогик ўрганиш Ўзбекистон педагогика фани олдида қўйилган долзарб ва янги йўналишдир. Бу борада тадқиқотлар олиб боришда салбий субмаданиятга аъзолигини диагностика қилиш, уюшмаган ёшлар субмаданиятининг хусусиятидан келиб чиқиб, унинг аъзоларини коррекциялаш (масалан, муайян субмаданият аъзолари билан ишлашда дунёнинг ривожланган давлатлари тажрибалари ютуқларидан фойдаланиш, янги метод ва шакллари ишлаб чиқиш). Бу чоралар нафақат чуқур илмий изланишларни, балки комплекс экспериментал тадқиқотларни талаб қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. [www.uza.uz](http://www.uza.uz). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 15 июнь куни “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизни софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқидан.
2. Қосимова З.Х. Талаба ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг педагогик асослари. (Олий ўқув юртлари маънавий-маърифий ишлари мисолида). Педагогика Фан. номз. илмий дар. олиш учун тайёрланган дисс-я. -Т. 2004. 117-б.
3. Алимасов В. Оммавий маданият ОҒУми?// “Ишонч” газетаси, 2018 йил 19 июнь.
4. Райнов Б. Массовая культура. Перевод с болгарского. – Москва, “Прогресс”, 1979. С.9.
5. Саидов У. Маданият соҳасидаги глобаллашув жараёнлари ва маънавий таҳдидлар. – Тошкент: “Akademīya”, 2011. – 56 б.

## ОЛИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРГА ИНГЛИЗ ТИЛИ ТЕЗКОР ЎҚИТИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

П.ф.д., профессор **Ибраимов Холбой Ибрагимович**

**Давронова Фотима Пирназаровна**

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,  
чорвачилик ва биотехнологиялар университети ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада рақамли технологиялар воситасида инглиз тилини ўқитиш тизимини такомиллаштириш хусусида фикр баён этилган бўлиб, муаллиф томонидан таълим сифатини ошириш ва самарадорлигини таъминлашга қўмаклашадиган методлар ўз ифодасини топган.

**Таянч сўзлар:** веб-квест, HubPages (фойдаланувчи томонидан яратилган контент портали), интернет-сервис, расмий Web-сайт, кутубхона сайти, электрон манзил, таълимий контент, таълимий ва тарбиявий контент, илмий контент.

## SOME CONSIDERATIONS ON THE ADVANTAGES OF FAST TEACHING OF ENGLISH LANGUAGE TO STUDENTS IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION

D.p.s., professor, **Ibraimov Kholboy Ibragimovich**

**Davronova Fotima Pirnazarovna**

Teacher of Samarkand state university of  
veterinary medicine, livestock and biotechnologies

**Abstract.** The article presents an opinion on the improvement of the English language teaching system with the help of digital technologies, and the methods that help to increase the quality of education and ensure its effectiveness have been expressed by the author.

**Key words:** webquest, HubPages (user-generated content portal), internet service, official website, library website, e-mail address, educational content, educational and educational content, scientific content.

## Кириш.

Давлат таълим стандартлари, соҳа бўйича адабиётлар, таҳлилидан инглиз тили ўқув курсини бўлғуси касб билан боғлашда амалий машқларни талабаларга тақдим этиш тавсия этилган. Бироқ, амалдаги дарсликларда кўрсатилган мақсадга эришиш ёки қўйилган топшириқни бажаришга қаратилган амаллар кетма-кетлиги борасида ижрочига тушунарли ва аниқ кўрсатмалар бериш ҳар доим ҳам назарда тутилмайди.

Рақамли технологиялар шароитида талабаларга инглиз тилини тезкор ўргатишда ўқитиш, ўргатиш, машғулоти ташкил қилиш методларидаги бири-бири билан боғланишлар ва уларнинг қўйилган мақсадни амалга ошириш имкониятлари анча юқори бўлиб, улар ўзида бир нечта фаол методларни бириктиради ҳамда аудитория ва аудиториядан ташқари жараёнларда босқичма-босқич ўқув мақсадларини амалга оширишга хизмат қилади.

**Асосий қисм.** Маълумки, олий таълимда инглиз тилини ўқитишда инновацион таълимнинг турли шакллари ва усулларидан фойдаланилади: таълим технологиялари, ахборот-коммуникация технологиялари, дастурлаштирилган технологиялар ва бошқалар.

Фикримизча, инглиз тилини тезкор ўқитишда билимларни тизимлаштириш ва кўргазмали намоиш этиш технологиялари сирасига маъруза-визуализация, мавзу бўйича адабиётлар рўйхатини тузиш, ўрганилаётган инглиз тилидаги матнни жадваллар, схемалар билан бойитиш, рефератлар тайёрлаш, диаграммалар, чизмалар, технологик хариталар билан ишлаш, мавзу бўйича адабиётларни тизимлаштириш, тузилган жавоб билан дастурлаштириладиган сўров киради.


Рақамли технологиялар шароитида талабаларга инглиз тилини тезкор ўргатишда уларда онг, тафаккур ва мантиқни такомиллашуви, ривожланишини таъминловчи методлардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Олий таълим мазмунида инглиз тилидан танланган ўқув материали аудитория ва аудиториядан ташқари машғулотлар унумдорлиги ва ўқитиш самарадорлигини оширади. Ўқитиш методларини танлашда ўқитувчи таълимнинг аниқ шароитида энг кам вақт сарф қилган ҳолда ўқув – тарбия вазифаларининг самарали ҳал қилинишига қаратилган энг қулай усул танлаши мақсадга мувофиқ.

Инглиз тилидаги ўқув материални идрок этишда талаба материал мазмунини тушуниш йўлида асосий кўрсатма сифатида талаба матн тузилишининг алгоритмининг қабул қилади. Масалан, инглиз тилидан талабалар билимини баҳолашда тест назорати кенг қўлланилади. Агар талабаларга рақамли технологиялар ёрдамида, масалан, Булутли технология замиридаги- тестлар

билан мурожаат этилса, бу ҳолат талабаларда катта қизиқиш уйғотади ва талабаларнинг умумий дунёқарашининг шаклланганлик даражаси билан бирга, фанга оид эгаллаган компетенцияларини аниқлашга имконият яратади.

Бугунги кунда мактабгача таълим муассасаларидан бошлаб, таълим босқичларининг барчасида рақамли технологиялардан фойдаланиш ҳолатлари кузатилмоқда. Бироқ, ушбу ишлар тизимлаштирилмаган ва дидактик тамойилларга ҳар доим ҳам риоя қилинмаган ҳолда ўтказилаётганлигининг гувоҳи бўлдик. Масалан, уй вазифаси - бу шунчаки зерикарли "мажбурий" иш эмас, балки янги изланишга ўтиш учун қизиқарли бўлган босқич бўлиб ҳисобланади. Ўқув жараёнида квестлардан фойдаланиш, шунчаки ўқув материални платформадан юклаб олиш эмас, балки вазиятли топшириқ, жумбоқ ҳолатидаги масалани ечиш, талабаларда кўпроқ қизиқиш уйғотади, билимга жалб қиладиган веб-квестлар уларнинг билим даражасини сезиларли даражада оширади.



**1-расм. Талабаларнинг ўқув жараёнида квестлардан фойдаланиши воситасида билим даражасининг ошиши**

Расмда ифодаланганидек, талабаларнинг аудитория машғулотида маърузаларни конспектлаштиришлари Интернетдан маълумот манбаи сифатида фойдаланишнинг энг оддий намунасини акс эттиради. Инглиз тилида қайта ёзишга асосланган веб-квестларни веб-қидирув деб ҳисоблаш керак эмас. Аксарият ҳолларда, веб-қидирув вазифаси сифатида машғулотларда мавзунини қайта ҳикоя қилишга рухсат берилади. Бироқ, талабалар оғзаки тақдиротининг шакли ва асл материалларнинг шаклидан сезиларли даражада фарқ қиладди, яъни, бу матн Интернетдан матн муҳарририга мурожаат этмаган ҳолда олинади.

Рақамли технологиялар шароитида талабаларга инглиз тилини тезкор ўргатиш учун таълим платформаси контенти қуйидаги ташкил этувчилардан иборат бўлиши лозим:

- **таълимий контент:** ўқув жараёнига татбиқ этилаётган мазмуннинг сифатини оширишга қаратилганлиги; ўзини-ўзи бавҳоллаш учун диагностик тизимнинг фаоллиги; таҳсил олувчиларининг ўқув фаолиятини масофавий таълим интеграцияси асосида ташкил қилиниши ва бошқалар.

- **таълимий ва тарбиявий контент:** ўқув дастурлари; семестр ва якуний аттестация бўйича маълумот; таҳсил олувчиларнинг шахсий, акмеологик, келгуси касбий фаолиятида зарур бўлган компетенцияларнинг ривожланганлигини аниқлашга мўлжалланган тестлар; педагогик фаолиятни ташкил қилиш бўйича маълумотлар; веб-квест функциялари ҳақида таъриф, умумий ва регламентлаштирилган ахборот; интернет-сервис, расмий Web-сайт, кутубхона сайти, электрон манзил, таълимий ва тарбиявий аҳамиятга эга бўлган постлар яратиш; талабаларнинг ижтимоий тармоқларда инглиз тилини ўрганиш бўйича методикалар ва бошқалар.

- **илмий контент:** илмий-тадқиқот фаолияти билан боғлиқ бўлган барча маълумотлар, дидактик тавсифга эга бўлган ва ўзида изланувчанлик компонентларини уйғунлаштирган ахборотлар.

- **мотивацион контент:** рақамли технологиялар шароитида талабаларга инглиз тилини тезкор ўргатишнинг педагогик ва психологик аспектлари; методикасининг тўрт принципи асосида таълим жараёнини ташкил қилиш каби компонентлардан иборат мазмунга эга.

Масалан, “The House of My Dream” мавзусидаги топик асосида 1-босқич талабаларига қуйидаги квест ечимини топиш лозимлиги топшириқ контентиға юкланган. Бунда ҳам таълимий ва тарбиявий ва мотивацион контент вазифалари ўз моҳиятини функционал даражада бажарган ҳисобланади.

### **The House of My Dream**

Like anybody else, I would like to live in a house that is perfect in every way. And now I will tell you about the house of my dream.

I would like my house to be somewhere in a quiet and cozy town by the sea or just in a warm and sunny place because I do not like cold and winter. My house is not very big and it is two-storeyed. It is built of bricks and painted white, and its roof is made of tiles in a bright blue color, so it looks fresh and cool even when the weather is hot.

Around my house there is a large courtyard with flower beds and a rose garden. There are also beautifully trimmed shrubs, and in the far corner of the yard there are two pines

between which a hammock is stretched. Near my house there is also a small pool with sun loungers around. The fence around the house is also made of bricks with nice wrought-iron gates.

A wide stone porch with a beautiful railing leads to the door of my house. Behind wide white double doors there is a spacious hall with walls painted beige and wrought-iron lamps on the wall and the ceiling. Nearby, there is a small beautiful hanger and a banquette to make it convenient to take off your shoes. Opposite the door there would be two armchairs and a table with fresh flowers or an elegant console.

On the ground floor of my house there is a kitchen, a dining room, and a living room. I love the Provence interior design, so the living room is spacious, with beige or white furniture, charming chandeliers made of white frosted glass, and a pastel carpet on the floor. On the windows there are curtains with large floral patterns, and by the sofa there is a coffee table made of wood. There are also several small tables for lamps and vases with fresh flowers.

The kitchen and dining room are designed in the same style as the living room. Along the wall there is a light gray kitchen set, the walls are finished with beige tiles and covered with expensive wallpaper. In the dining room there is a large table made of bleached oak, chairs with high comfortable backs, and a small elegant sofa.

On the first floor there is a bedroom and two rooms for my daughters. The younger daughter's room is made in dark pink, gray, and light brown colors. By the window there is a large desk and a convenient mirrored bookcase above it. Further from the window there is a large suede sofa and a comfortable pink beanbag. On the opposite wall there is a TV-set.

My elder daughter is a teenager, so she chose peach, white, and turquoise for her room. In her room there is a wide single bed, a comfortable desk, a wardrobe, a window sill with pillows to admire the view from the window, a mirror, and an easel because she is fond of drawing. As for our bedroom, it is also Provence-designed, but it looks more modern, with large stained glass windows, a bed with a wrought-iron back, a wooden chest of drawers, wood wall panels, and pastel curtains. From the bedroom there is a way to the large walk-in closet where my clothes and shoes are stored.

This is how the house of my dream looks like. I hope I'll have it someday.

Ушбу матн таълимий платформага юклангандан сўнг, Веб-квест топшириқлари талабанинг инглиз тилини тезкор ўзлаштиришга қаратилади. Агар илгари монотон тарздаги фойдали бўлган бепул контент жуда самарали тарзда ўзгартирилган бўлса, бугунги кунда тушунча берилган электрон матн энди электрон почта email-манзиллини тақдим этиш учун бундай жозибали мукофот эмаслигидан далолат беради. Бу эса, Интернет-маркетингда ўзининг изини қолдиради. Сўнгги йилларда ахборот технологиялари бўйича кенг оммалашган




концепция мавжуд бўлиб, у шахсий самарадорлик муаммосини ҳал қилишга ва маркетинг стратегиясини янги босқичга олиб чиқишга қодир.

Тадқиқот доирасида Веб-квест тушунчасини батафсил ўрганиб, унинг асосий принципларини ўрганишга киришдик ва изланиш фаразидан келиб чиқиб, ушбу концепция тадқиқот мақсадига мос келишини таҳлил қилдик. Аниқланишича, мазкур рақамли технология анчадан бери мавжуд бўлган технология сифатида қўлланилиб келинишига қарамасдан, унинг аксарият форматлари истеъмолчилар эҳтиёжларига жавобан ҳатти-ҳаракатларига таъсир қилишнинг экспериментал усуллари сифатида ишлаб чиқилган. Таълим тизимида мазкур технология дидактик маҳсулотларни тизимлаштириш учун мўлжалланган.

Бунинг учун ушбу браузер таълим жараёнидаги топшириқларни илмий изланиш дебчасига айлантиради. Таҳсил олувчилар бадиий қаҳрамонлар сиймоларини, ёки таниш вазиятлардаги ижтимоий ролларнинг тақсимланишини геймлар асосида ижро этиб кўришга имконият яратилади. Бунда таҳсил олувчи вазифаларни рўйхат қилиб олгач, унга мос равишда муайян стратегия режасини тузиши мумкин. Масалан, Джон Голсуорси, Даниэль Дефо, Артур Конан Дойль, Уильям Шекспир, Сомерсет Моэм, Агата Кристи, Джейн Остен, Бронте опасингиллар, Чарльз Диккенс каби инглиз классик ёзувчиларининг асарларини ўқиш учун рўйхат бўйича уларни инглиз тилида ўрганиш имконияти яратилади ва ушбу асар қаҳрамонлари иштирок этган квестларни мунозарали Дебат тариқасида ташкил қилиш мумкин. Бунда талаба ҳам асар қаҳрамонлари билан танишади, ҳам инглиз тилидаги нутқни тинглаб, эшитишга муяссар бўлади.

Масалан, WordPress-плагин Captain Up орқали амалга оширилган топшириқлар учун балл йиғишга имкон беради (масалан, инглиз тилида изоҳлаш учун, бирон объектни тавсифлаш учун ва ҳ.к.).

Инглиз тилини тезкор ўрганишда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг яхши намунаси HubPages (фойдаланувчи томонидан яратилган контент портали) бўлиб, унинг фойдаланувчилари маълум ютуқлар, масалан, ёзилган ёзувлар сони ва уларнинг сифати учун бирон нишонлар, ёки белгилар билан мукофотланади ва у одатда, онлайн ўқитишда қўлланилади.



## 2-расм. Рақамли технологиялардан фойдаланиш намуналаридан бири- HubPages контент портали кўриниши

Масалан, Disqus деб номланувчи шарҳлар блогда фойдаланувчиларни интеракцияга чорловчи, шарҳларга ўз нуқтаи назарингиздан ёндашишга имконият яратувчи рукн мавжуд. Унга кўра талабалар мустақил равишда ўз қарашларини ёза олишлари мумкин.

Энг яхши шарҳ учун танлов - бу талабаларни жалб қилишнинг яна бир кучли усули. Ойнинг энг яхши шарҳини танланг ва оммавий равишда (блог постида ёки ижтимоий тармоқларда) фойдаланувчига қимматли ҳиссаси (мақоми) учун миннатдорчилик билдириш ва бонус (мукофот) билан тақдирланг. Бундай танловлар фойдаланувчиларни батафсил шарҳлар ёзиш учун жалб қилиниши мумкин.

Муҳим маълумотларни жойлаштириш, фойдаланувчи томонидан яратилган таркибни яратиш ёки сўровнома ўтказиш учун ҳам таълим жараёнида фойдаланиш мумкин.

Талабалар маълумотларни йиғиш, танлаш ва уларни қайта ишлашда ижодий веб-квестлар билан ишлаш кўникмаларидан фойдаланадилар. Бу квестлар дидактик маҳсулот яратишни талаб қилади. Ижодий лойиҳалар дизайн лойиҳаларига ўхшайди, аммо натижалари бўйича янада эркин ва мустақил фикрлашни талаб этади.

**Хулоса.** Демак, дидактик жараён иштирокчиларини таълим жараёнидаги қизиқишлари, мотивациясини оширишга мўлжалланган, ўқув предметини мукамал ўрганишга асос бўладиган рақамли технология турлари: булутли, веб-квест, мунозарали квестлардан фойдаланиш самарали натижалар бериши назарий жиҳатдан ўз тадқиқига эга. Рақамли технологиялар шароитида талабаларга инглиз тилини тезкор ўргатиш куйидаги талаблар асосида амалга оширилади:

талабаларда қизиқиш ва фаолликни уйғотиш;

янги ўқув материални инновацион технологиялар асосида ўзлаштиришни осонлаштириш;

ўқув материални баён этиш натижасида мавзунинг мақсади, унинг асосий мазмуни ва ўқитувчи томонидан қўйиладиган саволлар талабаларга тушунарли бўлиши учун турли геймлардан фойдаланиш;

инглиз тили ўқув курсининг мазмунига қўйиладиган асосий талаб- инглиз тили дефинициялари, конструкцияларини ўрганиш ва бошқа фанлар билан узвий алоқадорликни таъминлаш.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Муслимов Н.А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари.–Т.: 2015, -80 б
2. Pirnazarovna, D. F. (2022). DIGITAL TECHNOLOGIES IN STUDYING ENGLISH AT UNIVERSITY: TRADITIONS AND INNOVATIONS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(3), 97-100.
3. Pirnazarovna, D. F. (2022). WAYS OF FORMING DIGITAL LITERACY IN THE CONTEXT OF TEACHING ENGLISH. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(3), 55-57.
4. Davronova, F. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN RAPID ACQUISITION OF ENGLISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(2), 44-47.
5. Davronova, F. (2022). EXPERIMENT-TESTING METHODOLOGY OF ON RAPID TEACHING OF ENGLISH TO STUDENTS IN THE CONDITONS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(2), 72-76.
6. Давронова, Ф. П. (2022). РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЁРДАМИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ТЕЗКОР ЎРГАТИШ МАЗМУНИ, МЕТОД, ВОСИТАЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(2), 107-116.

7. Давронова, Ф. П. (2022). ЗАМОНАВИЙ МЕТОДЛАР АСОСИДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ: Давронова Фотима Пирназаровна, Самарканд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 159-163.
8. Давронова, Ф. П., Курбанова, Н. П., & Бабаханова, К. П. (2022). РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ШАРОИТИДА ТАЛАБАЛАРГА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ТЕЗКОР ЎРГАТИШНИНГ МЕТОДИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(4), 38-43.
9. Davronova, F., Sattarova, G., & Bekmurodova, M. (2020). The importance of usage interactive methods in teaching foreign languages. *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)*, 1(03), 47-57.
10. Давронова, Ф. П. (2022, July). ИНТЕРФАОЛ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА УСТИВОРЛИК БЕРИШ АСОСИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ТЕЗКОР ЎРГАНИШ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 11, pp. 20-32).

## WORLD CULTURAL DIVERSITY IN IMPROVING MULTICULTURAL COMPETENCIES

**Mamadaliyev Abdumajit Mamosolievich,**

Tashkent state pedagogical university  
named after Nizami, Dean of Foreign  
Languages Faculty, PhD, associate-professor

***Abstract:** The article is devoted to the role of world cultural diversity in the formation and improvement of multicultural competencies necessary for a modern person. It is stressed that language is not only a neutral tool for the communication of ideas, but it takes part in the production of thought.*

***Key words:** cultural diversity, analysis, connections, perception, reduction, opportunity, communication*

One of the most effective approaches in understanding the cultural diversity of the world, the formation and improvement of multicultural competencies necessary for a modern person, in our opinion, is a textual approach. With this approach, attention is paid to the relationship between language and culture. Various language constructions are the basis for broadcasting messages, thus forming a cultural field, relationships within the text and, of course, between culture and language. Everything that is fixed and reflected in the language will certainly remain in the culture. By understanding the language, one understands the culture. With this approach, structural analysis is carried out through all the variety of features and methods. The study of linguistic structures, the structure of the language, discursive practices, etc., allows you to establish deep connections, identify interdependencies in semiotic spheres and the multicultural space as a whole. "The ability to read cultural messages, to own cultural codes and passwords means the ability to be part of the cultural space, to be included in society. Culture itself acts as a special space of signs, isolated from the general social field" [4].

We share the faith of D. Crystal "in the fundamental value of multilingualism as a necessary means of communication on a global scale" [2, p. 21]. But we believe that languages are not only means of communication, but also "a means of penetrating into the mental space of a foreign culture" [7, p. 107]. If languages were just simple channels for transmitting information under different sound design, then they could easily replace each other, and their reduction to one language would be a good result for humanity. To ensure good communication between people, one language is really enough. But language is not only a neutral tool for the communication of ideas,

language takes part in the production of thought. To a certain extent, every time we perceive and think about this or that event, we have the opportunity to transform it in language. It is very difficult to imagine the transmission of human thought in the situation of a single language, since the needs of human thinking and perception always exceed the possibilities of expressing one particular language. Therefore, it is necessary to support the diversity of languages, the diversity of cultures. There are no languages, on the one hand, and cultures, on the other, but there are languages-cultures [12]. Language is "the contribution of every nation to the common treasury of mankind." Lost languages can never be revived from non-existence. Their conservation is as important as the preservation of the environment and endangered species. Awareness of the importance of this issue has led to the creation of many international organizations whose mission is to record and preserve for posterity the largest number of endangered languages [2].

We believe that one of the ways to preserve the cultural diversity of the world is tourism, so it is necessary to improve intercultural communication in this area. To this end, it is necessary to strengthen the role of foreign languages and foreign language communicative competence in the curricula of tourism universities as a significant component of a graduate's complex of multicultural competencies.

This strengthening must be carried out both quantitatively and qualitatively:

- Firstly, teaching foreign languages should be carried out on the basis of a multilingual approach. In the explanatory dictionary of social science terms N.E. Yatsenko (1999), multilingualism is interpreted as "multilingualism, the use of several languages within a certain social community (primarily the state); the use by an individual (group of people) of several languages, each of which is chosen in accordance with a specific communicative situation". Since the tourism business is a social community that is characterized by specific communication situations with representatives of different countries and cultures, we believe that a multilingual approach in professional tourism education should be to provide students with the opportunity to study several foreign languages at the university at the same time, which will be useful in their future professional activities. Students need to be provided with the means of various language systems, with different levels of their mastery;

- secondly, you need to understand that for people of tourism specialties, knowing the language as a means of elementary communication is not enough. They need "a living language that lives in the world of its speakers", and "studying it without knowing this world ... deprives a tourist industry employee of the opportunity to use this language as a means of communication" [2, p. 127]. In our opinion, today in tourism education it is especially important to implement the relationship between language and culture, to emphasize it, to explain to students that to speak a foreign



language means to be familiar with the culture of another people, to be able to feel it, to understand the cultural characteristics of representatives of different regions and countries, their motives. behavior. This is what ensures the possibility of successful international and intercultural interaction and communication.

It is proved that thanks to foreign languages, intelligence develops, cultural isolation is overcome, value-semantic guidelines are established, which is why we believe that on their basis a university graduate will be able to self-realize in the modern multicultural space of tourism as a subject of culture, a cultural referent.

Among the pedagogical possibilities of a foreign language in the formation of students' multicultural competence L.Yu. Danilova identifies a number of significant components:

- meaningful (the process of obtaining knowledge about the native country and the country of the language being studied contributes to the formation of students' own beliefs, their speech and language culture, provides a positive attitude towards a foreign language not only as an opportunity to communicate with representatives of other countries and understand each other, but also as a way to the way of developing multicultural competencies);

- activity (learning a language as an activity in general, as well as specific actions of students to develop the skills and abilities to use a foreign language in various types of speech activity contribute to the assertion of an active life position of students, respect for the work of other people, the adoption of norms of cultural activity);

- communicative ("interaction in which students act as participants in the process of perception and production of foreign language information in a certain situation, with a specific goal towards a certain partner" contributes to the assimilation of cultural and ethical norms of behavior, strengthening interpersonal relationships, acquiring social experience, developing responsiveness, etc. );

- motivational-value (work on the language forms a value attitude towards the future profession and a conscious positive motivation for the chosen specialty, stimulates the desire for self-realization, develops a value attitude towards knowledge in general, the desire to engage in self-education);

- intercultural (inclusion of students in intercultural communication with native speakers provides a phased implementation of the "dialogue of cultures", which contributes to a better understanding of "foreign" and native cultures);

- emotional (creating a favorable psychological atmosphere in the classroom of a foreign language helps to reveal the various positive aspects of the student's personality, develop the ability to reflect).

Thus, the researcher comes to the conclusion that a foreign language is one of the main means of developing the multicultural competence of an individual, its pedagogical capabilities are significant [1, p. 58–65].

According to E.N. Tkachuk, it is possible not only to develop the multicultural competence of students, but also to implement the idea of harmonious interaction of diverse cultures, where each is "a valuable catalyst for students to master the world culture and in-depth understanding of their own" [6, p. 109].

One cannot but agree with scientists (E.I. Passov, T.N. Tkachuk, S.G. Ter-Minasova, E.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov, E. Phipps, G. Jack, etc.), who consider foreign language culture to be the variety of spiritual and material cultural values that belongs to different peoples and is learned by students in the process of learning a foreign language. In this process, a dialogue of cultures takes place, because, entering a new foreign language space, students act as translators of their own culture, they compare and contrast them.

University graduates will literally have to carry out a dialogue of cultures (and sometimes a polylogue), as they will interact with consumers of tourism services that differ in different cultural characteristics. "Tourism, especially international tourism, is a dialogue of cultures, and for the dialogue to take place, knowledge of the language of the partner is necessary" [17]. It is well known that this knowledge can ensure the success of not only an individual employee, but the entire organization as a whole [11, p. 37]. Professional knowledge of two or more foreign languages together with traditional tourism education will allow graduates to be competitive not only in multinational, multicultural Uzbekistan, but also beyond its borders.

Foreign languages for an employee of the tourism industry (namely, languages, and not just one language) are an important "trump card in the sleeve", the main professional tool, a means of interethnic communication, intellectual and social interaction. Tourism is a multicultural environment, and in the era of globalization and informatization, knowledge of foreign languages for people working in tourism is not a luxury, but a realized necessity, an opportunity to understand well the features of the world's diversity.

From the point of view of management, the essence of the multicultural approach is that "any organization that wants to be successful must use a hierarchy of languages to describe its activities. Moreover, the language of the lower level is the language of production operations, the language of the upper level is the language in which the mission, strategy and values of the organization are formulated. In accordance with this principle, activities described in the language of one level or another should be evaluated in the language of a higher level. At the same time, any representative of the team must understand the hierarchy of languages, know how his activity correlates with

the implementation of the mission of the organization. The presence of such a hierarchy gives a common guideline for creativity to each member of the team. Its absence leads to the loss of common guidelines, resulting in the growth of communication barriers, aggravation of contradictions between departments, a decrease in the ability to innovate, and loss of efficiency" [10].

So, based on a multicultural approach in management, we believe that in the process of studying at a university, a student should master several languages at different levels:

1. The native language, the level of knowledge of which should be quite high, here special attention must be paid to the culture of speech. "Native language is a system that a person learns from infancy in parallel with the development of consciousness. Therefore, the mental and linguistic systems and the cultural attitudes associated with them are perceived by man and ethnic group as the only correct ones" [17]. And although this circumstance sometimes creates significant barriers in interethnic, intercultural dialogue, the study of foreign languages takes place on the basis of the native language by comparing and analyzing language systems and phenomena. And since mental activity is reflected adequately and more fully in the native language, the mission, strategy and values of the organization are formulated in it.

2. Foreign languages (one or two or more), which a professional needs to know and actively use, or, as they say: "to know perfectly", because these are the main means of providing foreign language communication and multicultural interaction.

What does it mean to "know perfectly"? And are there limits to "perfection"?

According to one of the fundamental concepts of excellence, this definition is interpreted as the achievement of results that satisfy all interested parties. The encyclopedia of linguistics cites the terms that exist in the English language: "acquisition" - "acquisition" (this is the "grasping" of the language, its natural assimilation) and "learning" - "conscious study", as well as "knowledge" - "knowledge of the language" and "proficiency" - "proficiency in the language". Knowing a language does not mean simply mastering linguistic and cultural information. Here it is important to be able to actively use your knowledge of the language to solve all the necessary tasks in a variety of communication situations. "Knowing a foreign language perfectly is such a degree of language proficiency when a person switches from his native language to a foreign one without tension, and native speakers of this language will not even suspect from his speech that he is a foreigner" [10]. Perfect knowledge of a foreign language for a specialist in the tourism sector, in our opinion, is a necessary knowledge of a foreign language to the extent and form of perfection to which it satisfies all interested parties for effective business. And this does not mean at all that

you need to speak a foreign language like your native language. You need to have such communicative competence that will allow you to easily understand foreign speech (receptive types of speech activity: reading, listening) within the necessary limits and switch from your native language to a foreign language (productive types of speech activity: speaking, writing) to achieve your goals.

3. "Languages of production operations" - these are some other foreign languages, knowledge of which will be sufficient at a receptive level that does not involve speech creativity. A specialist can understand foreign speech in one language by ear, but at the same time not have the skills of spontaneous oral speech, he may not perceive another foreign language by ear, but he will easily understand the information if it is presented in the form of a text.

So, we believe that modern students, along with their native language, need to study a number of foreign languages, two of which are included in the basic (mandatory) part, and the others in the variable (profile) part of the humanitarian, socio-economic cycle of the main educational program for the preparation of a bachelor . We believe that the study of English should be mandatory, since it has real opportunities to obtain the status of the main world language (the so-called lingua franca). This is the language of international communication, which is developing in three directions (native, official and foreign) and has a high rate of spread in the world (almost a quarter of the world's population already knows it to a sufficient extent) [3, p. 21].

The second compulsory foreign language can be French, Spanish, German, Chinese, Arabic, Korean i.e. the language of the main tourist destinations and flows from and to our country. As an optional part, students should be offered to study various other languages at will, which may be useful for students for future functioning in the conditions of international cooperation in specific regions. It is necessary to draw students' attention to the fact that if someone wants to make a career in a particular country or region, he needs to master the language of the region or direction he has chosen as early as possible and with better quality. It should be noted that the study of this group of languages should be carried out as part of optional classes and additional professional education.

A student who studies the first foreign language (then the second and beyond) and its culture (the second culture and beyond) does not lose the linguistic competence that he had in his language and culture. And the new competence in the acquisition process is not completely independent of the previous one. The student does not acquire two foreign language ways to act and communicate. He becomes bilingual (multilingual) and learns to be multicultural. Linguistic and cultural competencies relating to each language are modified through knowledge of the "foreign" and require

awareness. As cognitive components, they are part of the complex of multicultural competencies acquired at the university and contribute to the development of a rich and complex personality, the acquisition of the ability to learn other languages and open oneself to new cultural experiences.

Thus, through the simultaneous knowledge of languages and cultures, students form and develop multicultural competencies, which consist in the ability to act adequately in different social systems of norms within the same society, as well as in different societies. People who have developed such competencies are able to better capture cultural differences, tolerantly, respectfully treat the diversity of world values, while maintaining their own identity, and, therefore, can live and work effectively in a multicultural society. It is obvious that for graduates of different directions, as future participants in intercultural dialogue, quantitative and qualitative knowledge of foreign languages and cultures will facilitate integration in a multicultural world and cooperation in the modern labour market.

## REFERENCES

1. Данилова Л.Ю. Формирование поликультурной компетенции студента (на основе иностранного языка): дис. ... канд. пед. наук. – Оренбург, 2007.
2. Зинченко В.П. Живое знание. – Самара: СГПУ РАО, 1998.
3. Книга мудрости. – СПб.: ИГ «Весь», 2011. – 128 с.
4. Козырева Н.И. Межкультурная коммуникация в содержании туристского образования: дис. ... канд. пед. наук. – Сходня, 2001.
5. Кристалл Д. Английский язык как глобальный: пер. с англ. – М.: Весь мир, 2001. – 240 с.
6. Кушевский П. Десять подходов к изучению культуры // Официальный сайт «Пространство Павла Кушевского». – URL: <http://kushevski.ru/1617>.
7. Сапожникова Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. – URL: <http://www.pseudology.org/Abel/Stranovedenie.pdf>.
8. Селевко Г.К. Изучение английского языка. Язык как носитель культуры // Официальный сайт Г.К. Селевко. – URL: <http://www.selevko.net/publikacii/182-publication.html>
9. Ткачук Е.Н. Формирование ценностного отношения студентов к иноязычной культуре // Образование и наука. – 2008. – № 4 (52). – С. 106–116. 57
10. Тюрдьо Е.А. Формирование поликультурной компетентности будущих специалистов индустрии туризма // Сборник материалов III Междунар.

науч.-практич. конф. «Наука и современность – 2010» (Новосибирск 5 июня 2010). – Новосибирск, 2010. – С. 337– 346.

11. Энциклопедия Языкознания. Рубрика Языки мира. Знать или владеть? – URL: <http://ruskiyjazik.ru/category/yazyki-mira/>
12. Alessio M., Baude O. Introduction. Diversité les langues et plurilinguisme // Culture et Recherche № 124, hiver 2010–2011. – P. 4.
13. Francis H.M. La compétence interculturelle en situation de mobilité. – URL: [http://www.igitur-archive.library.uu.nl/student-theses/2006... / Francis\\_2006](http://www.igitur-archive.library.uu.nl/student-theses/2006... / Francis_2006).



## МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МЕЪМОРЧИЛИК ВА ШАҲАРСОЗЛИК ТАРИХИ

С.Ҳаққулов

ҚаршиДУ мустақил изланувчиси.

[sarvarhaqqulov5@gmail.com](mailto:sarvarhaqqulov5@gmail.com)

**Аннотация:** Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистон маданият тарихининг таркибий қисми ҳисобланган меъморчилик ва шаҳарсозлик соҳаси тарихшунослик масаласи ёритилган.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, мустақиллик, меъморчилик, қурилиш соҳаси, тарих, тарихшунослик, меъмор, шаҳарсозлик.

**Аннотация:** В данной статье описывается историография истории архитектуры, которая считалась составной частью истории культуры Узбекистана в годы независимости.

**Ключевые слова:** Узбекистан, независимость, архитектура, строительство, история, историография, архитектор.

**Abstract:** This article describes the historiography of the history of architecture, which was considered a component of the cultural history of Uzbekistan during the years of independence.

**Key words:** Uzbekistan, independence, architecture, construction industry, history, historiography, architect.

Юртимиз истиклолга эришган дастлабки йиллардан бошлаб барча соҳаларда кенг қамровли ислоҳотлар ва янгиланишлар амалга оширилмоқда. Меъморчилик ва шаҳарсозлик соҳаси ҳам бундан мустасно эмас. Бу соҳадаги ўзгаришлар соат сайин гўзаллашиб чирой очаётган юртимиз чиройида ҳам намоён бўлмоқда. Маданият тарихининг таркибий қисми ҳисобланган меъморчилик соҳаси тарихининг ҳам ўз тарихшунослиги мавжуд бўлиб, бу муаммо шу кунга қадар ўз ечимини топмаган.

Ўзбекистонда меъморчилик соҳаси ва унинг турли даврлардаги ҳолати бўйича кўплаб ишлар эълон қилинган. Меъморчилик соҳаси тарихига бағишланган мавжуд илмий асарлар, яъни мақолалар, рисола ва монографиялар, диссертация ишлари асосан соҳа мутахассислари, санъатшунослар,

иктисодчилар томонидан бажарилаган бўлиб, уларда муаммога тарихий нуқтаи-назардан ёндашиш етишмайди.

Ўзбекистон меъморчилик маданияти мавзусига доир эълон қилинган ишларни мазмуни ва моҳияти, баён қилиш услубидан келиб чиқиб икки гуруҳга ажратиб таҳлил этиш мақсадга мувофиқ. Биринчи гуруҳга совет даври адабиётлари, иккинчи гуруҳга мустақиллик даври адабиётлари киритилади.

Ўзбекистон меъморчилик соҳасини ўрганишга жиддий киришиш асосан XX асарнинг 50-60 йилларига тўғри келади.<sup>31</sup> В.А. Лавров, В.Л.Воронена, А.В.Нилсен, Т.Ф.Қодирова кабиларнинг илмий изланишлари айнан шу даврга тўғри келади.

XX асрнинг 70 йилларида жаҳон меъморчилигининг 12 жилддан иборат тарихини яратиш ишлари олиб борилди.<sup>32</sup> Ушбу китобларнинг 4 жилдида Ўрта Осиё меъморчилиги ҳақида кенг маълумот берилади.

Ўзбекистонлик бир қатор машҳур меъморлар томонидан ўтган асрнинг 70-80 йилларида сермаҳсул изланишлар олиб борилди.<sup>33</sup> П.Ш.Зоҳидов, Т.Ф.Қодирова, Б.С.Пармузин, И.Азимов, Д.Нозилов, В.А.Нильсен кабиларнинг ишлари шулар жумласидандир.

Мустақиллик йилларида тарих фан учун кенг имкониятлар эшиги очилди. Тарихий ҳақиқатни юзага чиқариш учун барча қулай шарт-шароитлар яратилди. Фандаги янгиланиш муносабати билан тарихий воқеа-ҳодисаларга янгича ёндашишга асосан меъморчилик мавзусини ҳам мукамал тадқиқ этиш имконияти туғилди.<sup>34</sup>

Мустақиллик йилларида шаҳарсозлик соҳасига кучли эътибор қаратилиши боис меъморчилик илми бўйича эълон қилинган ишлар кўлами ҳам кегайиб борди. Меъморчилик ва қурилиш соҳаси учун мутахассис тайёрловчи ўқув юрглари талабалари учун меъморчиликнинг турли йўналишларига оид ўқув

<sup>31</sup> Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. М., 1950; Воронена В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана.М., 1965; Нильсен А.В. Архитектура Средней Азии, Ташкент, 1966; Қодирова Т., Ўзбек совет архитектураси. Т., 1966.- 47 б ва бошқалар.

<sup>32</sup> Всеобщая история архитектуры (ВИА) т. 1, с.348-355, гл. 8. 4. Архитектура Средней Азии. М., 1972-77;

<sup>33</sup> Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати Тошкент, Ғ.Ғулом нашриёти, 1978; Қодирова Т.Ф., Пармузин Б.С. Тошкент(Фотоальбом).-Т.: Ўзбекистон, 1979.-95 б; Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. Т.: Узбекистан, 1982; Пути развития архитектуры Узбекистана. (Сборник научных статей). Т., 1983; Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М., 1982; Нозилов Д. Халқ меъморчилиги.-Т.:Фан, 1982.-96 б.; Ҳаққулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш.-Т.: Ўқитувчи, 1983.-63 б; Назилов Д.А. Архитектура горных районов Узбекистана. Т., 1984; Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. (XIX-нач. XX в) Ташкент, Г.Гулама, 1988;

<sup>34</sup> Меъморчилик ва бинокорлик илмининг долзарб муаммолари.(Илмий ишлар тўплами) Т., 1994.-115 б; Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.-Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2002.-224 б; Асқаров Ш.Д. Архитектура Узбекистана и стран СНГ.-2012, с. 228; Аскарлов Ш. Генезис Архитектуры Узбекистана. Т.,2014.- 224 б;

қўлланма ва дарсликлар яратилди.<sup>35</sup> Уларда Ўзбекистон меъморчилик соҳасининг турли йўналишларига оид кўплаб муҳим маълумотлар бир жойга жамланган. Хусусан, уларда шаҳарсозлик соҳасининг янги поғонага кўтарилиши, меъморчилик илмидаги янги анъаналар каби масалалар таҳлил этилди. Айниқса, улар орасида М.Қ.Аҳмедовнинг Ўрта Осиё меъморчилик тарихи ўқув қўлланмасида ўлкада меъморчиликнинг вужудга келишидан то XX асргача бўлган тарихи хусусида фикр юритилади. Унда қадимги, илк ўрта асрлар, IХ-ХII асрлар, теурийлар даври, хонликлар даври ҳамда XX асар меъморчилиги ҳақида маълумотлар берилади. Муаллиф турар-жой меъморчилиги масаласига алоҳида тўхталиб ўтади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда меъморчилик масаласига бағишланган қатор илмий мақолалар эълон қилиниб борилди. Бунда айниқса “Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши” журнали саҳифаларида эълон қилинаётган мақолалар диққатга сазовордир. Масалан, журналнинг 2007 йил 3 сониди Самарқанд шаҳрининг мустақиллик даври меъморчилиги хусусида қимматли маълумотлар умумлаштирилади.<sup>36</sup> Т.Ф.Қодированинг меъморчилик тарихига бағишланган қатор мақолалари ушбу журнал саҳифаларида доимий равишда нашр этилди.<sup>37</sup> Муаллиф ўз мақолаларида Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида мустақиллик йилларида бунёд этилган қатор меъморий бинолар, уларнинг қурилиш услуби хусусида фикр юритади.

Мустақиллик йилларида меъморчилик масаласига бағишланган илмий-назарий конференциялар доимий ўтказилиб, уларда иштирокчиларнинг илмий мақолалари тўпламларда нашр этиб борилди.<sup>38</sup>

Илмий анжуман материалларида мустақиллик даври меъморчилик соҳасининг кўплаб долзарб масаласига бағишланган илмий мақолалар эълон қилинди.

<sup>35</sup> Тешабоев Р.Д. Фуқаро биноларининг меъморчилик конструкциялари ва қисмлари.-Т.:Ўқитувчи, 1992.-117 б; Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўллама,Т.: Ўзбекистон, 1995.-142 б; Ўзбекистон Республикасининг шаҳарсозлик асослари. Тошкент, 1996;Архитектура ва шаҳарсозлик тарихи. Ўрта Осиё архитектураси тарихи. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2000; Пўлатов Х., Шаҳарсозлик тарихи, ўқув қўлланма. Т., 2008;. 296 б; Миралимов М.М. Сайфиддинов С., Бабажанов М.В. Архитектура. Дарслик, Т., 2016.-316 б; ва бошқалар.

<sup>36</sup> Ўралов А.С. Самарқанд шаҳрининг мустақиллик йилларидаги архитектураси.//O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. 2007 йил, 3-сон, Б.23-28;

<sup>37</sup> Кадырова Т.Ф. Архитектура и дизайн. //Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент, 2001, № 1. С.49-53. Ўша муаллиф, Синтез архитектуры и декоративно-прикладного искусства в интерьерах здания консерватории// Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент, 2002, № 2-3. С.8-9. Ўша муаллиф, Комплекс гостиници в Бокачуле (Чарвакская зона отдыха.// Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент, 2002, № 4. С.7-8; Ўша муаллиф, “Қатағон қурбонлари” музей // Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент, 2003, № 1-2. С.3-7. Ва бошқалар.

<sup>38</sup> “Ўзбекистон архитектураси ва шаҳарсозлиги муаммолари” мавзусидаги илмий конференция материаллари. (Тошкент, 2003); “Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» мавзусидаги халыаро анжуман материаллари.(Самарқанд, 2004); Преимственность традиций и архитектуре Узбекистана” мавзусидаги илмий конференция материаллари.( Тошкент, 2007) ва бошқалар.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда меъморчиликнинг ландшафт соҳаси ҳам янгидан йўлга қуйилиб, ривожлантирилиб борилмоқда. Шу боис кейинги йилларда меъморчиликнинг ушбу йўналишини ўрганишга бағишланган кўплаб, илмий ишлар эълон қилинди. Л.А.Одилов, Д.У.Исамухаммедов, К.Д.Рахимов, А.С.Уралов, Н.В.Дробченко кабиларнинг ишлари шу мавзу ҳақидадир. Масалан, Л.А.Одиловнинг китобида ландшафт меъморчилигини ҳозирги замон шароитида йўлга қуйиш масаласи, шаҳар кўкаламзорлаштириш тизими, шарқ мамлакатлари боғ-парк санъати, замонавий ландшафт меъморчилигининг асосий тенденциялари, парк ва боғларда кўкаламзорлаштириш тадбирлари ҳақида фикрлар билдирилади.

Ўзбекистон меъморчилигини тадқиқ этиш масаласига бағишланган қатор диссертация ишлари ҳам ҳимоя қилинди. А.С.Карпиков, И.М.Азимов, К.М.Молотов, И.М.Мамажонов, И.Азимов, З.Ш.Досметова, Т.Ф.Қодированинг диссертацияси меъморчилик фанининг у ёки бу жиҳатини ёритишга бағишланган. Улар орасида айниқса Т.Ф.Қодированинг докторлик диссертацияси диққатга сазовардир. Муаллиф ўз изланишлари давомида Ўзбекистонда меъморчилик соҳасининг турли тарихий даврлардаги ҳолатини илмий таҳлил этишга ҳаракат қилди. Тадқиқотда Россия империяси ва совет ҳукмронлиги шароитида меъморчилик соҳасини йўлга қуйилишидаги бир томонлама ёндашув, иккинчи жаҳон уруши йиллари ва урушдан кейинги йилларда бу борада амалга оширилган тадбирлар хусусида, мустақиллик шароитида янги давр талабига мувофиқ меъморчиликни йўлга қуйиш тадбирлари хусусидаги маълумотлар илмий жиҳатдан асослаб берилди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистоннинг мустақиллик даври меъморчилик тарихи мавзуси тарихшунослигини ишлаб чиқиш жараёнида маълум бўлишича, масала юзасидан тарихчилар томонидан эълон қилинган ишлар салмоғи жуда кам. Мавзу бўйича нашр этилган асарларнинг аксарияти меъморчилик соҳаси мутахассислари, санъатшуносларга тегишли. Уларда муаммога баҳо беришда асосий эътибор меъморчилик фани нуқтаи назардан ёндашганлиги аниқланди.

### **Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:**

1. “Проблемы реставрации и использования памятников архитектуры Узбекистана» мавзусидаги халыаро анжуман материаллари.(Самарқанд, 2004);
2. “Ўзбекистон архитектураси ва шаҳарсозлиги муаммолари” мавзусидаги илмий конференция материаллари. (Тошкент, 2003);

3. Азимов И. Архитектурные памятники Ферганской долины. Т.: Узбекистан, 1982;
4. Архитектура ва шаҳарсозлик тарихи. Ўрта Осиё архитектураси тарихи. Ўқув кўлланма. Тошкент, 2000;
5. Аскарлов Ш. Генезис Архитектуры Узбекистана. Т., 2014.- 224 б;
6. Аскарлов Ш.Д. Архитектура Узбекистана и стран СНГ.-2012, с. 228;
7. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.-Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2002.-224 б;
8. Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув кўллама,Т.: Ўзбекистон, 1995.-142 б;
9. Воронена В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана.М., 1965;
10. Всеобщая история архитектуры (ВИА) т. 1, с.348-355, гл. 8. 4. Архитектура Средней Азии. М., 1972-77;
11. Жилище народов Средней Азии и Казахстана. М., 1982;
12. Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати Тошкент, Ғ.Ғулом нашриёти, 1978;
13. Кадырова Т.Ф. Архитектура и дизайн. //Архитектура и строительство Узбекистана. Ташкент, 2001, № 1. С.49-53.
14. Қодирова Т., Ўзбек совет архитектураси. Т., 1966.- 47 б.
15. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. М., 1950;
16. Меъморчилик ва бинокорлик илмининг долзарб муаммолари.(Илмий ишлар тўплами) Т., 1994.-115 б;
17. Миралимов М.М. Сайфиддинов С., Бабажанов М.В. Архитектура. Дарслик, Т., 2016.-316 б;
18. Назилов Д.А. Архитектура горных районов Узбекистана. Т., 1984;
19. Нильсен А.В. Архитектура Средней Азии, Ташкент, 1966;
20. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана. (XIX- нач. XX в) Ташкент, Г.Гулама, 1988;
21. Нозилов Д. Халқ меъморчилиги.-Т.:Фан, 1982.-96 б.;
22. Преемственность традиций и архитектуре Узбекистана” мавзусидаги илмий конференция материаллари.( Тошкент, 2007)
23. Тешабоев Р.Д. Фуқаро бинокорчилиги меъморчилик конструкциялари ва қисмлари.-Т.:Ўқитувчи, 1992.-117 б;
24. Ўзбекистон Республикасининг шаҳарсозлик асослари. Тошкент, 1996;
25. Ўралов А.С. Самарқанд шаҳрининг мустақиллик йилларидаги архитектураси.//Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. 2007 йил, 3-сон, Б.23-28;
26. Ҳаққулов А. Тарихий ёдгорликларни таъмирлаш.-Т.: Ўқитувчи, 1983.-63 б;



## TA'LIMY FAOLIYATLARDA BOLALARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN O'YINCHOQLARDAN FOYDALANISH

**Ibragimova Dilshoda Komiljon qizi**

NamDU maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-kurs magistranti

**ANNOTATSIYA.** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'limiy faoliyat jarayonlarida bolalarni aqliy, sensor, jismoniy va boshqa yo'nalishlar bo'yicha rivojlantirishda o'yinchoqlardan foydalanish va ularni faoliyat jarayonida to'g'ri tanlay olish haqida fikrlar yoritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar.** Maktabgacha ta'lim, ta'limiy faoliyat, sensor, o'yinchoq, ta'limiy o'yinlar, bolalik, tarbiyachi, frontal, o'quv dastur, ko'nikma.

**АННОТАЦИЯ.** В статье описывается использование игрушек для развития детей в умственном, сенсорном, физическом и других направлениях в образовательной деятельности, организуемой в дошкольных образовательных организациях, и умение правильно их выбирать для процесса деятельности.

**Ключевые слова и выражения.** Дошкольное образование, учебная деятельность, датчик, игрушка, развивающие игры, детство, воспитатель фронтальная, учебная программа, мастерство.

**ANNATATION.** The article covers ideas about the use of toys in the development of children in mental, sensory, physical and other directions in the educational activities organized in preschool educational organizations and the ability to choose them correctly for the activity process.

**Key words and word expressions.** Preschool education, educational activity, sensor, toy, educational games, childhood, educator, frontal, curriculum, skill.

Bolalik inson hayotining eng go'zal shu bilan birga eng muhim davridir. Chunki kelajak uchun poydevor qurish aynan bolalik davridan boshlanadi. Xalqimizda: "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir,"- deb bejiz aytilmagan. Haqiqatdan ham bolalarda tevarak-atrofni anglash, nutq, hisob-kitob va boshqa bilimlar to'g'risidagi ilk tushunchalar, aynan, bolalik davridan shakllana boshlaydi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, inson umri davomida oladigan axborotlarning 70% ini



maktabgacha bo'lgan davrda oladi. Shuning uchun ham bolalarning sog'lom va bilimli yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Juda ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning eng asosiy va fundamental bo'g'iniga aylandi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga yangi bilim va ko'nikmalar ta'limiy faoliyatlar orqali berib borilmoqda. Ta'limiy faoliyat maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogning tarbiyalanuvchilarga kerakli bilimlarni frontal holda yetkazish shaklidir. Tarbiyachi kun davomida bolalarga bilim berib boradi, ularning bilimlarini boyitadi. Gigiyenik xulqi, madaniyati, nutqi, hisob-kitob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Shu jarayonlarni ochib berishda ta'limiy faoliyat asosiy rol ni o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida, asosan, ta'limiy faoliyatni jamoaviy, frontal (umumiy) va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Ta'limiy faoliyat maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun majburiydir. O'quv dastur asosida mazmuni belgilab qo'yiladi. Bolalarning kun tartibida unga o'rin va vaqt ajratiladi. Ta'limiy faoliyat tarbiyachi rahbarligida olib boriladi. Tarbiyachi faoliyat davomida bolalarga yangi bilimlar beradi, bolalar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. O'quv materiallarining mazmunini asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Ta'limiy faoliyatni har bir guruhda tashkil etiladi. Bolalar guruhlardan izchillik bilan o'sib borishi natijasida maktab ta'limiga tayyorlanib borishadi. Mana shunday izchillik bilan ta'lim berish natijasida bolalarda yangi bilimlarga qiziqish rivojlanib boradi. Ta'limiy faoliyatlar bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolaning aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuningdek, bolalarni ta'limiy faoliyatga tayyorlashda yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur. Bolalardagi aqliy va jismoniy zo'r berishlarni yengilashtirish uchun o'yin va o'yinchoqlardan ham foydalanishimiz kerak. O'yinchoqlar bola hayotida katta o'rinni egallaydi. Bolalar yoshi kichkinaligi paytida barcha o'yinchoqlarni o'ynaydi. Keyinchalik yoshi ulg'aygan sari o'yinchoqlarni saralay boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarda, asosan, kichik guruh (3-4 yosh) bolalarida qo'lda bemalol o'ynashga mo'ljallangan o'yinchoqlardan foydalanish ma'qul. Tig'li, uchli o'yinchoqlar also mumkin emas, ular bolaning hayoti uchun xavfli hisoblanadi. O'rta guruhda (4-5 yosh) bolalar o'yinchoqlar yordamida tarbiyachi bilan birgalikda rollar ijro etishlari mumkin. Kichik guruhga qaraganda o'rta guruhda harakatlar murakkablashadi. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham shakllanadi, yangi so'zlarni ham o'rganadi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalari o'zlari o'yinchoqlarni bemalol o'ynashi mumkin. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalari o'yinchoqlarni o'zlari bemalol tanlay olishadi. Qaysi qahramonga qaysi o'yinchoq mos kelishini o'zlari mustaqil

tanlab ko'rsatishadi. O'yinchoqlar turli ko'rinishga egaligi bilan bolalarni o'ziga jalb etadi. Har bir bola xarakteridan kelib chiqib turli o'yinchoq o'ynaydi. Bola qanday o'yinchoqni o'ynayotganiga qarab uni ichki dunyosini bilishimiz mumkin. Oilasida bolaga bo'lgan munosabatlarni ham bola o'yinchoq o'ynash orqali bildiradi. Shuning uchun ham ta'limiy faoliyatda va boshqa vaqtlarda bolalarga o'yinchoq tanlashda juda katta mahorat va sinchkovlik talab etiladi. O'yin bolani har jihatdan tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq orqali esa bolaning maqsadini bilib olishimiz va bu maqsadga yo'naltirishda ko'maklashishimiz mumkin. Tadqiqotchi olimlarimiz shuni aniqlashdiki, o'yinchoqlar orqali bolalar o'zlari kelajakda duch keladigan vaziyatga tushadi va bu vaziyatdan qanday chiqish mumkinligini ham shu o'yinchoqlar orqali o'rganishadi. Bolalar o'yinchoqlar bilan o'ynash orqali ham atrof-olam bilan tanishadi. Ta'limiy faoliyat jarayonidagi yangi bilimlarni ham o'yinchoqlar bilan birgalikda oson o'zlashtiradi. Bola o'yinchoq o'ynash orqali o'z dunyosini shakllantirib boradi, yangi g'oyalari bilan o'rtoqlashadi va biz shu g'oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak.

Buyuk rus olimi A.M.Gorkiy : "O'yinchoqlar, avvalambor, bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg'u tushinishning boshlanishidir". O'yinchoq bolani tevarak-atrof bilan tanishtiradi, ularni o'rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.[1]

O'yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy kuchga ega. O'yinchoqlar bola hayotida ilk hayot tasavvurlarini shakllantirib, asta-sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o'yinchoq o'ynab o'sha vaziyatga kirishadi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, bola askar yoki tank o'yinchoqini o'ynash orqali o'zini, aynan, harbiylarday tutadi, ularday harakat qilishga urinadi va shu bilan birgalikda ulardagi hissiyotlar ham rivojlanadi.

N.K.Krupskaya "O'yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega" deb yozgan.[2]

O'yinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: didaktik o'yinchoq, ta'limiy o'yinlar, teatr o'yini, sport o'yini va musiqiy o'yinlardir. Ta'limiy o'yin bolalarga o'yin orqali ta'lim-tarbiya o'rgatadi. Bunda o'yin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi. O'yin qoidasiga rioya qilish o'yin mazmunini boyitadi. Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bunday o'yinlarni ta'limiy faoliyat davomida va o'yindan tashqari vaqtda guruh yoki yakka-yakka tarzda ham tashkil etish mumkin. Tarbiyachilar ish faoliyatida o'yin shaklidan ko'proq foydalansa, ish faoliyati yana ham samaraliroq bo'ladi. Chunki har qanday o'yin bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. O'yinchoqlar bilan har kuni o'tkazadigan o'yinlarida bola ob'yektlarni va ularning xususiyatlari, o'lchamlari, shakli, rangini

ham nomlashni o'rganadi. Bolalarning nutqini rivojlanishida ham o'yinchoqlarning ahamiyati katta.

O'yin bolani bilish jarayonlarini takomilashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati tufayli bola nafaqat jismoniy, balki ruhiy tomondan ham rivojlanadi. O'yinchoqlarning ko'rinishi bolaning ruhiyatiga ham katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham bolalarga o'yinchoq tanlashda birinchi o'rinda uning tashqi ko'rinishiga, tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim. Buni yorqin ifodasi sifatida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida: "Farzandlarimiz milliy hunarmandchiligimiz asosida yaratilgan o'yinchoqlarni o'ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etgan bo'lar edik",-degan fikrlarni keltirgan.[3] Darhaqiqat, go'dakning ulg'ayib kelajakda qanday yo'ldan borishi o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o'yinchoqlar o'ynagani bilan belgilanadi. Har bir xalqning o'yinchog'i o'zining pedagogik badiiy va amaliy an'anasiga egadir. O'yinchoq hamma milat xalqlariga hurmat hissini tarbiyalashi lozim. O'yinchoq bolaga shu qadar yaqinki, bola o'yinchoqlarini sevadi, ularga bog'lanib qoladi. To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolani aqliy rivojlanishiga yordam beradi. O'yinchoqlar yordamida amalga oshiriladigan o'yinlar yordamida bolalardagi sensor qobiliyatlarni ham rivojlantirishimiz mumkin. O'yinchoqlarning inson tarbiyasidagi o'rni juda ham muhim. Har qaysi go'dak atrofni o'yinchoqlar yordamida anglashni boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarning ham asosiy faoliyati o'yin va o'yinchoqlar bilan birgalikda o'tadi. Bolalarga o'yin o'ynatish bilan birgalikda ularga ta'lim va tarbiyani ham birgalikda singdirib borishimiz lozim. Bola o'yinchoqlar yordamida yangi bilimlarni o'zlashtirishi kerak. Ta'limiy faoliyat jarayonida ham bolalarga berayotgan o'yinchoqlarimizga juda e'tiborli bo'lishimiz lozim. Eng avvalo, xonadagi va rivojlanish markazlaridagi o'yinchoqlar bolaning yoshiga, xarakter xususiyatiga qarab to'g'ri joylangan bo'lishi kerak. Tarbiyachi o'yinchoqlar orqali vataniga, xalqiga ijobiy munosabatni shakllantirishi lozim. O'yin orqali bolalarda to'g'rilik, jasurlik, xushmuomalalik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarni bir-biriga munosabatini, odob-axloqini tarbiyalovchi maktabdir. Tarbiyachi o'yin davomida rahbarlik qiladi va bolalarni jamoaga ham tayyorlab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashga o'rgatish, jismoniy tarbiya, san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy va plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallari bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi faoliyat bilan shug'ullanishi lozim. Bu faoliyatlar imkoni boricha bolalarga o'yin va o'yinchoqlar

orqali o'rgatib borilsa, albatta, yuqori natijalarga erishiladi. Bolalar ham barcha bilimlarni puxta egallaydi, bu esa aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi. Boladagi ijobiy sifatlarni shakllantirishda oilaning, ota-onalarning ham o'rni juda katta. Bolalarga o'yinchoq tanlashda ota-onalar ham e'tiborli bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodiyeva Q, "Maktabgacha yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish", T.: "O'QITUVCHI".1990
2. Крупская Н. К, "Дошкольное воспитание", 1989. С 165.
3. I.A.Karimov, "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". 156-bet
4. cyberleninka. ru sayti.

## EFFECTS ON THE REPRODUCTIVE SYSTEM OF DECEASED PREGNANT WOMEN FROM SARS-COV-2

**Abdurasulova Sh.B.**

Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

### ABSTRACT

Currently, the most urgent problem is the infection caused by the new coronavirus SARS-COV-2 and declared a pandemic by WHO on March 11, 2020<sup>5</sup>. One of the risk groups are pregnant women, so doctors around the world are increasingly paying attention to the analysis of the impact of this infection on the course of pregnancy, childbirth and perinatal outcomes. Data on 100,000 pregnant women included in a systematic review of foreign literature showed the possibility of vertical transmission in 5.3% and the birth rate of COVID-positive newborns in 8% of cases. The most frequent complications of perinatal outcomes are fetal distress syndrome (26.5-30.0%), low birth weight (25.0%), neonatal asphyxia (1.4%)<sup>2</sup>. Hospitalization of children in the intensive care unit is required in 43% of cases, and perinatal mortality is 0.35-2.2%.

9. Sung RJ, Tan HL, Karagounis L et al. Intravenous sotalol for the termination of supraventricular tachycardia and atrial fibrillation and flutter. *Am Heart J* 1995; 129: 739–48.
10. ESC guidelines 2011 on management of cardiovascular disease during pregnancy. Doi:10.1093/eurheartj/ehr 218.
11. American heart association guidelines for cardiopulmonary resuscitation and emergency cardiovascular care. *Circulation* 2005; 112: IV1–211.
12. Niebauer MJ, Brewer JE, Clung MK et al. Comparison of the rectilinear biphasic waveform with monophasic damped sine waveform for external cardioversion of atrial fibrillation and flutter. *Am J Cardiol* 2004; 93: 1495–9.
13. Ricard P, Vaici K, Rinaldi JP et al. Cardioversion of atrial fibrillation: how and when? *Eur Heart J* 2003; 5 (Suppl. H): H40–H44.
14. Botto GL, Politi A, Bonini W et al. External cardioversion of atrial fibrillation: role of paddle position on technical efficacy and energy requirements. *Heart* 1999; 82: 726–30.
15. European heart rhythm association practical guide on the use of new oral anticoagulants in patients with non-valvular atrial fibrillation. *Europace* 2013; 15: 625–51.

## "XODIMLARNING DAROMADLARI" (BHXS 19) STANDARTNI AMALIYOTDA QO'LLASH MASALALARI

**Madinabonu Rovshanovna Tolipova**

Toshkent Moliya Instituti, 1-kurs Magistr, Ta'lim yo'nalishi  
(mutaxassislik): 70410101 - Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar  
bo'yicha)

[tolipovamadina2022@gmail.com](mailto:tolipovamadina2022@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi, qo'llash doirasi, xodimlarning daromadlari, xodimlarning daromadlarini tartibga solishning huquqiy asoslari, xodimlarning daromadlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** xodimlarning daromadlari, xodim, qonunchilik, mehnat haqi, standart, kodeks.

### ABSTRACT

This article discusses the purpose of the international standard of accounting, scope, employee benefits, legal basis of regulation of employee benefits, economic significance and importance of employee Benefits.

**Keywords:** employee benefits, employee, legislation, wages, standard, code.

### KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo'yimoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo'jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda. Bu holat axborotni sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirish kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarini bilmasdan turib ushbu standartlarga o'tib bo'lmaydi.



Raqamli iqtisodiyot sharoiti davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda – MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXSlar) – bu Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha Kengashi (MHXSK) tomonidan chiqarilgan standartlar va sharhlardir. Ular quyidagilarni qamrab oladi:

(a) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari;

(b) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

19-sonli BHXS xodimlarning daromadlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qanday hisobga olish va oshkor qilish kerakligini tavsiflash uchun mo‘ljallangan.

19-sonli BHXS standarti tashkilotlar tomonidan 2013-yil 1-yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan davrlar uchun qo‘llanishi lozim. Bundan oldinroq sanadan boshlab qo‘llashga ruxsat etiladi. Agar tashkilot mazkur sharhni oldinroq davr uchun qo‘llasa, u ushbu faktni yoritib berishi lozim. 19-sonli «Xodimlarning daromadlari» Buxgalteriya hisobining xalqaro standartining maqsadi xodimlarning daromadlarini hisobga olish va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni yoritib berish tartibini belgilashdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nazariy, metodologik asoslar va mehnat munosabatlari, ish haqi, xodimlarning daromadlari bo‘yicha mahalliy va xorijiy olim-iqtisodchilarning asarlari bag‘ishlangan: V. Petgi, D. Rikardo, A. Smit, P. E. Samuelson, R. Kene, D. M. Keynes, D. B. Klark, K. Marks, A. Britton, K. Druri, A. R. Turgo, T. Yu. Bazarova, V. P. Bardovskiy, M. A. Vinokurova, H. A. Volgina, N. A. Gorelova, A. P. Egorshina, B. L. Eremina, A. K. Zaytseva, N. P. Kondrakova, V. V. Kulikov, A. Ya.



Kibanova, L. Sh. Lozovskiy, E. A. Mizikovskiy, B. A. Reysberg, O. V. Rudakova, E. H. Samorodova, E. B. Starodubtseva, T. O. Solomanidina, Ya. V. Sokolova, I. Yu. Tkachenko va boshqalar.

Maqolani yozishda guruhlash, qiyosiy va solishtirma tahlil, tarkibiy tahlil, korrelyatsion tahlil kabi usullardan foydalanildi.

### NATIJALAR

19-sonli «Xodimlarning daromadlari» Buxgalteriya hisobining xalqaro standartining maqsadi xodimlarning daromadlarini hisobga olish va ular bo'yicha ma'lumotlarni yoritib berish tartibini belgilashdan iborat<sup>39</sup>.

Xodimlarning daromadlari - bu xodimlar ko'rsatgan xizmati evaziga yoki ishdan bo'shatilishi sababidan tashkilot tomonidan taqdim etiladigan tovonlarning barcha shakllaridir.

Mazkur standart tashkilotlardan quyidagilarni tan olishni talab etadi:

(a) xodim kelgusida to'lanadigan haq evaziga xizmat ko'rsatganda - majburiyatni; va

(b) tashkilot xodim tomonidan xodimlarning daromadlari evaziga ko'rsatilgan xizmat natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy nafni sarflanganda – xarajatni

Mazkur standart qo'llanadigan xodimlarning daromadlari quyidagi asosda taqdim etiladigan xodimlar daromadlaridan iborat:

(a) tashkilot bilan individual xodimlar, xodimlar guruhi yoki ularning vakillari o'rtasidagi rasmiy dasturlar yoki boshqa rasmiy kelishuvlar asosida;

(b) tashkilotdan bir nechta ish beruvchilarning milliy, davlat, soha yoki boshqa umumiy dasturlariga to'lovlarni amalga oshirishi talab etiladigan qonunchilik talablari asosida yoki soha kelishuvlari asosida; yoki

(v) konstruktiv javobgarlikni yuzaga keltiradigan norasmiy amaliyotlar orqali. Norasmiy amaliyotlar tashkilot xodimlarning daromadlarini to'lashdan boshqa real muqobilga ega bo'lmaydigan konstruktiv javobgarlikni yuzaga keltiradi. Konstruktiv javobgarlikka misol tariqasida, tashkilotning norasmiy amaliyotlaridagi o'zgarish uning xodimlar bilan munosabatlariga qabul qilib bo'lmaydigan zararga sabab bo'lgan holatni keltirish mumkin.

<sup>39</sup> 19-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Xodimlarning daromadlari"

Xodimlarning daromadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi<sup>40</sup>:

(a) xodimlar tegishli xizmatlarni ko'rsatadigan yillik hisobot davri oxiridan keyingi o'n ikki oy ichida to'liq so'ndirilishi kutiladigan quyidagilar kabi xodimlarning qisqa muddatli daromadlari:

- ish haqlari, maoshlar va ijtimoiy himoya badallari;
- haq to'lanadigan yillik mehnat ta'tili va haq to'lanadigan mehnatga layoqatsizlik ta'tili;
- foydani bo'lishish va mukofotlar; va
- amaldagi xodimlarning nomonetar ko'rinishda olgan daromadlari (masalan, tibbiy xizmat, uy yoki avtomobil' bilan ta'minlash hamda bepul yoki imtiyozli narxlardagi tovarlar yoki xizmatlar);

(b) quyidagilar kabi mehnat faoliyatidan keyingi daromadlar:

- pensiya to'lovlari (masalan, pensiyalar va pensiyaga chiqish bo'yicha bir martalik to'lovlar); va
- mehnat faoliyatidan keyingi boshqa daromadlar, masalan mehnat faoliyatidan keyingi hayot sug'urtasi va mehnat faoliyatidan keyingi tibbiy xizmat;

(v) quyidagilar kabi xodimlarning boshqa uzoq muddatli daromadlari:

- uzoq muddat ishlaganligi uchun to'lanadigan ta'til, masalan uzoq muddatli xizmat uchun qo'shimcha ta'til yoki ijodiy ta'til;
  - yubileyga beriladigan mukofotlar yoki boshqa uzoq muddatli xizmat uchun haqlar; va
  - mehnat layoqatini yo'qotganligi uchun uzoq muddatli nafaqalar; va
- (g) ishdan bo'shatish nafaqalari.

Xodimlarning daromadlari xodimlarga yoki ularning qaramog'idagilarga yoki benefisiarlarga taqdim etiladigan hamda bevosita xodimlarga, ularning turmush o'rtoqlariga, farzandlariga yoki boshqa qaramog'idagilariga yoki boshqalarga, masalan sug'urta kompaniyalariga to'lanadigan to'lovlar (yoki shartli tovarlar yoki xizmatlar bilan ta'minlash) orqali hisob-kitob qilinishi mumkin bo'lgan xodimlarning daromadlarini o'z ichiga oladi.


Xodim tashkilotga to'liq bandlik, qisman bandlik, doimiy, bir martalik yoki vaqtinchalik asosda xizmat ko'rsatishi mumkin. Mazkur standart maqsadlari uchun, xodimlar tushunchasi direktorlar va boshqa rahbariyat xodimlarini ham o'z ichiga oladi.

<sup>40</sup> 19-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Xodimlarning daromadlari"

O‘zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi<sup>41</sup>.

Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e‘tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog‘lig‘i himoya qilinishini ta‘minlaydi, mehnat unumdorligining o‘shishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko‘maklashadi.

Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeks, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari va Jo‘qorg‘i Kenges qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Hukumatining qarorlari, davlat hokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlardan iboratdir.



1-rasm.Mehnatga haq to‘lash shakllari

Mehnat haqi - bu jamiyat kolamida milliy daromadning ishchilar va xizmatchilar o‘rtasida ular mehnatining miqdori va sifatiga muvofiq

<sup>41</sup> O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, 1-modda. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlar

taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'moli maqsadlari uchun foydalaniladigan qismidir.

Iqtisodiyot xodimlarning daromadlarining mazmuni haqida ikkita muhim nazariyani belgilaydi:

1) Xodimlarning daromadlari mehnatning narxidir. Ko'proq talab va taklif darajasi, shuningdek, boshqa bozor omillari ta'siri ostida uning hajmi va dinamikasi shakllanadi;

2) Ish haqi "ish kuchi" yoki "tovar qiymatining o'zgargan shakli- ishchi kuchi" ning puldagi qiymati hisoblanadi. Talab va taklif kabi bozor omillari va ishlab chiqarish sharoiti uning qiymatini belgilaydi.

Bozor omillarining ta'sirida ish haqining ishchi kuchi narxidan og'ishi sodir bo'ladi.

### MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Maqolaning asosiy masalasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq BHXS 19 standartning qo'llanilishi va xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish. Xodimlarning daromadlari (BHXS 19) standartni qo'llashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqish bilan belgilanishi ko'zda tutilgan.

Maqola mavzusidagi muammolar quyidagilar orqali namoyon bo'lishi mumkin:

-Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish;

-MHXSni joriy etishni hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va takliflar ishlab chiqish;

-Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga javob beradigan buxgalterlarni milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish bo'yicha chora tadbirlar tashkil etish.

### XULOSA

19-sonli BHXS xodimlarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qanday hisobga olish va oshkor qilish kerakligini tavsiflash uchun mo'ljallangan.

O'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi har qanday korxonada buxgalteriya bo'limining eng muhim faoliyatidan biri bu xodimlarning ish haqini hisobga olish ekanligi bilan izohlanadi. Mehnat va ish haqi hisobi

buxgalter ishining eng ko'p vaqt talab qiluvchi va mas'uliyat talab etadigan sohalaridan biridir. Ushbu ma'lumotlar asosida ish vaqtidan foydalanish, mehnat unumdorligi va ish haqining o'sishi va tegishli xarajatlar darajasi o'rtasidagi nisbatga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati jonli mehnatni iste'mol qilish bilan birga yuz beradi. Uning miqdori ishlagan kishi-soatlar bilan o'lchanadi. Mehnat jarayonida har bir xodimning bajargan ishi, tayyorlagan mahsuloti, iste'molchilarga ko'rsatgan xizmatlari uchun sarflangan mehnatiga haq to'lash miqdorini asoslash hamda aniqlashni tatbiq qiladigan o'zaro munosabatlar vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 53-bobida "Jismoniy shaxslarning jami daromadi" tarkibi bayon qilingan.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi<sup>42</sup> :

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, agar 381-moddaning ikkinchi qismida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga quyidagi soliq stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

T/r	Soliq obyeksi	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	12

**2-rasm. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq stavkalari.**

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 53-bob,370-modda. Jami daromadning tarkibi

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Kitoblar

1. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. Hammuallif – T.: “MOLIYA”, 2010 – 272 b.
2. M.Bonham. Generally accepted accounting practice under IFRS. Ernst & Young. USA, 2010.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A. Rizaqulov, B. Xasanov, A. Usanov, Z. Mamatov. T.: - 2004.
4. Jalolova D. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
5. Mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta. I tom. - Tashkent, 2000.
6. Mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta. II tom. - Tashkent, 2000.
7. “ Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua, Toshkent -2019, Norbekov D.E., Ochilov I.K.
8. Xalqaro buxgalteriya hisobi fanidan o‘quv-uslubiy majmua, Toshkent-2021, Tashmanov G‘.

### Vebsayt

1. <https://ifrs.academy/uz>
2. <https://www.mf.uz/uz>
3. <https://www.bss.uz>
4. <https://www.norma.uz>
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. <https://buxgalter.uz>



## BAKTERIYALARNING IKKILAMCHI BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING FARMASEVTIKADA QO‘LLANILISHI

**Shodiyeva Dildora G‘iyosovna**

SamDTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası assistenti

**Shernazarov Farrukh Farhod o‘g‘li, Tohirova Jayrona Izzatullo qizi**

SamDTU talabalari

**E-mail:** [dildoraannayeva786@gmail.com](mailto:dildoraannayeva786@gmail.com)

**Annotatsiya:** Endofit mikroorganizmlarning eng katta biotexnologik potentsiallaridan biri ulartning biologik faol moddalar sintez qilish xususiyati hisoblanadi. Endofit mikroorganizmlar jamoasisintez qiladigan ikkalamchi bioaktiv moddalar ham bir qator muhim farmasivtik xususiyatlarga ega ekanligi bilan o‘z ahamiyatiga egadur. Ushbu metabolitlar farmasivtika sohasida, qishloq xo‘jaligida, oziq-ovqat sanoatida va boshqa bir qancha sohalarda muhim ahamiyatga egadur. Jumladan, endofit mikroorganizmlar tomonidan bir qancha biologik faol metabolitlar sintez qilinishiga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, endofitlar tomonidan o‘simlikni o‘stiruvchi omillar, toksinlar, fermentlar, biotexnologik qiymatga ega bo‘lgan farmakologik faol moddalar, misol sifatida, o‘smaga qarshi vositalar antifungal agentlar ishlab chiqarishi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** *Adhatoda vasica, Costus igneus, Coleus aromaticus, Lawsonia inerims, Hyphomitset, Coelomycetes, Xylariales, Cladosporium cladosporioides, Curvularia brachyspora.*

**Abstract:** One of the greatest biotechnological potentials of endophytic microorganisms is their ability to synthesize biologically active substances. The secondary bioactive substances synthesized by the endophyte microorganism community are also important because they have a number of important pharmaceutical properties. These metabolites are important in the field of pharmaceuticals, agriculture, food industry and several other fields. In particular, we will dwell on the synthesis of several biologically active metabolites by endophytic microorganisms. In particular, endophytes have been found to produce plant growth factors, toxins, enzymes, pharmacologically active substances of biotechnological value, for example, antitumor agents, antifungal agents.

**Kirish:** Olimlar bir qator tadqiqotlar natijasida turli o‘simlik xillaridan o‘ziga xos bo‘lgan metabolitlar ajratishini aniqladilar. Misol tariqasida dorivor o‘simlik hisoblangan *Adhatoda vasica*, *Costus igneus*, *Coleus aromaticus* va *Lawsonia inermis*lardan bir qancha endofitlar ajratib olindi. To‘rtta dorivor o‘simlikdan jami 12 xil endofit zamburug‘lar qayd etilgan. Ulardan 7 tasi *Hyphomiset*larga, 4 tasi *Coelomyces*ga va bittasi *Xylariales*ga tegishli. Ro‘yxatga olingan endofit zamburug‘lardan 11 ta dominant endofitik zamburug‘lar, ya’ni *Cladosporium cladosporioides*, *Curvularia brachyspora*, *C. verruciformis*, *Drechslera hawaiiensis*, *Colletotrichum carssipes*, *Colletotrichum falctum*, *Colletotrichum falctum*, *Colletotrichum falctum*, *Colletotrichum diasporimae the Sp.* va *Xylariales* turlarining hujayradan tashqari fermentlarni, ya’ni amilaza, tsellyulaz, lakkaza, lipaz, proteazni ishlab chiqarish qobiliyati sifat jihatidan sinovdan o‘tkazildi, endofit zamburug‘larning aksariyati ijobiy natijalarni ko‘rsatdi.

**Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili:** O‘simliklardagi endofit mikroorganizmlarni o‘rganishga talab katta tezlikda oshib bormoqda, sababi ular bioaktiv moddalarni sintizlashda noyob qobiliyatga ega ekanligi hisoblanadi va bu bioaktiv moddalar ko‘plab kasalliklarga davo hamdur. Ammo bu endofitlar yashaydigan ko‘plab o‘simlik jamoalari allaqachon yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostiga kelib qolganligi bu muommolarning yechimi vaqt kutib turmasligi ko‘rsatadi. 1993-yilda paklitaksel (PTX)ni sintez qilishda bir qancha muommolar paydo bo‘la boshaladi. Paklitasel – saratonning bir qancha turlarinidavolashda ishlatiladigan kimyoterapiya dorisidur, u orqali tuxumdon saratoni, ko‘krak saratoni, o‘pka saratoni, bachadon bo‘yni saratoni va oshqozon osti bezi saratoni davolanadi. Ammo olimlar ushbu moddani sintez qiluvchi endofitni *Taxomyces andreaneani* Shimoliy Amerikaning Tinch okeani qirg‘oqlarida o‘sovchi *Taxus brevifolia* deb nomlanuvchi kichik butasimon daraxtdan topishdi. Hozirgi kunda uning tarkibidan 19 ta endofitlar aniqlangan va ularning hammasi paklitaksel va uning analoglarini sintezlash qobiliyatiga egadur [14]. Bundan tashqari ushbu tadqiqotlar cichorin A deb nomlanuvchi metabolitni sintez qila olish qobiliyati aniqlandi, bu metabolit birinchi marta endofit mikroorganizmlarda aniqlangan va u 10-metoksi 8-metil3-(prop1-en-2-il) -3,4-digidro1H-benzolizoxrom4-ol ekanligi aniqlangan. Unga cichorin A deb nom berilishiga sabab u birinchi marta *Cichorium intybus* o‘simligining ildizidan ajratib olingan [45]. Bu moddani farmasivtik sohada keng doirada foydalanish mumkin.

**Metodologiya:** Tadqiqot ishini amalga oshirishda mavzu yuzasidan barcha elektron hamda yozma manbalar o‘rganildi ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi shu bilan birga tadqiqot amaliy qismida biotexnologik, mikrobiologik, botanik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu esa urbanizatsiyaning o‘sishi va sanoatlashishning jadallashishi bilan oziq-ovqat, ekologiya kabi bir qancha

muommolarga olib keladi. Ekinlarga kimyoviy o'g'itlar bilan ishlov berish oziq-ovqat muommosini hal qilgandek ko'rinsa-da ammo bu holat atrof muhitga katta salbiy ta'sir etishi barchamizga ma'lum. Shu ma'noda bakterial endofitlardan bioo'g'it sifatida foydalanish bu o'simlikni emlash vositasidir va u o'simlik uchun kerak bo'lgan moddalar bilan ta'minlash bilan bir qatorda, o'simlikni o'sishini tezlashtiradi. Endofit mikroorganizmlardan tuproqda yashaydigan bakteriyalarga qaraganda ustunlikka ega, chunki ular o'simlikning ichki to'qimalarida yashaydi va o'simlikka bevosita ta'sir eta oladi. [49]Endofitlar atmosfera havosidan erkin azotni o'zlashtiradi, tuproq unumdorligini yaxshilaydi, erimaydigan kaliy va fosfat tuzlarini eriydigan holatga keltirib, o'simlik uchun foyda keltiradi. Endofit bakteriyalardan foydalanish qishloq xo'jaligida keng imkoniyatlarga, qulayliklarga olib keladi.

**Natija muhokama:** Saudiya Arabistonida Jidda, Tuvall shahri qirg'oq hududida o'suvchi mangrovlar galofit va sho'r suvlarda yashash, murakkab tuz filtirlash va murakkab ildiz tizimiga ega bo'lgan daraxtlar bo'lib, ularning tarkibidan ham turli endofitlar ajratib olingan va ularning qo'llanilish sohalari o'rganilgan. Jumladan, yetti xil mangrovlar olinib, ulardagi bakteriyalar o'zidan gidrolitik fermentlar ajratishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mangrovlarning ildizlari, barglaridan 46-xil rizo va -endobakteriyalar ajratib olindi. Bu bakteriya shtammlari sanoat uchun muhim bo'lgan sellyuloza, proteaza, amilaza, lipaza sintez qilishi aniqlangan. Ularning antifungal xususiyatlari ham o'rganilgan [46]. Dastlab ular identifikatsiya qilinishi natijasida ularning Gammaproteobakteriyalar ekanligi aniqlandi ya'ni y-Proteobakteriyalar 10 xil avlodni o'z ichiga oladi - *Erwinia*, *Vibrio*, *Psychrobacter*, *Aidingimonas*, *Marinobacter*, *Chromohalobacter*, *Halomonas*, *Microbulbifer* va *Alteromonas*. Xuddi shunga o'xshash dominant endofitlardan tashqari, subdominant endofit sifatida *Bacillus* avlodi endofitlari ko'rsatilgan. Keyinchalik bu ferment ishlab chiqaruvchi bakteriyalarning boshqa biologik faol moddalar sintezlashi, antifungal xususiyati ham aniqlandi. Bu bakteriyalarning biologik aktiv moddalar, golofit fermentlar sintezlash qobiliyatidan sanoat miqyosida dorivor moddalar olishda foydalanish mumkin. Mangrovlar esa bunday endofitlarning tabiiy manbalari bo'lib xizmat qiladi. Endofit mikroorganizmlarning metabolitlari farmasivtik ahamiyatidan tashqari, qishloq xo'jaligida, oziq-ovqat sanoatida ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

**Xulosa:** Endofitlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita mexanizmlar orqali o'simliklarning o'sishiga ta'sir etadi. Endofitlar mikroblarga qarshi metabolitlar, insektitsid qo'shimcha mahsulotlar, temir xelatatorlari, fosfat eruvchan birikmalar va azotni biriktirish qobiliyat orqali o'simliklarga bevosita foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, endofitlar o'simliklarning o'sishiga fitohormonlar, sideroforlar ishlab chiqarish, 1-aminosiklopropan-1-karboksilaza deaminaza ishlab chiqarish orqali

tizimli bardoshlik, induksiyalangan tizimli qarshilik va antagonizm orqali ta'sir qiladi. Bundan tashqari, oltingugurtni oksidlovchi bir nechta endofitlar ma'lum bo'lib, ular elementar oltingugurtni o'simliklar tomonidan ishlatish uchun sulfatga oksidlaydi. Bundan tashqari, endofitlar o'simlik patogenlariga to'sqinlik qiluvchi fitokimyoviy moddalarning manbaasidir. Endofitlar biologik faol ikkilamchi metabolitning yaxshi manbaidir va o'simlik metabolitlarini ishlab chiqarishga hissa qo'shadi. Ba'zi muhim va yaxshi keltirilgan mexanizmlar quyida muhokama qilinadi. Ushbu mexanizmlar o'simlikka bevosita yoki bilvosita foyda keltirishi mumkin.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Annayeva D. G. Y., Azzamov U. B., Annayev M. O. S. O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLIH. – 2022.
2. Azimovich A. U., Sultonovich B. K., Zokirovna M. M. STREPTOKOKK AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING PATOGENLIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 13. – C. 95-101.
3. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/17555>
4. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLIH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 963-972. <https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>
5. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.73050577>
6. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/35733>

7. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEKNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120.
8. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256.
9. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324.
10. Boltayev Komil Sultonovich, Jamalova Feruza Abdusalomovna, Mamarasulova Nafisa Isrofilovna, Urokov Feruz Mansurovich, & Komiljon Sultanovich. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF NEMATODA-FAUNA OF PASTURAL PLANTS IN FOREST BIOTOPES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 41–45. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/2FZQY>
11. Нарзиев , Д. ., & Шайкулов , Х. . (2023). ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ К АНТИБИОТИКАМ SALMONELLA TYPHIMURIUM, НАХОДЯЩИХСЯ В СОСТАВЕ БИОПЛЕНОК. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 60–64. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/8398>
12. Одилова Г. М. и др. Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 28 (77). – С. 70-78.
13. Karabaev, A., & Bobokandova, M. (2022). REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 50-55.
14. Одилова, Г., Мамарасулова, Н., Саидов, С., Турдиев, Ш., Холбоев, Р., & Хамраев, Г. (2022). СЫВОРОТОЧНЫЕ ИММУНОГЛОБУЛИНЫ ПРИ САЛЬМОНЕЛЛЕЗНОЙ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(11), 1197-1199.
15. Ташкенбаева Э. Н., Аннаев М., Абдиева Г. А. ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ В ИЗУЧЕНИИ КАРДИОЛОГИИ //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 4.
16. Шайкулов Х.Ш., Юсупов М.И., Одилова Г.М. КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА САЛЬМОНЕЛЛЕЗНОЙ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ// Проблемы биологии и медицины. - 2021. №5. Том. 130. - С. 141-144. DOI: <http://doi.org/>
17. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ГРУППИРОВАНИЕ НЕМАТОДОФАУНЫ ТУГАЙНЫХ РАСТЕНИЙ КС Болтаев, к. б. н., доц., СамГМИ, Самарканд ФА Жамалова, ассистент-стажер, СамГМИ, Самарканд НИ Мамарасулова,



ассистент-стажер, СамГМИ, Самарканд //ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ. – 2021. – С. 33.

18. Gadaevich, K. A., Baxtiyorovich, N. P., Mardikulovich, U. G., & Fazliddinova, B. M. (2021). Reactivity of the supraoptic, arcuate nucleus of the hypothalamus and the B-and D-basophilic cells of the adenohypophysis in the early postreanimation period. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(3), 954-957.

19. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEKNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120.

Shodiyeva, D. (2023).

20. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54-61.

21. Rasulova Mukhsina Razikovna Forensic examination of fractures of the bones of the nose // *European science review*. 2018. №7-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/forensic-examination-of-fractures-of-the-bones-of-the-nose> (дата обращения: 10.01.2023).

22. Индиаминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа // *Журнал вестник врача*. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.

23. Расулова Мухсина Розиковна, Давронов Самижон Фаттоевич Устанавление характера и оценка механизма при переломах костей носа // *Судебная медицина*. 2019. №S1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ustanavlienie-haraktera-i-otsenka-mehanizma-pri-perelomah-kostey-nosa> (дата обращения: 10.01.2023).

24. Razikovna R. M. Forensic examination of fractures of the bones of the nose // *European science review*. – 2018. – №. 7-8. – С. 162-164.

25. Расулова , М. ., Юлаева , И. ., & Шодиев , Ж. . (2023). ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 1), 78–84. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/8607>

26. Shodievich S. H., Roziqovna R. M. OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARINING O ‘RNI // *PEDAGOGS jurnali*. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 52-55.

27. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEKNOLOGIK POTENSIALI VA MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. *O ‘ZBEKISTONDA*



FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 726-732.

28. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324.

29. Хусанов Э. У., Расулова М. Р., Шайкулов Х. Ш. Особенности повреждений подъязычно-гортанного комплекса при тупой механической травме //Астана медициналық журналы. – 2022. – №. S1. – С. 262-265.

30. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEKNOLOGIK POTENSIALI VA MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 726-732.

31. Расулова М., Индиаминов С. Судебно-медицинские аспекты повреждений гортани при тупой механической травме //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 159-162.

32. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/17555>

33. Индиаминов С., Расулова М. Экспертная оценка механических повреждения органа слуха в практике судебно-медицинской экспертизы //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 152-153.

34. Rasulova M. R., Indiaminov S. I. Судебно-медицинская характеристика повреждений органов слуха //Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – №. 2. – С. 145-148.

35. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA MASHG 'ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O 'RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 25(1), 52-55.

36. Sh, S. H., & Mamarasulova, N. I. (2023). ANTIBIOTIKLAR VA ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARNI BIRGALIKDA BOLALARDAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO 'LLANISHI.

37. ЮСУПОВ, М. И., РИЗАЕВ, Ж. А., & ЗИЯДУЛЛАЕВ, Ш. Х. (2022). Esherixioz bilan kasallangan bolalarda sitokinlarning ahamiyati. *Журнал биомедицины и практики*, 7(4).

38. Мамедов , А. ., Одилова, Г. Частота обнаружения дрожжеподобные гриби рода candida с ассоциаций стафилококков. *Eurasian Journal of Academic*

*Research*, (2022). 2(11), 1098–1102. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5419>

39. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-972.

40. Odilova, G. (2023). BOLALARDA DIAREYANI KELTIRIB CHIQRUVCHI ICHAK TAYOQCHASINING XUSUSIYATLARI. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 147-151.

УДК: 616.995.1.616.995.121.

## ИТЛАРДА ЦЕНУРОЗ КАСАЛЛИГИНИ ҚЎЗГАТУВЧИСИ ЧЎЛ ХУДУДИДА МУЛЬТИЦЕПТОЗЛАР ЧЎПОН ИТЛАРИДА ТАРҚАЛИШИ.

**Б.Н.Хакимов**, в.ф.н, **О.У.Кўлдошев**, в.ф.д, **М.Б.Хакимов**, изланувчи,  
**С.А.Суванов**, докторант.

Ветеринария илмий-тадқиқот институти.

**Аннотация:** Ушбу мақола Жиззах вилоятининг Фориш тумани “Арион Капитал” масъуляти чекланган жамияти қўтонларидаги чўпон итлари мультицептозларнинг учраш даражаси ва касалликнинг олдини олиш тадбирлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Онкосфера, эхинококкоз, ценуроз, протосколекс, ареколин, гельминтлар.

**Кириш:** Республикамиз шароитида қўйларда учрайдиган гельминтознинг эпизоотологик ҳолатини ўрганиш уларга қарши куришиш чораларини ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш ҳамда энг кўп содир бўладиган ценуроз касаллиги оқибатида ўлим ва мажбурий сўйилишининг олдини олиш жойларда гўшт махсулдорлигини оширишга имкон беради. Ҳукуматимиз томонидан фермир ва масъуляти чекланган жамияти хўжаликларида қорақўлчиликни янада ривожлантиришга тўсик қилувчи омиллар ҳали мавжуд бўлиб, отарлардаги мавжуд чўпон итларнинг ўз вақтида гижжасизлантирилмаслиги бунинг натижасида қорақўлчилик фермер ва масъуляти чекланган жамиятлардаги бир ва икки ёшгача бўлган қўйларнинг нобуд бўлиши билан яқунланади.

Бир ва икки ёшли қўй калласининг ценур пуфақлари бош миясида, орқа миясида, айрим ҳолларда унинг чап томонида жойлашган бўлиб, асаб системаси фаолиятининг бузулиши, бир томонга айланиши, орқа оёқ фалажланиши белгилари билан характерланади.

Ценуроз касаллигининг қўзғатувчиси мультицепсис-мультицепсиснинг ривожланиш жараёнини ўрганиш узоқ ўтмишга бориб тақалади. Паразитнинг итлар танасида ривожланишини биринчи бор Зиболд (1854) томонидан ўрганилган. Муаълифнинг маълумотиغا кўра, мультицепсисларнинг узунлиги зарарлантиришнинг бешинчи кунда 125-300 мм гача, 20-кунига келиб эса 58,4 см.га етади. Зарарланишдан кейинги 30-кунда мультицепсислар тўлиқ етилади ва бўғинлар чиқара бошлайди. Мультицепсис гельминтини вояга етканларининг

тана (стробила) си 3,0 см дан 1 мм узунликдаги, эни 5,5 мм, 150-250 бўғиндан ташкил топган тасмасимон цистодлар.

Мультицепсислар ит, бўри, шағал каби гўштхўр ҳайвонларнинг ингичка ичагида паразитлик қилади.

Ўзбекистонда итларни гижжасизлантириш бўйича илмий тадқиқот ишлари XX асрнинг ўрталаридан бошдаб ривожлана бошланди. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги (МДХ) мамлакатларида ценуроз нотекис тарқалган. Кавказ худудларида 10-20%, Доғистонда 22-46%, Туркманистонда 18,7% (1998) й, Ўзбекистонда 11,4% (1991) й.

М.И.Сополченка (1939) й “Копчигай” қорақўлчилик хўжалигида итларни йилгача уч марта, яъни апрель, июль ва сентябрь ойларига гижжасизлантирилиб, қўйлар орасида ценуроз ва эхинококкоз касалликларини кескин камайтиришга эришилган.

И.А.Субботина, Б.Н.Бакыев (2018) маълумотларига қараганда Туркманистонда итлар эхинококклар билан 28-57 фоизгача, мультицепсислар билан 13-23 фоизгача зараланган.

Ценурозга эпизоотик маълумотлар (қўзилар 6-12 ойлик), клиник белгилари (айланма ҳаракат, кўриш қобилиятини пасайиши, темир) ва ўлган ёки мажбурий сўйилган қўзилар бош мияси ценур пуфагини аниқлаш орқали ва мультицепсисларга чўпон итларига ареколин гидробромид препаратининг 0,01 мл сувли эритмаси ишлатилади.

**Материаллар ва методлар:** Тажриба Жиззах вилояти Фориш туман “Арион Капитал” масъуляти чекланган жамиятига қарашли 9 та қўтондаги 20 бош чўпон итлари табиий зараланган муҳитда олиб борилди.

Итларни гижжасизлантириш М.Аминжанов (1987) усулга кўра, гижжасизлантириш учун ареколин гидробромид препаратининг 0,01% сувли эритмаси ишлатилади. Препарат эритма 5 мг/кг миқдорида итни боғланган ҳолатда оғзи орқали (per os) берилади, сўнгра итлар ахлати билан ажралиб чиққан гельментлар қайси турдаги гельментлигини аниқлаш учун, итларни қўйиб юборилади.

Тажриба натижалари ва уларнинг тахлили: Жиззах вилояти Фориш тумани “Арион Капитал” масъуляти чекланган жамияти қорақўлчиликка ихтисослашган ва хўжалик қўйлар орасида бир неча йиллар давомида ценуроз касаллигига учраб иқтисодий зарар етказиб келмоқда.

“Арион Капитал” масъулятига қарашли қўтонларда ўртача 1-2 бош итлар сақланади. Чўпон итларининг *Multiceps multiceps* гельминти билан зарарланиш даражасини аниқлаш учун уларни боғлиқ ҳолда сақлаб ареколин гидробромид препаратининг 0,01% сувли эритмаси 5 мг/кг трик вазнига оғиз орқали берилади.

Натижада итларда кучли даражада ахлат ажратилиши ва шу билан биргаликда *Multiceps multiceps* гельминтининг вояга етган шакли 90-135 см узунликда бўлиб, чўпон итларнинг гельминтлар билан зарарланиш натижалари №1 жадвалда келтирилган.

Жадвал

№1

“Арион Капитал” МЧЖ қўтонлардаги чўпон итларининг *M. Multiceps* билан зарарланганлик даражаси.

Т.р	Хўжалик номи	Текширилган қўтонлар сони, та	Текширилган итлар сони, бош	Зарарланган итлар сони, бош	фойзи	Топилган гельментлар сони			
						M. multiceps		E.granulosus	
1	“Арион Капитал”	9	20	7	35	5	74,4	2	28,5
Жами		9	20	7	35	5	74,4	2	28,5

1 жадвалдаги маълумотлардан кўришиб турибдики, Жиззах вилояти “Арион Капитал” масъуляти чекланган жамиятидаги текширилган 9 та қўтондаги 20 бош чўпон итларининг 7 боши (35%) гельментлар билан зарарланганлиги, 2 бош (28,5%) итда эхинококкоз гельминти билан зарарланганлиги аниқланди.

**Хулоса:** Жиззах вилоятининг “Арион Капитал” масъуляти чекланган жамиятидаги чўпон итлари мультицепсис гельминти билан зарарланиши оқибатида бир ва икки ёшдаги қўйларнинг ценуроз касаллигига чалиниши сабабли масъуляти чекланган жамиятига катта зарар етказилиши аниқланди. Шунинг тасдиқлаш зарурки, фермер ва масъуляти чекланган жамиятларнинг чўпон отарларида ҳар кварталда бир маротаба чўпон итларини гижжасизлантириш ишлари олиб бориш шартлиги ва зарурлиги маълум бўлди.

## Фойдаланилган адабиётлар

1. Азимов Ш.А., Бекеров З., Джумаев З. Цестодозы собак пердгорногорной зоны Кашкадарьинской области // Мат. Научной конф. “Проблемы морфологии и паразитологии”. 1975.с.72-74.
2. Аминжонов М. Дегельминтизации и методы ее усовершенствования при цестодозах собак // Тр. УзНИВИ. Ч.11., 1979. Т. 19. С.21-30
3. Бекиров Р., Джумаев З., Пулатов Г., Новые антигельминтики против цестодозов собак.//Тр. УзНИВИ. Т.36. 1984. С. 7-11.
4. Бойсугуров Т. Арзиев Х. “Қизилқум” ва чегарадош массивларда итларнинг мультицептозлар билан зарарланиши. Илмий мақолалар тўплами. УзНИВИ., “Ўзбекистонда қишлоқ хўжалик ҳайвонлари касалликларига қарши кураш ва олдини олиш тадбирлари”. 18-21 бетлар 2000 й.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sultanov Turdali Muxtaraliyevich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Musayeva Aziza Isayevna**

290-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarini tizimli tashkil qilishga yordam beradi. Bunda o'quvchilarni matematika fanidan masala yoki misollarni echish jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini rivojlantirishda qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik matbuot, matematik viktorina, matematik devoriy gazeta.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Matematikadan «sinfdan tashqari ish» deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi: Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quv jarayonini mustahkamlash va o'quvchilarni fanlarga qiziqishini shakllantirish, darslarda faollashtirish, ma'naviy tarbiya berish, tasavvur va tafakkurni rivojlantirishga, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarning mazmun va mohiyati teran va boy mazmunga ega bo'lib samarali bilim salohiyatiga ega bo'lish kasb hunarga qiziqtirishga ham xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning vazifalari: bolalarda ijodkorlik tuyg'ularini rivojlantirish, biri bilan samimiy yaxshi munosabatda bo'lish, birini hurmat qilishga o'rgatish; bolalarda ijodiy faoliyatning turli qirralariga jalb etish; . sinfdan tashqari ishlar uchun ijodkorlik va muqobil shart sharoitlardan foydalanishga yo'naltirish; bolalarni bilim va ko'nikmalarini tizimini aniqlash; ta'lim – tarbiya jarayonida fanlardan o'zlashtirishi qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilar bilan korreksion ishlar olib borish. boshlang'ich sinflarda informatika Elementlariga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik dasturiy majmuasini tayorlash.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik [ziyakliklarini rivojlantirish](#); matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, [mustaqillik](#), uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash. Matematik to'garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarqalganidan biri. Uning asosiy vazifasi matematikaga alohida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematika to'garagini o'tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

**Matematik matbuot:** boshlang'ich sinflarda chiqariladigan gazetalar va o'tkaziladigan viktorinalar mazmunini ko'proq [topishmoq](#), boshqotirgich, rebuslar va boshqa xildagi qiziqarli materiallar tashkil qiladi va ularning maqsadi o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarning matematika gazetasi [rangli qilib bajariladi](#), masala va misollar rasmlarda beriladi va qiziqarli xarakterda bo'ladi.

**Matematik viktorinalar** gazetalaridan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun beriladigan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchiga yoki shu ish topshirilgan o'quvchiga beriladi. Muddat o'tishi bilan olingan javoblar qaraladi va g'olib o'quvchilar aniqlanadi.

**Matematik konkruslar va olimpiadalar.** Matematik konkruslar qiyin masalalar echish, o'tkir zehn va tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'ziga xos musobaqalardir. Matematik konkruslar [asosan yaxshi matematikni](#), tez tushunadigan, payqaydigan, ziyrak, yaxshi sinfni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Konkrus mavzusi va uni o'tkazish vaqti oldindan belgilanadi. Masalan: [masalalar echish](#); og'zaki va yozma hisoblashlar; geometrik topshiriqlar va hakoza. Matematik olimpiadalar matematik konkruslardan farqli [ravishda yirikroq masshtabda](#), maktabning bir sinfi emas, balki hamma sinflarini jalb qilgan holda o'tkaziladi. Olimpiadalar yiliga bir marta matematik qobiliyati ko'proq o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Maktab olimpiadasini maktab direktori tasdiqlagan komissiya boshqaradi. Komissiya [topshiriqlarning mazmunini](#), qatnashchilarni tanlash shartlarini aniqlaydi, olimpiada o'tkazilish vaqtini belgilaydi. Olimpiadalarni o'tkazishdan oldin unga tayyorgarlik ishlari bajariladi.

**Matematik matbuot:** boshlang'ich sinflarda chiqariladigan gazetalar va o'tkaziladigan viktorinalar mazmunini ko'proq [topishmoq](#), boshqotirgich, rebuslar va boshqa xildagi qiziqarli materiallar tashkil qiladi va ularning maqsadi o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarning matematika gazetasi [rangli qilib bajariladi](#), masala va misollar rasmlarda beriladi va

qiziqarli xarakterda bo'ladi. **Matematik viktorinalar** gazetalardan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun beriladigan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchiga yoki shu ish topshirilgan o'quvchiga beriladi. Muddat o'tishi bilan olingan javoblar qaraladi va g'olib o'quvchilar aniqlanadi.

**Matematik devoriy gazeta, viktorinalar**, odatda, matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo'yiladi, bu burchakda bulardan tashqari matematikadan ko'rsatmali qurollar, har xil gazetalardan qirqib olingan, Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi son ma'lumotlar, har xil mashinalarning tezliklari haqidagi, bolalarga ko'proq tanish mollarning baholari, oziq-ovqatlar narxlari ifodalangan materiallar yopishtirilgan albomlar, «Bilasizmi?» nomi ostidagi qiziqarli matematik ma'lumotlar to'plami bo'lishi mumkin.

**Matematik ekskursiyalarning** maqsadi- aniq hayotiy fakt va taassurotlarni talab qilish, bular o'quvchilarni shu faktlar bilan turmushda uchrashtirish yo'li bilan olinadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari bilan ekskursiyalar o'tkazish muhim qiyinchiliklarga bog'liq va o'qituvchidan puxta tayyorlanishni talab qiladi: o'qituvchi ekskursiya o'tkaziladigan joyga oldin borib, ko'rib kelishi ekskursovodga qanday formada tushuntirib berish haqida, ekskursiya vaqti haqida ko'rsatmalar berishi kerak. Ekskursiya o'tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo'lishi nihoyatda muhimdir, shunday bo'lganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematikadan to'garaklarni muntazam ravishda olib borish zarur deb hisoblaymiz va maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Alimov va boshqalar «Algebra» 9 sinf, «Algebra va analiz asoslari» 10-11 sinf, Toshkent-2020.
2. R.Drayver Nega matematika? Toshkent 1989 yil. 276 b.
3. Saydaliyeva L.M O'quvchilarga qadimiy masalalar yechtirish orqali mantiqiy tafakkurini shakllantirish Chirchiq 2022 yil
4. Saxaev M. «Algebradan masalalar to'plami» T. «O'qituvchi», 1987 yil.

## INKLYUZIV TA'LIM VA UNING MOHIYATI

**Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna**

Toshkent Viloyati Pedagoglarini Yangi Metodikalarga O'rgatish Milliy Markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Inklyuziv ta'limda yuz berayotgan o'zgarishlar va bu ta'lim tizimini chuqurroq o'rganish. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish. Bu ta'lim shakli hozirgi kunda eng samarali qulay ta'lim tizimi sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda. Inklyuziv ta'limning yutuqlari kundan kunga ortib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, anomal bolalar, tiflopedagogika, surdopedagogika, logopediya, integratsiyalash.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda.

Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar yetarli emas. "Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan

